

SOLIYEV A.S., TASHTAYEVA S.K.,  
EGAMBERDIYEVA M.M.

# SHAHARLAR GEOGRAFIYASI



TOSHKENT

26.8 ya 73  
E-77

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva**

**SHAHARLAR  
GEOGRAFIYASI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT–2018**

UO‘K 911.375:711(075.8)

KBK 26.8ya73

C 77

**A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva.**  
**Shaharlar geografiyasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: «Barkamol fayz media», 2018, 184 b.**

ISBN 978-9943-5519-4-7

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Shaharlar geografiyasi” fanining nazariy va amaliy masalalariga oid bilimlar berishga mo‘ljallangan. Unda shaharlar to‘ri va tizimlarining shakllanish, joylashish va rivojlanish xususiyatlari, zamonaviy urbanizatsiya muammolari, O‘zbekiston shaharlari geografiyasi yoritilgan. Kitob oliy o‘quv yurtlari geografiya yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari va talabalari uchun tavsiya etiladi, shuningdek, hududiy boshqaruv organlari xodimlari, iqtisodchi-mintaqashunos, shaharshunos, shaharsozlik yo‘nalishi mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

UO‘K 911.375:711(075.8)

KBK 26.8ya73

#### **Mas’ul muharrir:**

**O.Otamirzayev** – “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktor o‘rinbosari, geografiya fanlari doktori.

#### **Taqrizchilar:**

**A.Qayumov** – O‘zMU Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası professori, geografiya fanlari doktori;

**Q.Usmonov** – Toshkent arxitektura qurilish instituti Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi kafedrası mudiri, dotsent, texnika fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-5519-4-7

© «Barkamol fayz media», 2018-y.

## Soʻz boshi

Shaharlarni oʻrganish katta ilmiy, madaniy va maʼrifiy ahamiyatga ega. Chunki mamlakat va yurtlarning hozirgi kuni va oʻtmishi, tarixi, tasnifi va taqdirini, ularning jahon hamjamiyatidagi oʻrnini, geosiyosiy mavqeyini koʻp hollarda shaharlar belgilab beradi.

Shaharlar nihoyatda harakatchan, dinamik obyekt, ular ham jonli mavjudotdek betakror, oʻziga xos borliq. Shaharlarning ham tugʻilgan joyi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishi, yoshi va faoliyati, boshqacha qilib aytganda, pasportlari bor. Binobarin, shaharni oʻrganish hamma vaqt jonli va qiziqarli boʻladi.

Ushbu qoʻllanmada shaharlar rivojlanishining tarixiy, geografik, sotsial, geosiyosiy, iqtisodiy, shaharsozlik va boshqa masalalari oʻrin olgan. Qoʻllanma ikki boʻlimdan iborat boʻlib, birinchi boʻlimda shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, jahon miqyosida global tus olgan urbanizatsiya jarayoni va uning mintaqaviy xususiyatlari, shaharlar toʻri va murakkab tizimlarini rivojlanish qonuniyatlari hamda muammolarining nazariy asoslari oʻrganiladi. Ikkinchi boʻlim esa, Oʻzbekiston shaharlari geografiyasiga bagʻishlanib, iqtisodiy geografik rayonlar doirasida shaharlarning shakllanish va rivojlanishining oʻziga xos jihatlari bayon etiladi.

Mazkur oʻquv qoʻllanma M.Pacione, P.Teylor, N.Baranskiy, G. Lappo, E.Persik va boshqa xorij olimlarining shu mazmundagi oʻquv adabiyotlarida keltirilgan fikr va gʻoyalar bilan keng boyitilgan.

Oʻquv qoʻllanma geografiya yoʻnalishi talabalari uchun shaharlar geografiyasi (geourbanistika) fanini oʻqitishda foydalanish uchun moʻljallangan. Shuningdek, undan barcha shaharshunoslik sohalari mutaxassislari va shaharlar hayoti bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

TerDU AR.10  
№ 404 414

## I BOB. SHAHARLAR – IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYANING O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

### **Shaharlar geografiyasi fanining obyektii va predmetii, iqtisodiiy- ijtimoiy geografiya fanlari tizimida tutgan o‘rni**

1. *Shaharlar geografiyasining shakllanish tarixi.*
2. *Shaharlar geografiyasi – iqtisodiiy - ijtimoiy geografiya fani-  
ning bir tarmog‘i sifatida.*
3. *Fanning obyektii va predmetii.*
4. *Shaharlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni va o‘ziga  
xos xususiyatlari.*

*Tayanch iboralar: shaharlar geografiyasi, urbanistik hudud,  
“qutblashgan landshaft”, shaharlarni joylashuv modellari.*

1. Shaharlar geografiyasi iqtisodiiy - ijtimoiy geografiya fanining muhim tarmog‘i bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish doirasida, uning bir bo‘g‘ini sifatida o‘rganila boshlangan. Shaharlar tarixiiy, geografik, iqtisodiiy, shahar qurilishi nuqtayi nazaridan qadimdan o‘rganib kelingan, ular hayotiga bag‘ishlangan monografiyalar, qo‘llanmalar juda ko‘p. Eramizdan avvalgi ikkinchi ming yilliklarda shakllangan Babil, Xarappa, Afina, Rim, Persepolis kabi qadimgi shaharlar ham muayyan planlar asosida qurilgan. Shaharlarning ko‘payishi, urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi bilan har tomonlama o‘z davriga mos, qulay, obodonlashgan shaharlar barpo etish g‘oyalari rivojlanib bordi. Muayyan hudud (mamlakat, rayon) da shahar aholi manzilgohlarini o‘zaro mutanosib, oqilona joylashtirishga oid iqtisodiiy geografik tadqiqotlar XIX asrda rivojlana boshladi. Bu borada shaharlarni ilmiy va amaliy o‘rganish asosida olimlar tomonidan turli qonuniyatlar, nazariya va konsepsiyalar yaratildi. Jumladan, 1850-yilda yaratilgan I.Kol nazariyasiga ko‘ra, yirik shahardan atrofga tarqaluvchi bosh transport yo‘llariga ikkinchi darajali transport tarmoq-

lari kelib tutashadi. Ana shu yerda, shahardan ma'lum uzoqlikda yo'llar tutashadigan nuqtada keyingi pog'onadagi aholi manzilgohini joylashtirish maqsadga muvofiq.


1850–70-yillarda K.I.Arsenyev gidrografik tarmoqlarning Rossiya shaharlari taraqqiyotidagi rolini o'rganib, 200 yillik tarixini tadqiq etgan.

1910-yilda Rossiyada V.P.Semyonov – Tyanshanskiy “Rossiyaning Yevropa qismidagi shahar va qishloq” (“Город и деревня Европейской России”) asarini chop etadi. Uning fikricha, shaharlar umumsayyoraviy markazlar bo'lib, ulardan tarqalgan radiuslar bo'ylab, muayyan masofada unga yordamchi kichikroq shaharlar joylashadi va uning atrofidagi hududlar iqtisodiy jihatdan o'sha markazga qaram bo'ladi.


1933-yilda nemis olimi V.Kristallerning “Janubiy Germaniyada markaziy o'rinlar” kitobining nashr etilishi (keyinchalik “Markaziy o'rinlar” nazariyasi bilan mashhur bo'lgan) shaharlar geografiyasi fanining vujudga kelishida muhim asos bo'ldi. U bir xil sharoitlarda, iqlim, aholi zichligi, transport va boshqa jihatdan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan hududda shaharlar ma'lum qonuniyatga asoslanib joylashishini aniqlagan. Ushbu modelga asosan, shaharlar o'zlaridan kattaroq bo'lgan markazlar atrofida, oltiburchak (geksagonal) hosil qilgan holda joylashtirilishi taqozo etiladi va shu tarzda u bir - biritdan yuqori bo'lgan yettita pog'onani ajratadi. Olimning fikricha, aholining eng kichik ehtiyojlari eng kichik markazlarda, kattaroq ehtiyojlari undan yirikroq shaharlarda qondiriladi (*1-rasm*). Bu g'oyalar hozirga qadar qator aholi manzilgohlari va xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish uchun asos bo'lib kelmoqda.

K.Klark o'z ishlarida aholi va faoliyat turlari zichligining shahardan atrofga qarab pasayib borishini va shunga ko'ra yerga bo'lgan narxlarning ham arzonlashib borishi qonuniyatini tadqiq etadi. E.Barjes shaharlarning hududiy tarkibida konsentrik modelni, X.Xoyt esa sektorli joylashish modelini, C.Garris, E.Ulman ko'p yadroli modelni yaratishdi.<sup>1</sup> Bunda ular shaharning turli qismlarini (rayonlarini) – sanoat rayoni, aholi yashovchi rayon, xizmat ko'rsatish rayonlarini oqilona joylashtirish sxemalarini ishlab chiqdilar (*2-rasm*).

<sup>1</sup> Перцик Е.Н. География городов (Геоурбанистика).–М., 1991,152 с.




**1-rasm. V.Kristallarning «markaziy o‘rinlar» modeli. 1 – eng kichik aholi manzilgohi; 2 – mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan markaz; 3 – undan yuqori pog‘onada turuvchi shahar.**




**2-rasm. a–halqasimon; b–sektorli; d–ko‘p yadroli; 1–markaziy ish yurituvchi rayon; 2–ulgurji savdo va yengil sanoat rayoni; 3–aholi massivlari (noqulay); 4–o‘rtacha sifatli aholi uy-joylari; 5–obod shahar (qulay va shinam uy-joylar); 6–og‘ir sanoat rayoni; 7–tashqi ish yurituvchi rayon; 8–shahar atrofi aholi manzilgohlari; 9–shahar atrofi sanoati; 10–tebranma migratsiya zonasi.**

Manba: E.Перцик. География городов (Геоурбанистика).–М., 1991, 152 с.



- 1-shahar markazi
- 2-aholi massivlari
- 3-qishloq xo'jalik yerlari
- 4-tabiiy bog'lar
- 5-qi'riqxonalar




**3-rasm. B.Rodomanning «qutblashgan landshaft» modeli.**

Hududning ekologik qutblashuvi: a) obyektiv jarayon, b) istalgan yo'nalishdagi rekonstruksiya ishlari; d) modelni o'zgartirish g'oyalari (Rodoman bo'yicha). 1-aholi manzilgohlari markazlari va transport tugunlari; 2-boshqa aholi massivlari (seliteb hudud); 3-qishloq xo'jalik yerlari; 4-foydalanilayotgan tabiiy landshaft; 5-foydalanilmayotgan landshaft. Yo'llar: A – inson tomonidan yaratilgan, B – tabiiy. I. Ilk dehqonchilik davrida aholi manzilgohi atrofida juda katta maydonlarda yovvoyi tabiat hukmron bo'lgan. II. Kichik sayyorada shahar va tabiiy landshaftni hamma yarim shar markazida polosa tarzida joylashtirish mumkin. III. Agar shahar kvartallari va shahar atrofi landshaftlari o'zaro almasha, turar joy binolari tabiatga kirib boradi, shahar kvartallari yo'l bo'ylab joylashadi. IV. Hozirgi kunda shaharlar qo'shilib ketib, tabiiy landshaftlar orollar shaklidagina saqlanib qolmoqda. V. Tabiiy landshaftlarni yo'laklar orqali parklar bilan bog'laymiz. VI. Shunday holatda ikki transport yo'llari – sun'iy va tabiiy yo'llar kesishadi.



B.Rodoman shaharlarni joylashtirishda “qutblashgan landshaft” modelini yaratadi (1970 y.). Unga ko‘ra, aholiga zarur bo‘lgan ikki qarama - qarshi muhit shahar va tabiat orasida o‘zlashtirilish darajasi har xil bo‘lgan, turli funksional zonalar: aholi massivlari, agrosanoat majmualari, shahar atrofi bog‘lari, turistik maskanlar va b. almashinib joylashishi lozim. Shunda tabiat shahardan oraliq zonalar orqali ajralib turadi va unga keskin zarar yetmaydi (3-rasm).

Olimlar shaharlarning joylashuvi ma’lum bir qonuniyatlarga asoslanishini aniqlab, optimal joylashtirish sxemalarini yaratishga harakat qilganlar. Ammo bunday sharoitlarni hamma yerda ham topish qiyin va ular “ideal” shahar ko‘rinishida aks etgan. Aksariyat hollarda esa, shahar va qishloqlar areal, chiziq va tugunlar shaklida joylashgan (4-rasm).



**4-rasm. Aholi manzilgohlari joylashuvining arealli (1), chiziqli (2) va tugunli (3) shakllari.**

Hozirgi kunda matematik modellashtirish, kompyuter texnikasi yordamida ko‘plab turli - tuman shaharlar va ularning qismlarini joylashtirish sxemalari yaratilmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida dastlab shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishga N.Baranskiy asos soldi. U shaharlarning vujudga kelishida iqtisodiy geografik o'rin konsepsiyasini yaratdi.

1960–70-yillarda MDH davlatlarida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi asosida shaharlashish jarayoni avj oldi. Uni o'rganishga bo'lgan qiziqish borasida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Y.Saushkin, G.Lappo, E.Persik, V.Listengurt, X.Xorev, P.Polyan va boshqalar ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistondagi dastlabki geourbanistik tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. N.Smironov tomonidan 1962-yilda "Farg'ona vodiysi shaharlari" nomli asarning yaratilishi bu boradagi ilk qadam bo'ldi. Z.Akramov, T.Raimov, O.Ota-Mirzaev, A.Soliyev, E.Ahmedov, A.Qayumov va boshqalarning O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston shaharlarining rivojlanishiga oid ilmiy asarlari mamlakatimizda o'ziga xos urbanologlar ilmiy maktabining shakllanishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda respublikamizda o'nlab mutaxassislar ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

2. Shaharlar boshqa iqtisodiy geografik obyektlarga qaraganda o'zining yaxlit, darhol ko'zga tashlanib turishi bilan farqlanadi. Buning sababi – ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy - iqtisodiy voqelikni hududda, geografik kartada o'ziga xos tasvirlashdir.

Ma'lumki, iqtisodiy kartalarda asosan uch hududiy shakl ko'rsatiladi: chiziqlar yo'llarga mos kelsa, areal yoki maydonlar qishloq xo'jalik sohalariga, nuqta va tugunlar (tugunchalar) esa sanoat markazlari, shaharlarni aks ettiradi. Binobarin, aytish mumkin, iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy tadqiqot obyekti ana shu uchlik, hududiy yoki geografik geometriya hisoblanadi va ularni tahlil etish bu fanning tub masalasidir.

Shaharlar geografiyasining iqtisodiy va sotsial geografiya fani doirasidagi bunday yutug'ining boisi nima? Avvalambor, ta'kidlash lozimki, shaharlar hududiy birlikdir, ikkinchidan, ular murakkab sotsial - iqtisodiy kategoriya; uchinchidan, shaharlarda atrof - muhit, mazkur hududning ijtimoiy - iqtisodiy faoliyati, misli oynada aksini

topgandek, yaxlit mujassamlanadi; to'rtinchidan, shaharlar har bir davlat, hudud, iqtisodiy va sotsial geografik tizimning tayanch nuqtalari, «ustunlari» bo'lib xizmat qiladi. Shaharlar – bizning o'tmishimiz, hozirgi kundagi qudratimiz va istiqbolda rivojlanish quvvati va imkoniyatimizdir.

Global va mahalliy omillarning o'zaro aloqasi natijasida turli urbanistik o'zgarishlar kelib chiqadi. Shaharlarda 3 xil global o'zgarishlar mavjud bo'lib, ular:

mahalliy, mintaqaviy, milliy va global miqyosda urbanistik tizimlarning o'zgarishi;

Urbanizatsiyaning tarqalishi;

Urbanistik hududlarda ijtimoiy - hududiy o'zgarishlar.

Bularning har biri bir-biriga bog'liq jarayonlar va ularning oqi-batlari bir-biriga ta'sir etadi. Shaharlar geografiyasida ushbu jarayonlarni tadqiq etish uchun urbanistik tahlillar amalga oshiriladi. Urbanistik tahlil shaharlarni kompleks va ko'p qatlamli tarzda tushunishga imkon beradi. U quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- yerdan foydalanish va zichlikni tasvirlash;
- tahliliy ma'lumotlarni yig'ish uslublari;
- geografik ma'lumot tizimlari;
- jurnal-kutubxona manbalari.

Barqaror rivojlanishni amalga oshirishga imkon beruvchi turli jarayonlarni tahlil qilish orqali konseptual ishlanmalarni taqdim etadi.

Urbanistik tarkibiy tahlil turlari - urbanistik makon vositalari, qurilish shakli tipologiyasi, transport va infratuzilma, atrof - muhit vositalari, sotsial - iqtisodiy va madaniy xususiyatlar:

- umumiy tahlil;
- hududiy tahlil;
- sotsial-hududiy tahlil<sup>2</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, shaharlar geografiyasi shaharlar to'ri va tizimlarining shakllanish, joylashish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Shu bois, shaharlar geografi-

---

<sup>2</sup> Pacione M. Urban geography: a global perspective. 3-edition.–London, 2009.

yasi tarix, matematika, ekologiya, rayon planirovkasi, shaharsozlik, sotsiologiya, iqtisodiyot, tabiiy geografiya fanlari bilan aloqador, sanoat geografiyasi, transport geografiyasi hamda geodemografiya, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi kabi iqtisodiy geografiyaning tarmoqlari bilan uzviy bog'liq. Uni o'rganishda geografik taqqoslash, kartografiya, tarixiy, statistik, matematik modellashtirish, balans va boshqa usullardan keng foydalaniladi.

Davlatlar va iqtisodiy rayonlarni o'rganishda, o'lkashunoslikda bu hududlarning umumiy ta'rifidan shaharlarga o'tiladi, ya'ni shaharlar mamlakatlar ichki tuzilishi, xo'jalik tarkibi va hududiy tafovutlarni bilib olishda tahlil qilinadi. Demak, bunday an'anaviy yo'nalishda shaharlar o'lka, hudud iqtisodiy ta'rifining poyonida, yakuniy bo'g'inidan o'rin olgan. Biroq, bu masalani aksincha, muqobil ravishda ham hal etish imkoniyati bor: shaharlarning jamiyat hayoti va uning sotsial - iqtisodiy tuzilmasini aniq va asosiy hududiy shakli ekanligidan kelib chiqqan holda, mamlakat tavsifini uning shaharlari-dan boshlash mumkin.

Shaharlar geografiyasi shaharlar va shaharchalar joylashuvi, taqsimoti, ular orasidagi va ichidagi mavjud bo'lgan ijtimoiy – joylashuv o'xshashliklari va farqini tushuntirishga harakat qiladi. Agar barcha shaharlarda muayyan o'xshashlik bo'lmaganda, ularni o'rganish qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo'lar edi. Har bir shahar o'ziga xos bo'lib, urbanistik joylashuv va kelib chiqish darajasiga ko'ra turli tabiatni namoyish etadi. Barcha shaharlar joylashuv (rezidensial) hudud, transport yo'llari, iqtisodiy faollik, xizmat ko'rsatish infrastrukturasini, tijorat hududi va ijtimoiy binolaridan tashkil topgan. Dunyoning turli mintaqalarida urbanistik evolutsiya bir xil yo'nalishda borgan. Rivojlangan mamlakatlar, sobiq kommunistik va uchinchi dunyo mamlakatlari shaharlari ichidagi sodir bo'layotgan urbanistik hodisalar tabiatiga suburbanizatsiya, jentifikatsiya<sup>3</sup>, ijtimoiy-hududiy ajralish kabi jarayonlar ta'sir etadi. Shaharlar, shuningdek, noadekvat joylashuv, iqtisodiy pasayish, qashshoqlik, sog'liq va kasallik, ijtimoiy qutbiylik, transport tiqilinchlari va ekologik ifloslanish kabi

<sup>3</sup> Jentifikatsiya – shaharning eski, kambag'allar yashaydigan qismlarini rekonstruksiya qilish va sifatini oshirish jarayoni.

turli darajadagi muammolarni aks ettiradi. Qisqacha qilib aytganda, urbanistik joylashuvda turli xususiyatlar va munosabatlarni ko'rish mumkin. Bu kabi xususiyatlar va munosabatlar shaharlar geografiyasini o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi (*M.Pacione, 2009, 3-b.*).

Shaharlar geografiyasini o'rganishda istiqbolda quyidagilarni nazarda tutmoq lozim:

global urbanizatsiyani jamiyat globallashuvining natijasi deb bilish;

urbanistik muhit rekonstruksiyasida (o'zgartirish) global va lokal jarayonlar o'rtasidagi dialektik aloqaga asoslanish;

urbanizatsiya tabiati, sifati mahalliy va mintaqaviy darajada global iqtisodiyot va jamiyat konsepsiyasi bilan birgalikda rivojlanishi lozim (*M.Pacione, 2009, 16-b.*).

3. Shaharlar ko'pchilik fanlar uchun o'rganish obyekti bo'lib xizmat qiladi. Tarixchilar uning kelib chiqish va rivojlanish tarixini, sotsiologiya fani shahar aholisi hayoti, turmush tarzi, aholi munosabatlarini o'rganadi. Arxitektorlar shahardagi qurilish ishlari bilan, ekologlar esa shahar muhitining ifloslanishi va uni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanadilar. Iqtisodchilar shaharlarga ishlab chiqarish markazi sifatida qarasarlar, iqtisodiy geografiya fani esa shaharlarni qachon, qayerda va nima uchun aynan shu davr va shu makeda vujudga kelgani bilan qiziqadi.

Shaharshunoslar shahar va shaharchalar taqsimoti, ularning ichki va bir - biriga ijtimoiy - hududiy o'xshashliklari hamda farqlarini tushuntirish va aniqlashtirishga harakat qilganlar. Bunda, shaharlar geografiyasida ikki xil yondashuv kelib chiqqan:

shahar va shaharchalar va ularning bir - biriga bog'liqligi sifatida o'rganish, ya'ni shaharlar tizimini o'rganish;

urbanistik hududlarning ichki tarkibini o'rganish: shaharlarni tizim sifatida o'rganish (*M.Pacione, 2009, 19-b.*).

4. Shaharlar juda murakkab mavjudot bo'lib, serqirra vazifalarni bajaradi. Siyosiy jihatdan olsak, har bir davlat o'zining shaharlar to'ri va ayniqsa, poytaxti (dorulsaltanati) bilan kuchlidir. Bejiz emaski, har qanday urush - yurishlar muvaffaqiyati va zafari dushmanning shahar va qal'alarini zabt etishda, bo'ysundirishda o'z isbotini topgan. Demak, qadimda shaharlarga, butun yurtga, mamlakatga, boylikka nis-

bat berilgan. Ularni turli mamlakat yoki «iqlimlarda» turlicha atashgan: qubba, madinat, polis, boligʻ, bozor, taun, grad, pur, burg, vil va hokazolar ayni paytda shaharlar geografiasining kengligidan dalolat beradi. Bundan koʻrinib turibdiki, shaharlar davlatlarning siyosiy hayotida, ularning jahon hamjamiyatida, geosiyosiy tuzilmasida muhim rol oʻynaydi.

Har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibi, rivojlanganlik darajasi va xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻrni, undagi mavjud shaharlar tizimi, urbanizatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda shaharlarning ilmiy-texnikaviy, madaniy salohiyatlari ham salmoqlidir.

Shaharlar bozor iqtisodiyotiga oʻtishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Ularda mavjud boʻlgan bank - moliya tizimlarini bozor infrastrukturasi maʼnosida taʼriflash mumkin. Binobarin, mustaqil mamlakatimizning siyosiy hayoti va uning bozor munosabatlariga oʻtish davrida shaharlarning ahamiyati beqiyosdir. Shaharlarda zamonaviy tarmoqlar, ilgʻor texnologiya joriy etish imkoniyati katta; xorijiy sarmoyadorlar ham asosan shaharlar va, ayniqsa, infrastruktura tizimi mukammal shakllangan markazlarni tanlashadi. Shaharlarda tovar ayirboshlash, pul aylanmasi faol boʻladi. Bularning barchasi shaharlarga yangicha qarashni taqozo etadi.

Shaharning madaniy-maʼnaviy, diniy, tarixiy jihatlarini ham unutmashlik lozim. Qadimda, xususan, dini islomda shaharlarga oydek nisbat berilgan, ular dorul, baytul, darif kabi iboralar bilan ulugʻlangan. Agar dashtiy yovuzlar shaharlar rivojlanishiga qarshi boʻlgan boʻlsalar, musulmon olamida shaharlarni barpo etish va ularni yuksaltirishga jiddiy eʼtibor berilgan.

Oʻtmishda shaharlarning goh avj olishi, goh tushkunlikka uchrashi madaniyat (sivilizatsiya), ijtimoiy rivojlanishning doimiy yoʻldoshi boʻlgan va ana shunday davriy notekisliklar tarix bosqichlarini belgilab turgan. Shuning uchun yurtning tarixi, tavsifi va taqdiri koʻp jihatdan uning shaharlari bilan bogʻliqdir.

Har qanday shaharlar azaliy va abadiy muqaddas joylardir, chunki bu joylarda buyuk avliyo va allomalar qabri mavjud. Koʻpgina shaharlar ana shunday fazilatga ega. Bu borada Makka va Madina,

Buxoro, Turkiston, Samarqand, Xiva, Toshkent, Termiz, G'ijduvon, Shahrisabz, Chustga o'xshash shaharlarni tilga olish kifoyadir.

Shaharlarimizning xosiyatli tuprog'i, yer-u suvi dunyoga mashhur siymolarni bergan. Ular esa, ismi-shariflari bilan, o'z navbatida, tug'ilgan va yashagan shaharlarni dunyoga mashhur qilgan, abadiylashtirgan.

Shaharlarning muqaddasligi qadamjoylar va mozorlar bilan bog'liq bo'lgan; qabristonlar shaharlarning o'tmish sirlari, tarixini saqlaydi, ulardagi bozorlar esa yurtning ijtimoiy hayotini miniatyurada mujasamlantiradi. Binobarin, shaharlar shu o'lka, diyorning iqtisodiy va sotsial, ijtimoiy geografiyasining ko'zqusidir.

Xalqimiz hayotida bozorlar azaldan muhim o'rin tutgan; bozori bor joy shahar deb yuritilgan (hozir ham Xitoyning Uyg'uristonida kichik shaharlar, rayon markazlari ba'zan bozor deb aytiladi). Bozorlar mamlakatning turli shaharlarida haftaning deyarli har kunida navbatma-navbat uyushtirilgan, ayniqsa, chorshanba, payshanba, juma va yakshanba kunlari bozorlar nihoyatda gavjum bo'lgan. Shu bois, Sharq bozorlarining shahar hosil qiluvchi vazifasi ularning shahar xalqigagina emas, balki butun atrof ahliga xizmat qilishda ko'ringan. Shaharliklar uchun bozorlar har kuni va bir joyda muqim, barqaror bo'lsa, qishloq ahliga esa bozor har kuni va har joyda bo'lgan. Bozor kunini oila a'zolari zoriqib kutishgan, shu kunga mo'ljallangan ma'lum maqsadlarni rejalashtirishgan; bozor bolajonlarga sovg'a bergan, oilada ro'zg'or yumushlarini bajargan, oila va qo'ni-qo'shni, mahalla uchun axborot vazifasini ado etib kelgan.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Shaharlar geografiyasi fani nimani o'rganadi?*
2. *Shaharlar geografiyasi fanining shakllanish tarixini tushuntiring.*
3. *Fanning o'rganish obyekti va predmeti nimadan iborat?*
4. *Shaharlar geografiyasi qaysi jihatlari orqali boshqa fanlar bilan bog'lanadi?*

## Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish

1. *Shaharlarni o'rganishning iqtisodiy-geografik jihatlari.*
2. *Shaharlarni o'rganishning umumiy tartibi.*

**Tayanch iboralar:** *retrospektiv davr, geourbanistika, urbanistik tarkib, hududiy urbanistik tarkib, tizim – tarkib tamoyili.*

1. Shaharlar, mamlakat va iqtisodiy rayonlar geografiyasida o'rganilishi bilan bir qatorda, ular alohida tadqiqot obyekti bo'lib ham xizmat qiladi. Bu borada, yani shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganish tartibi haqida ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'pgina taniqli olimlarning ko'rsatmalari mavjud. Albatta, shaharlarni o'rganish, avvalambor, ularning tarixi, kelib chiqishi, genetik xususiyatlarini tahlil qilishdan boshlanadi. Natijada, asosan tarixiy manbalarga tayangan holda, o'rganilayotgan shahar yoki shaharchalarning nima uchun aynan shu joyda va o'tmishning aynan shu bosqichida vujudga kelganligi yoritilib beriladi.

Shaharlarni retrospektiv o'rganish tarixiy tamoyilga binoan bajariladi: qo'yilgan maqsad nuqtayi nazaridan o'tmish ma'lum tarixiy davrlarga bo'linadi va har bir davrning shahar (shaharlar) shakllanishi va rivojlanishiga bo'lgan ta'siri tadqiq etiladi. Ammo bu yerda tarixning «ikir-chikiriga» o'tib ketilmaydi, geografiya tarix uchun emas, aksincha, tarix geografiyaga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz shaharlarini o'rganishda, ularni bunyod etilganligidan boshlab hozirgi kungacha bosib o'tgan yo'lidagi asosiy tarixiy, davriy voqealar qisqacha ko'rilib chiqiladi va ular mavjud borliqdan kelib chiqqan holda baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaharlarning tarixi vujudga kelgan va rivojlanib ketgan davr nuqtayi nazaridagina emas (bu asosan tarixning vazifasi), balki ularning hozirgi vaqtdagi holatidan kelib chiqib ham tahlil qilinadi. Tarixiy geografiya uchun esa, har bir hodisa o'sha davrdan kelib chiqib tahlil etilishi va baholanishi lozim. Zero, Geraklit aytganidek, «ayni bir oqimga bir vaqtning o'zida ikki marta tushib bo'lmaydi». Chunki ikkinchi marta kirganda oqim (suv) ham, unga tushuvchi ham ilgarisidek emas, o'zgargan bo'ladi.



O'zbekiston shaharlarini o'rganishda, ularning qadimiy va boy tarixidan tashqari, rus va sovetlar imperiyasi davrlari ham ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng, shaharlar shakllanishi va rivojlanishidagi mamlakatimizning mustaqillik davriga alohida e'tibor berish lozim.

O'rganilayotgan shahar yoki shaharlar tarixiga ko'ra, ularning genetik turlari ajratiladi, «yangi» va «eski» shaharlar guruhi aniqlanadi. Endigi sharoitda «yangi shaharlarni» sobiq sovetlar davrida vujudga kelganligi bilan asoslash noto'g'ridir. Qolaversa, yangi shahar tushunchasining o'zi ham nisbiydir. Keng ma'noda, yurtimizning yangi tarixiga muvofiq «yangi shaharlar» deb, ularni Turkiston Rossiya tomonidan zabt etib olingan (XIX asr yarmi) davrdan so'ng paydo bo'lganlarini aytish mumkin. Bunday shaharlar turkumiga Farg'ona (Yangi Marg'ilon, Skobelev), Kogon (Yangi Buxoro), To'rtko'l (Petroaleksandrovsk)lardan boshlab keyingi yillarda vujudga kelgan barcha shaharlar kiritiladi. Shu ma'noda, sobiq SSSR davrida barpo bo'lgan shaharlar (Navoiy, Zarafshon, Shirin, Do'stlik, Marjonbuloq, Tolimarjon, Yangiyer va boshqalar) ham yangilar qatoriga kiradi. Ammo, iqtisodiy va sotsial geografiya nuqtayi nazaridan qaraganda, butunlay «bo'sh» yoki o'zlashtirilmagan joylarda hamda keyingi qisqa davrda aholisi va xo'jaligi keskin rivojlangan va tashqi qiyofasi tubdan o'zgargan manzilgohlarni tom ma'nodagi «yangi shaharlar» deb atash to'g'riroqdir.

Shaharlar geografiyasini o'rganishdagi navbatdagi bosqich ularni katta-kichikligi bo'yicha tabaqalashtirish (klassifikatsiyalash) dan iboratdir. Bu yerda qo'yilgan maqsad va tadqiq qilinayotgan obyekt xususiyatidan kelib chiqib, shaharlar to'ri aholi soni bo'yicha turli daraja yoki sinflarga ajratiladi. Eng avvalo ular 3 guruhga: katta, o'rta va kichik shaharlarga bo'linadi, maxsus tadqiqotlarda esa yanada kengroq klassifikatsiya qo'llaniladi. Tabiiyki, katta yoki kichik shahar tushunchasi ham nisbiydir. Masalan, Toshkent darajasidan hatto azim Samarqand yoki Namangan ham kichik shahardir (yaponlar «shahar nima?» savoliga «bu Tokiodir» deb javob berishgan ekan). Ayni paytda, mamlakatimiz qishloq joylari, ichkarisidan qaraganda tuman markazi – kichik shahar ham ular uchun katta yoki Chiroqchi aholisining nigohida shahar – bu, eng avvalo, Qamashi va Chiroqchidir; Qarshi, Samarqand, Toshkent esa ular uchun nihoyatda ulkan,

azim shahar hisoblanadi. Demak, shaharlarni miqdoriy jihatdan turlicha baholash sun'iylikka ega ekan. Biroq bunday qarash, odatda, oddiy hayotiy va an'anaviy, kundalik andozalarga mos keladi, xolos. Ilmiy izlanishlarda esa har bir tadqiqot obyekti uchungina emas, balki mamlakat miqyosida rasmiy ravishda qabul qilingan ma'lum andozalarga amal qilish kerak. Bu ayni paytda, turli viloyat va mamlakatlar shaharlarini qiyosiy geografik o'rganishda ham qo'l keladi.

Shaharlar kelib chiqishi va ularni tasniflash natijalari maxsus statistik jadval, diagramma, grafik va xaritalar yordamida tasvirlanishi shart. Jumladan, shaharlar tabaqalanishini piramida shaklida ko'rsatish ham nihoyatda maqbul usul hisoblanadi. Chunki bunday tasvirda mamlakat yoki viloyatning qaysi bo'g'inidagi shaharlari ko'p yoki kam, kuchli yoki zaifligi va ushbu muammoni hal etish yo'llari, manbalari yaqqol ko'rinadi. Ayni chog'da, bu holat mamlakat yoki rayon xo'jaligining hududiy mujassamlashuv xususiyatini aks ettiradi.

Shaharlar miqdoriy darajalari bilan birga, ular sifat ko'rsatkichlari, bajaradigan vazifalari (funksiyalari) bo'yicha ham bir-biriga o'xshash emas. Ma'lumki, juda ko'p shaharlar turli maqomdagi ma'muriy markaz vazifasini o'taydilar. Ular orasida ko'pchilikni tuman markazlari, undan kamrog'ini-viloyat va faqat bittasi esa mamlakat ma'muriy-siyosiy markazi, ya'ni poytaxt funksiyasini bajaradi.

Xo'jalik jihatdan yondashganda, juda ko'p shaharlar sanoat va transport markazi, ayrimlari dam olish (rekreatsiya), fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarning bajaradigan vazifasini, ixtisoslashuvini aniqlashda, asosan band bo'lgan aholi tarkibi tahlil etiladi. Shunga ko'ra, sanoat, transport yoki fan-texnika markazlari ajratiladi. Sanoat shaharlari ichida ko'p tarmoqli sanoat markazi, og'ir va yengil sanoat, resurs shaharlar kabi funksional tiplar belgilanadi. Agarda ana shunday shaharlar toifalari ularning katta-kichikligi, bosqichlari bilan birgalikda ko'rilsa, tadqiqot yanada chuqur va samarali bo'ladi.

O'rganishlar natijasida, shaharlar iqtisodiy geografiyasining eng muhim qonuniyati o'z isbotini topadi. Bu ham bo'lsa, shaharlarning bajaradigan vazifasi ixtisoslashuvi, funksiyasi ularning katta yoki kichikligini belgilashidir.

Shaharlarni o'rganishda, ularning iqtisodiy-geografik o'ri, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllariga alohida e'tibor berish kerak. Bu borada ayniqsa, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kombinatlashuvini, sanoat tuguni va majmualarini tadqiq qilish muhimdir. Bunday iqtisodiy ko'rsatkichlar statistik usullar, hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi, shaharlar ko'rsatkichlari boshqa shaharlar va mamlakatlar o'rtacha holati bilan taqqoslanadi.

Jumladan, mujassamlashuv va ixtisoslashuv koeffitsiyenti va indeklari, tarmoqlarning turlanishi (diversifikatsiyasi), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, rivojlanganlik darajasi va boshqalar hisoblab chiqiladi.

Ma'lumki, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida, ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi, yirik korxonalarni qurish ko'p jihatdan maqbul emas, shu sababdan bugungi sharoitda sanoatni joylashtirish asosida shaharlarning vujudga kelishi va ularning keskin rivojlanishi nisbatan kam uchraydigan holatdir. Ulkan qo'shma korxonalar qurilayotgan Asaka, Qorovulbozor shaharlari bundan mustasnodir.

Shu bilan birga, azaldan mavjud bo'lgan kichik shaharlar muammosi hozirgi kunda boshqacha ma'no kasb etadi. Bunday shaharlarning birdan-bir ijobiy imkoniyati, ularda mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq rayonlariga yaqinligidir. Biroq, kichik shaharlar moliyaviy jihatdan zaif, o'z-o'zlarini boshqarishlari qiyin va davlat yordamiga muhtoj. Buning ustiga, mazkur shaharlarda malakali ishchi xodimlar oz, zamonaviy infrastruktura tizimi to'la shakllanmagan. Binobarin, kichik shaharlarimizga katta muammolar xos, deb aytishimiz mumkin.

Ana shunday sharoitda, xorijiy sarmoyadorlar ko'proq katta shahar muhitini istaydilar, qo'shma va kichik korxonalar qurish imkoniyatlari ham bunday shaharlarda kengroq. Demak, endigi sharoitda, katta shaharlarda kichik korxonalar ko'proq yaratilmoqda, kichik shaharlarda esa, agar ular moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlansa, yirik sanoat korxonalari ham quriladi. Ammo barcha kichik shaharlarni bunday rivojlantirish mumkin emas: vaqt ham, kapital mablag', sarmoya ham yetishmaydi. Binobarin, kichik shaharlarning ayrimlarigina tanlab olinadi va ular o'sish qutbi hamda markazi sifatida rivojlantiriladi. Bunday shaharlarni ajratib olish esa, ularning ko'p omilli

tahlil etilishi va baholanishi (iqtisodiy geografik o'rni, mehnat va xom ashyo resurslari, ekologik holati, transport va boshqa infrastrukturasini, funksiyasi, katta-kichikligi va. h.k.) asosida amalga oshiriladi.

Shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishda, ularning transport funksiyasiga ham alohida e'tibor beriladi. Shahar va transport yo'llari o'zaro chambarchas bog'liq: biri ikkinchisiz bo'lmaydi, yo'llar shaharlarga keladi, shaharlardan yo'llar ketadi. Xullas, shaharlar va yo'llar bu mamlakatning iqtisodiy asosi, «qovurg'asi» hisoblanadi.

Shuningdek, shaharlarning sotsial funksiyalari, fan va ta'lim tizimi, madaniyati, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, ekologik vaziyati, aholisining o'sishi kabi masalalar ham o'rganiladi. Shu o'rinda, poytaxt shaharlarni alohida ta'kidlash joiz. Chunki har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi, xalqaro va diplomatik aloqalar, siyosiy hayoti, eng avvalo, uning poytaxti bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, olamshumul va umumbashariy muammolar xususida rasmiy so'z yuritilganda, odatda, davlatlarning poytaxti nomidan gapiriladi. Shu bois, poytaxt shaharlarning «yuki», mas'uliyatlari nihoyatda vazmin: ular, bir tomondan, mamlakatni hududiy-siyosiy jihatdan tashkil qilish, boshqarish vazifasini ado etsa, ikkinchi tomondan, bunday markazlar davlatni jahon miqyosiga munosib ravishda olib chiqishlari kerak. Aynan ana shu ma'noda har qanday davlat o'z taqdirini poytaxtiga topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikka erishuvi munosabati bilan uning poytaxti – Toshkent jahon geosiyosiy tuzilmasining subyektiga aylandi. Avvallari Toshkent sobiq Ittifoq poytaxti – Moskva «soyasida» qolgan bo'lsa, endi u dunyodagi barcha mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muomala qiladi. Demak, poytaxt shaharlar rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi qonuniy holdir. Sababi, yurtimizga kelganlar, avvalambor, uning poytaxtiga qarab baho berib ketadilar. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz shaharlarining sardori, karvonboshisi, dorulsaltanati Toshkent shahrining mustaqillik sharoifati bilan qisqa vaqt ichida qiyofasini tubdan o'zgarishi quvonchlidir.

Poytaxt bilan bir qatorda viloyat markazlari, yirik sanoat shaharlari, qadimiy shaharlarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega (chunki har qanday poytaxt o'z atrofi, o'lkalari bilan kuchli). Shu o'rinda, shahar-

lar geografiyasi bilan shahar geografiyasini farq qila olish kerak. Birinchisida, mamlakat yoki viloyatlarning shaharlar to'ri, tarkibi va tizimi tadqiq etilsa, ikkinchisida alohida olingan bir shahar o'rganish obyekti shaklida namoyon bo'ladi. Bunday mikrogeografik, yirik masshtabli tadqiqotlar bizda, afsuski, hozircha kam bajariladi (xorijiy davlatlarda bu yo'nalish ancha ilgari ketgan). Vaholanki, shaharlar ichki geografiyasini, hududiy tuzilishini o'rganishning muhim amaliy (konstruktiv) jihatlari mavjud. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, an'anaviy iqtisodiy geografik o'rganishlarni, sotsial geografik izlanishlarga, loyihalashtirish va shaharsozlikda, ularni rejalashtirishda juda qo'l keladi. Bunday ishlarni bajarishda diagramma, statistik jadval va grafiklardan tashqari, maxsus sotsiologik usullar, anketa – so'rovlar o'tkazishni unutmaslik kerak.

Shahar funksiyasining tahlili, ularning demografik jarayonlarini o'rganish bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq. Zero, shaharlarning rivojlanishi, amalda, ulardagi aholi miqdori, uning o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Dunyo aholisining shahar hududlarida yashovchi qismi ortib borgan sari, shaharlar shakllari, yashil hududlar va bioxilma-xillik, aholi zichligi, yerdan foydalanishning turli shakllaridan aralash foydalanish, turli yerlardan to'g'ri maqsadlarda foydalanishning o'zaro bog'liqligini ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqori urbanistik zichlik umumiy yashil hududlarning qisqarishi bilan chambarchas bog'liq. Aholi zichligi ortishi yashil hududlar bilan tartibga solinuvchi mahalliy ekotizim elementlariga ta'sir o'tkazadi (suv va harorat tartibi, uglerod, shaharni ifloslovchi moddalar va ularning kamaytirilishi kabilari) (*M.Pacione, 2009, 25-b.*). Shuning uchun, shaharlar aholi sonining dinamikasi, tabiiy va mexanik harakati, yosh va jinsiy, milliy tarkiblari, aholi joylashuvi qisqacha ko'rib chiqiladi, tadqiqot natijalari jadval, grafik va kartalarda tasvirlanadi.

Geourbanistikada shaharlarniig katta-kichikligi, zichligi, ular orasidagi masofa, urbanistik va hududiy-urbanistik tarkibi ham o'rganiladi. Shuningdek, shahar manzilgohlarining hududiy tashkil etilishidagi, murakkab shakllar – shaharlar aglomeratsiyalari mamlakat yoki viloyat shaharlari geografiyasi doirasida va shu bilan birga, alohida tadqiqot obyekti darajasida ko'rilishi kerak.

Urbanistik tarkib deganda, shaharlar to'ri va tarkibi, katta shaharlar-ning mavjudligi va mavqeyi tushuniladi. Hududiy urbanistik tarkibda esa, mamlakat turli rayon va viloyatlarning har xil bosqichdagi shaharlar va xususan, yirik markazlar bilan ta'minlanganlik darajasi nazarda tutiladi.

Shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni bilan birgalikda o'rganib boriladi. Ammo bu olamshumul hodisa mamlakat tarixi, an'analari, ishlab chiqarishning tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi va hududiy tashkil etish shakllaridan kelib chiqqan holda baholanishi zarur. Shu jihatdan yondashganda, O'zbekistonning urbanizatsiya jarayonida ham o'ziga xos va mos, betakror yo'li bo'lmog'i tabiiydir.

Shaharlarni geografik o'rganishda faqatgina ilmiy adabiyotlar yoki xaritalar kifoya qilmaydi. Buning uchun o'sha shaharlarni mumkin qadar bevosita ko'rish zarur. Ko'rganda ham, shahar markazidagi mehmonxonada yashab ketishning o'zi kifoya emas. Buning uchun shaharning turli tomonini jonli ravishda kuzatish, chor atrofi bilan bevosita tanishish va shu asosda, uning hududiy ko'lami va ichki tafovutlari to'g'risida tasavvur hosil qilmoq lozim.

Ayni paytda, faqat shaharning o'zini alohida olib qarash, uni yopiq tizim shaklida faraz qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bu esa, mantiqiy jihatdan ham to'g'ri emas. Chunki har qanday shahar o'z atrofisiz, qishloq joylarisiz, mutlaqo ajralgan holda vujudga kelmaydi va rivojlanmaydi. Shaharlar, misli tog' relyefidek, iqtisodiy xaritada o'ziga xos cho'qqilarni aks ettiradi va bu nuqtalar faqat atrof-muhit, ma'lum hudud davrasidagina yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu obyektiv borliqdan kelib chiqib, shaharlar yoki shahar geografiyasini, ularning barpo bo'lishi, hozirgi kuni va kelajagini atrof-joylar bilan birgalikda o'rganiladi. Zero, aynan shu hudud imkoniyati, qudrati va salohiyati tufayli bu shahar bo'rtib chiqqan, yuksalgan.

Oxirgi besh yillikda angliyalik olimlar aralash urbanistik shakllarni o'rganib chiqqan holda oldingi standartlar o'zgarib, ularning o'rniga boshqalari yuzaga kelganini ko'rsatib o'tishdi. Ayniqsa, bu standartlar orasida hududiy tarkibga bog'liq ravishda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy, demografik standartlar alohida o'rin egallab bormoqda. Bu standartlarga misol qilib yerdan foydalanish shakllari, transport tezligi, zichlik, makon – bino tavsifi va shahar joylashuvini ko'rsatishimiz mumkin.

Shuningdek, shaharlar uchun har bir standart sotsial, ekologik va iqtisodiy barqaror bo'lishi lozim (*M.Pacione, 2009, 23-b.*).

2. Shaharlarni o'rganishni nimadan boshlamoq zarur? Soha olimlari shaharning qaysi jihatini o'rganishga, muammoni qanday qo'yilishiga qarab, turli tartibda o'rganishni tavsiya qilishadi. Dastlabki tadqiqotlar uchun umumiy tarzda quyidagi tartibga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.<sup>4</sup>

### ***Kirish***

1. *Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoit va omillar.*
2. *Shaharlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari (tarixiy-geografik tahlil).*
3. *Shaharlarning hozirgi ahvoli: funksiyalari, ularning tasnifi, shaharlar demografyasi, sanoati, sotsial sharoiti, transporti va h.k.*
4. *Shaharlarning hududiy tizimlari, shaharlar aglomeratsiyasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.*
5. *Shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy muammolar.*
6. *Shaharlar rivojlanishining bashorati, ustuvor yo'nalishlari.*

### ***Xulosa***

Yuqorida keltirilgan tartib (sxema) ma'lum hudud shaharlar turkumini o'rganishga moslashtirilgan. Shubhasiz, bu bandlarning orasida eng muhimi va uchinchi qism, ya'ni shaharlarning hozirgi holati hisoblanadi. Binobarin, uning tavsifi ham murakkab va keng qamrovli bo'ladi.

Agar alohida bir shahar o'rganiladigan bo'lsa, u holda shaharning mikrogeografiyasi va atrofiga ham e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda tizim – tarkib tamoyiliga asoslanadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Shaharlarni geografik o'rganishning qanday ahamiyati bor?*
2. *Shaharlarni o'rganishning umumiy tartibini tushuntiring.*
3. *Shaharlarga oid mavzu tanlab, unga qay jihatdan yondashish-gizga qarab reja tuzing, uning obyekti va predmetini aniqlang.*

---

<sup>4</sup> Н.Баранский. Об экономико-географическом изучении города.–М., 1956, 16 с.

## Shaharlarning tarixiy shakllanishi va “shahar” haqida tushuncha

1. *Shaharlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari (tarixiy-geografik tahlil).*
2. *Shahar haqida tushuncha.*

**Tayanch iboralar:** *shahar, shaharcha, shahar-davlat, shahar kengashi, respublika, viloyat va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar, yuridik shahar, geografik shahar.*

1. Shaharlarning tarixi juda uzoq. Biroq bu tarix insoniyat tarixidan qisqa bo'lib, bu davr jamiyat tarixiga mos keladi. Uni bir necha tarixiy bosqichlarga ajratish mumkinki, har bir davr o'zining shahar hosil qilish omillari, shaharlar infratuzilmasi, aholi soni, shaharlarning qurilish uslublari, bajargan vazifalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

**1. Qadimgi shaharlar (eramizning V asrigacha).** Umuman olganda, shaharlarning vujudga kelishini ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'laydilar. Ma'lumki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi muqim, doimiy (statsionar) aholi manzilgohlarining barpo bo'lishiga sabab bo'ladi. Dastlabki sug'orish inshootlari yoki vositalarini ko'pchilik qurib, undan foydalanar va ularni qo'riqlardi. Shu asosda kishilarning qadimiy jamoasi vujudga kelgan. Ammo bu jamoa (jamiyat emas), kishilarning hududiy birligi u davrda shahar ham qishloq ham deb aytilmasdi.

Shaharlar, ijtimoiy mehnat taqsimotining navbatdagi bosqichi, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdning ajralib chiqishi natijasida paydo bo'lgan. Ushbu kasbdagi kishilar, bevosita qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydilar va binobarin, ular har xil mehnat qurollari ishlab chiqarish hamda tovar ayirboshlash (almashtirish)da vositachilik vazifasini bajargan, qulay joyda o'rnatilgan aholi punktlarida yashaganlar. Keyinchalik bunday joylar «**shahar**» deb atalgan. Ilk shaharlarning vujudga kelishi, asosan daryobo'yi sivilizatsiyasi bilan bog'liq. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi



davlatlarda eramizdan avvalgi 4–3-ming yilliklarda shaharlar bo‘lgani tarixiy manbalardan ma’lum. Ur, Uruk, Lagash, Kish, Harappa, Bobil, Nineviya, Memfis eng qadimgi shaharlardan hisoblanadi.

Ilk Mesopotamiyadagi shahar – Urda aholisining tabiiy ko‘pa-yishi hozirgi tabiiy ko‘payishga o‘xshamagan. Shaharlar o‘lchami 370x240 m bo‘lib, keng to‘g‘ri ko‘chali, pishgan g‘ishtdan qurilgan. Sotsial hududiy joylashuv oddiy bo‘lgan. Blokklar yoki chegaralar bilan maxsus tikuvchilar, kulollar, elit qatlam va boshqa rayonlar alohida ajratilgan. Shaharlar atrofi bilan umumiy hudud 640 akr (250 gektar) va aholisi 20 000 dan ortiq bo‘lgan.

Harappa qirolligi egizak poytaxtdan alohida tarzda mutlaq kuchga ega bo‘lgan rohib-qirol tomonidan boshqarilgan. M.avv. 2000-yilliklargaacha Shumer shahar davlatlarida savdo belgilari bo‘lgan. Lekin o‘zgarma moddiy madaniyat va hozirgacha olimlar tomonidan oxirigacha qisman o‘qilgan yozuvlar shuni anglatadiki, Nil daryosi shaharlaridan farqli ravishda, Harappa madaniyati va shaharlari mustaqil ravishda paydo bo‘lgan. Bir asr davomida barqaror rivojlanganiga qaramay, Harappa sivilizatsiyasi bosqinchilar tomonidan m.avv. 1500-yilda buzib tashlangan. Mesopotamiya shaharlari m.avv. 2000-yillarda mavjud bo‘lgan. Mezoamerikadagi bir qancha sivilizatsiyalar esa, masalan, Maya, 300–1000-yillarda eng rivojlangan sivilizatsiyalardan bo‘lgan. Tikal, Vaksastum, Mayapan kabi shaharlar kichik davlatlarning poytaxti bo‘lib, rohib tomonidan tayinlangan boshqaruvchi tomonidan boshqarilgan va ozod konfederatsiyaga birlashtirilgan (*M.Pacione, 2009,33-b.*).

Quldorlik davrida shaharlar qul savdosi markazi bo‘lgan. Ayni shu vaqtda, ular davlat markazlari vazifasini ham o‘taganlar, shaharlarda hokimiyat – boshqaruv, armiya, chinovniklar to‘plangan. Natijada, shahar-davlat (goroda-polisi) vujudga kelgan. Masalan, Rim, Afina, Vizantiya, Karfagen, Buxoro, Samarqand (Marokand), Xiva shular jumlasidandir.

**2. O‘rta asr shaharlari (VI–XVI asrlar).** Feodalizmda shaharlar rivojlanishi hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi, yerdan foydalanish bilan (feod – yer) bog‘liq bo‘lgan. Bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashib, shaharlarning savdo (dengizbo‘yi savdosi) va harbiy strategik ahamiyati ortadi, ular katta hududlarning siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy hamda savdo markazlari funksiyasini bajargan. Natijada Parij,

Moskva, Venetsiya, Madrid, London, Dehli, Guanchjou, Agra shaharlari bu davrning yirik shaharlariga aylangan. Buyuk geografik kashfiyotlar dengizbo‘yi shaharlarining rivojlanishini tezlashtiradi.

Aholi soni mazkur davr boshlarida urushlar, epidemiyalar oqibatida sekinlik bilan o‘sib, davr oxirlarida esa tez o‘sgan. Yevropaning eng yirik shaharlarida 200–500 minggaacha aholi yashagan, Osiyoda esa ular ancha ko‘p – 1–2 mln. gacha aholiga ega bo‘lgan (*Guanchjou, Dehli, Chanyan*).<sup>5</sup>

**3. Ishlab chiqarish shaharlari (XVII–XX asrning birinchi yarmi).** Mazkur davrda shaharlarning shakllanishi va jadal taraqqiy etishining asosini mashinalashgan sanoat tashkil etadi. Ijtimoiy va geografik mehnat taqsimoti takomillashib, ko‘plab aholi qishloqlardan shaharlarga ko‘chib kela boshlaydi. Shaharlar aholi va ishlab chiqarish mujassamlashgan yirik markazlarga aylanadi. Dunyodagi eng birinchi sanoat shahri – Buyuk Britaniyadagi sanoat inqilobi ro‘y bergan Manchester shahri hisoblanadi. Chikago, Kyoln, Essen, Detroyt, Nyu-York, Peterburg, Amsterdam, London, Parij kabi shaharlar sanoat ishlab chiqarishi asosida jadal rivojlana boshlagan.

1800-yilgacha London o‘zining 900 000 aholisi bilan dunyoda eng katta shahar bo‘lgan. 1801–1851-yillarda Birmingem aholisi 273 % ortib, 71 000 nafardan 256 000 nafarga ko‘paydi, Manchesterda esa shu davrda 75 000 nafardan 338 000 nafarga ortdi (351%). Glazgoda aholi soni 84 000 kishidan 350 000 kishiga ko‘paydi (317 %). Lavton (1972) hisobi bo‘yicha, Britaniyaning 27 mln.ga ortgan aholisining deyarli barchasi 1801–1911-yillarda urbanistik hududlarda istiqomat qilgan. XIX asrning ko‘pgina yirik sanoat shaharlarida boylik o‘z aksini monumental jamoaviy binolar qurilishi va madaniy institutlarda topdi (*M.Pacione, 2009, 46-b*).

Sanoat shaharlari XIX asrda shaharlarning rivojlanayotgan aholisiga ko‘rsatilayotgan urbanistik xizmatlar va infrastrukturasiga ulkan zarba bo‘lib qo‘shildi. Jamoat sanitariyasi va suv ta‘minoti nomutanosibligi yuzaga keldi va nisbatan past qatlam istiqomat qiluvchi hududlarda suv ta‘minoti deyarli mavjud bo‘lmagan. O‘rta asr Londonida 200 000 dan ortiq drenajsiz quduqlar mavjud bo‘lib, Temza daryosi virtual ochiq kanalizatsiyaga aylanib qolgan. Bu kabi holat boshqa yirik sanoat shaharlarida ham kuzatilgan hamda vabo, tif kabi kasalliklar kambag‘allar

<sup>5</sup> Перцик Е. География городов (Геоурбанистика).–М., 1991, 140 с.

oʻrtasida tarqalgani hayratlanarli holat emas. 1832-yilda vabo epidemiyasi 5000 londonlikni oʻlimiga sababchi boʻlgan boʻlsa, xuddi shu yili Glazgoda 2800 kishini hayotdan olib ketdi. Boylik, tanlov imkoniyati aholi guruhlari oʻrtasida turlicha boʻlgan (*M.Pacione, 2009, 49-b*).

Rivojlangan davlatlarda shaharlar yirik ishlab chiqarish markazlari boʻlishi bilan bir qatorda, aholi tabaqalanishiga asoslangan boy va qashshoq kvartallar, transport tirbandligi, atrof-muhitning ifloslanishi, ishsizlik, jinoyatchilik kabi muammolar keskinlashadi<sup>6</sup>. Aholi koʻpayishi, tabiiy resurslarning koʻplab oʻzlashtirilishi, yirik sanoat korxonalarining ortishi shaharlar, ayniqsa, poytaxt shaharlarning markazlashuviga sabab boʻldi.

#### **4. Postindustrial shaharlar (1970-yillardan hozirgi kunga qadar).**

Fan-texnika inqilobi natijasida, sanoat yetakchilik qilgani holda, shaharlarning ilm-fan, texnik-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy-madaniy funksiyalari ortib boradi. Ular koʻp funksiyali shaharlarga aylanib, murakkab shahar tizimlarini (shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar) shakllantiradi.

Bu davr jahon miqyosida globallashtirish jarayonining yuzaga kelishi bilan bogʻliq boʻlib, xalqaro ish yuritish, moliya-kredit, iqtisodiy-madaniy, savdo, siyosiy-tashkiliy funksiyalar shaharlar rivojlanishining asosini tashkil etadi. Bunday funksiyalarning takomillashib borishi natijasida xalqaro miqyosda ish bajaruvchi “dunyoviy shaharlar” vujudga kelmoqda, masalan, xalqaro moliyaviy markazlar – London, Birmingem, Syurix, Jeneva; xalqaro turizm markazlari – Singapur, Kuala-Lumpur, Parij; iqtisodiy markazlar – Nyu-York, Tokio, Seul; siyosiy markazlar – Gaaga, Vena va h.k. Respublikamizda bozor munosabatlari sharoitida shaharlar siyosiy-madaniy, iqtisodiy-moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, investitsiya va innovatsiya markazlari sifatida rivojlanmoqda.

“Bellning fikricha, industrial shaharlarni postindustrial shaharlardan ajratib turuvchi chegara 1956-yilda AQSHda sanoat sivilizatsiyasi taʼsirida birinchi marta oq yoqali ishchilar miqdori koʻk yoqali ishchilar sonidan ortib ketganida sezilgan. Bell uchun postindustrial jamiyatlardagi mukammallik davri iqtisodiy tashkilot va sotsial munosabatlar tabiatidagi fundamental oʻzgarishlarni anglatadi. Natijada, postindustrial shahar belgilari quyidagicha koʻrinish oladi:

<sup>6</sup> Перцик Е. География городов (Геоурбанистика).–М., 1991, 9 с.

Iqtisodiy asos deindustrializatsiya va tertiarizatsiyada namoyon bo'ladi. Ish bilan ta'minlash Fordism<sup>7</sup> tizimidagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda aks etadi. Bular:

- Global iqtisodiy tizimga chuqur integratsiya.
- Urbanistik shakllarni qayta tarkib topishi.

Daromadlar notengligi, sotsial va hududiy ajratish, urbanistik hududni xususiyashtirish va himoya qilinishi zarur bo'lgan hududlarning ortishi kabi rivojlanayotgan muammolarni ko'payishi (*M.Pacione, 2009, 51-b.*).

Bu davr uchun quyidagi xususiyatlar xos:

Dunyo shaharlari global tizimining shakllanishi. Bu samaradorligi yuqori bo'lgan markazlardan uzoqda joylashgan yerlar bilan dunyoning bir xil ko'rinishga keltirilishi, ya'ni ishchi kuchi va kapitalning global shaharga kelib mujassamlashuvi orqali alohida "dunyo shaharlari"ning kengayishi va ularning quyi darajadagi shaharlarga ta'sirining oshishi. Qisqacha aytganda, mahalliy globallashib, global hududlar mahalliy-lashib bormoqda.

Urbanistik shakllarni tubdan qayta qurilishi. Bu qayta ishlash katta miqdorda neologizmlarni ishlab chiqib, ular shaharlarni bir vaqtning o'zida ichkaridan tashqariga va tashqaridan ichkariga yo'nalgan o'zgarishlarini ifodalovchi jarayonlar – megashahar, tashqi shahar, shahar chegarasi, metropleks<sup>8</sup>, texnoburb<sup>9</sup>, post-suburbia, texnopolis, getipas va ekzopolis kabilarni o'z ichiga oladi (*M.Pacione, 2009, 62-b.*).

2. Shaharlar murakkab tushuncha bo'lgani bois, ularni turli fan va killari har xil talqin qiladilar. Masalan, iqtisod uchun shahar asosan ishlab chiqarish, eng avvalo, sanoat markazi, sotsiologiya uchun o'ziga xos yashash muhiti, tarixchi uchun o'tmishdan guvohlik beruvchi joydir va h.k. Iqtisodiy geografiyada esa shahar – bu qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalar va ular bilan shug'ullanuvchi aholini hududiy tashkil etish shaklidir; u dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim (sistema) hisoblanadi.

Dunyodagi jami aholi yashaydigan manzilgohlar ikki turga bo'linadi: shahar (shahar va shaharchalar) va qishloq aholi manzilgohlari (qishloq va

---

<sup>7</sup> Genri Ford nomi va faoliyati bilan bog'liq bo'lib, XX asrdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi yo'nalishlardan biri.

<sup>8</sup> Metropleks — "megalopolis"ga sinonim sifatida ishlatiladi, bir necha shaharlar shahar atroflari bilan.

<sup>9</sup> Shahar atrofi.

ovullar). Ular bir-biridan qator belgilariga, xususan, aholi soni va zichligi, aholining iqtisodiyotda bandlik tarkibi, binolar, uy-joylar, yo‘llarning qurilish xarakteri, bajarayotgan funksiyasiga ko‘ra farqlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, «shahar» tushunchasi; barcha el va yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir ma’noda talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli davlatlarda turlicha belgilanadi. Chunonchi, islom dini mamlakatlarida shaharlar (qubbalar) avvalambor bozor va masjidning soni bilan belgilangan. G‘arb mamlakatlarida shaharlar aholi soni va zichligi, joylarning arxitekturasi va qurilish shakli, manzilgohning bajaradigan vazifasiga o‘xshash mezonlar orqali ajratilgan.

«Shahar» forscha so‘z bo‘lib, “qal’a” (rus tilida “gorod” – ogorodit, ya’ni o‘rab olmoq) ma’nosini anglatadi. Qadimda odatda shaharlarning ichki – markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, bu yerda saroy, hukmdorlar va ular oilalarining qo‘rg‘onlari, muhim ma’muriy-diniy binolar, bosh maydon (registon), ba’zilarida oddiy aholi xonadonlari ham bo‘lgan va u “shahriston” deb atalgan. Darvozalar orqali ularga kirib-chiqilgan. Uning atroflarida “rabod” deb ataluvchi devorlar bilan o‘ralgan boshqa qismlari ham bo‘lib, bu yerdan bog‘, ekinzorlar, keyinchalik oddiy aholining uy-joylari o‘rin olgan. Masalan, Xivada to‘quvchilar, kulollar, gadoylar mahallalari bo‘lgan.

Shahar – tarixan tarkib topgan aholi manzilgohidir. Shahar tushunchasi nisbiy bo‘lib, qaysi aholi manzilgohini shahar deb yuritish lozimligi borasida olimlar tomonidan hanuzgacha bir fikrga kelinmagan.

Urbanizatsiya o‘lchov birligi sifatida urbanizatsiyalashgan hududni (shahar) aniqlashtirishning quyidagi usullari bor:

*Aholi o‘lchami.* Urbanizatsiyalashgan hududlar qishloq joylardan katta deb tan olingan vaqtdan beri ba’zi hollarda aholi o‘lchamiga alohida qaraladi. Amalda bu shahar aholisi vaqt va makonda boshlang‘ich nuqta sifatida farqlanadi. Shvetsiyada 200 nafardan ortiq bo‘lgan aholiga ega har qanday manzil milliy urbanistik tizimda alohida o‘rin egallasa, AQSHda 2500, Shveysariyada 10 000, Yaponiyada 30 000 dan ortadi. Shvetsiyada 200 nafardan ortiq aholiga ega bo‘lgan aholi manzillariga alohida maqom berilsa, shu bilan birga, aholisi zich joylashgan Yaponiya kabi mamlakatda bu kabi kam aholiga ega hududiy birliklarga maqom berilishi uning amalda shahar

turlari va birliklari juda ko‘payib ketishiga olib keladi. Keyinchalik bu holat xalqaro taqqoslashni qiyinlashtiradi.

*Iqtisodiy asos.* Ba’zi mamlakatlarda urbanizatsion hududlarni aniqlashda aholi soni boshqa mezonlar bilan birga qo‘llanadi. Masalan, Hindistonda aholi manzilgohidagi 75 foizdan ortiq erkak aholi noqishloq xo‘jaligi ishlarida band bo‘lishi lozim.

*Ma‘muriy talab.* Dunyodagi ko‘pgina shaharlar va shaharchalar qonuniy yoki ma‘muriy mezonlarga qarab ajratiladi. Milliy hukumat tomonidan urbanistik hududlarni izohlash turli xilma-xillik kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu esa dunyo bo‘yicha taqqoslash, tadqiqot olib borish bo‘yicha olimlar tomonidan o‘z fikrlarini berishda qiyinchilik tug‘diradi. Ma‘muriy tushuntirishda ikkinchi muammo shundaki, urbanistik hudud haqiqiy fizik o‘lchami bilan o‘xshash bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha shaharning o‘z ma‘muriy chegarasidan chiqib ketishi kuzatiladi. Bu markaziy shaharda moliyaviy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Chunki qatnovchilarda soliq va daromadning qayta taqsimlanishi va uning shahardan chiqib ketishi kabi muammolar kelib chiqadi. Shaharning chegaradan chiqib ketishi, uning o‘zgarishi kabi bir qator muammolar tufayli urbanistik tadqiqotchilar tomonidan urbanizatsiyaning haqiqiy manzarasini ko‘rsatadigan funksional urbanistik mintaqalar aniqlangan. Kengaygan urbanistik hududlar konsepsiyasi birinchi marta AQSH yillik to‘plamida 1910-yilda va keyinchalik 1960-yilda Standart Metropolitan Hudud Statistikasida rivojlantirilgan. U ikki va undan ortiq Metropolitan Standart Hududini o‘z ichiga oladi (*M.Pacione, 2009, 61-b.*).

Hozirda Rossiyada 12 ming, AQSH da 2,5 ming, Islandiyada 200 kishi, O‘zbekistonda 7 ming, Turkmanistonda 5 ming kishi bo‘lgan aholi manzilgohi shahar deb yuritiladi. BMT tadqiqotlarida xalqaro miqyosda aholi soni 20 mingdan, milliy miqyosda esa 5 mingdan kam bo‘lmagan aholi manzilgohini shahar deb hisoblash qabul qilingan. Shunday shaharlar ham borki, ular davlat ham hisoblanadi va **shahar-davlatlar** deyiladi. Masalan, Vatikan, Singapur, San-Marino.

O‘zbekistonda qadimda poytaxtlar, yirik ma‘muriy va diniy markazlar, savdo-sotiq markazlari shahar deb yuritilgan va miqdoriy ko‘rsatkichlar asos qilib olinmagan. Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgach, bir necha bor shahar maqomi berish tartib-qoidalari qabul qilindi.

1972-yildan buyon eng kamida 7 ming aholiga ega bo'lgan (ungacha 12 mingdan kam bo'lmisligi lozim edi) hamda ular aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda band bo'lgan aholi manzilgohi **shahar** deb yuritiladi.

Boshqaruv (ma'muriy) nuqtayi nazaridan shahar aholi manzilgohlari respublikaga, viloyatga va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarga ajratiladi.<sup>10</sup>

**Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlarga** aholi soni 500 mingdan ortiq bo'lgan yirik ma'muriy, iqtisodiy, madaniy markazlar kiradi. Odatda bunday shaharlar qatoriga poytaxt shaharlar, millioner shaharlar, muhim iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar kiradi, masalan, O'zbekistonda Toshkent shahri, Qozog'istondagi Almati, Astana shaharlari shular jumlasidandir.

**Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar** – aholi soni 30 mingdan kam bo'lmagan, muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan, iqtisodiy va madaniy markazlardir. Ba'zan, aholisi 30 mingga yetmasada, aholi soni jadal o'sayotgan, alohida sanoat, madaniy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar ham ushbu toifaga kiritiladi. Bunga Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyat markazlari, ulardan tashqari, masalan, Kattaqo'rg'on, Chirchiq, Taxiatosh, Kogon kabi yirik shaharlar kiradi. O'zbekistonda hozir ularning soni 23 ta.

**Tumanga bo'ysunuvchi** shaharlar jumlasiga sanoat korxonalari, uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalari, savdo shahobchalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat obyektlariga ega bo'lgan, aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan, aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan sohalarda band bo'lgan shaharlar kiradi.

Ayrim hollarda yirik shaharlar boshqaruvi tarkibiga hududiy jihatdan ushbu shaharga tegishli bo'lmasa-da, rivojlanishi (boshqaruvi) shahar bilan bog'liq bo'lgan bir yoki bir necha shahar, shaharcha yoki qishloq ham kiritiladi va u **shahar kengashi** deb ataladi. Samarqand shahri o'z atrofidagi Xishrav, Kimyogarlar, Farhod kabi shaharchalar bilan Samarqand shahar kengashiga, Nurobod, Krasnogorsk shaharchalari Angren shahar kengashiga qaraydi.

Shaharchalar ham shahar aholi manzilgohlari qatoriga kiradi. **Shaharcha** – sanoat korxonalari, kommunal xo'jalik, qurilish, temir yo'l

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi.–T., 2002.

stansiyalari hududida joylashgan, aholi soni 2 mingdan kam bo'lgan va ular oila a'zolarining 2/3 qismi noqishloq xo'jalik sohasida band bo'lgan aholi manzilgohlaridir. Ba'zi hollarda, alohida ahamiyatga ega bo'lgan, sanoat korxonasi, davolanish yoki dam olish muassasasi bo'lgan, qulay ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan, aholisi 2 mingga yetmagan aholi manzilgohi ham shaharcha deb yuritilishi mumkin.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda shahar o'z ma'muriy-hududiy chegaralari doirasida **yuridik shahar** deb ataladi. Ushbu doiradagi aholi mazkur shahar aholisi hisoblanadi. Ko'pincha, aholi shahar atrofiga kelib o'rnashadi, ayniqsa, qulay yo'l bo'ylari tez o'zlashtiriladi. Ya'ni, aslida, shahar o'z chegarasidan atrofda ham davom etadi, bunday shahar **geografik shahar** deb ataladi<sup>11</sup>, aholi soni esa statistik ma'lumotlarda "shahar atrofi bilan" deb ko'rsatiladi. Masalan, dunyodagi eng yirik shahar Tokio bo'lib, unda 13 mln., atrofi bilan 35 mln. aholi yashaydi.

Dunyoning bosh, yetakchi shaharlari ro'yxatini olimlar, tashkilotlar turlicha berishadi. Buning asosiy sababi shundaki, bunday ulkan shaharlar aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni olish murakkab. Aholi ro'yxati ham turli vaqtlarda o'tkaziladi, qolaversa, shahar tushunchasining o'zi ham turlicha qabul qilingan, ayrim shaharlar chegarasidagi kichik shaharlar hududi qo'shib ketib, ba'zi shaharlarda ularning aholisi qo'shib hisoblansa (aglomeratsiya hisobida), ayrimlarida qo'shib berilmaydi, shuningdek, shaharga kelgan migrantlar va shahar chetiga ko'chib kelib joylashib olganlar, mehmonlar hisobini olish ham mushkul.

Respublikamizda shahar hududidan foydalanish, qurilish ishlarini olib borish, chegaralarini belgilash O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksida belgilangan tartib-qoidalar orqali amalga oshiriladi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. *Shaharlarni vujudga kelish bosqichlarining asosiy xususiyatlarini ta'riflang.*
2. *Shahar maqomi berish tartibi nima uchun turli mamlakatlarda turlicha, buning sabablarini aniqlang.*
3. *O'zbekiston shaharlarini ma'muriy boshqaruvini boshqa davlatlar bilan taqqoslang.*

---

<sup>11</sup> Мерфи Р. Американский город. Пер. с английского.—М., 1972, 10 с.



## Shahar hosil qiluvchi omillar. Shaharlarning geografik o'ri. Shaharlarning genetik tiplari

1. *Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.*
2. *Shaharlarning shakllanishida geografik o'rinning roli.*
3. *Shaharlarning genetik tipologiyasi.*

**Tayanch iboralar:** *geografik o'rin, o'lik shahar, "eski" va "yangi" shahar, "sharqona urbanizatsiya", resurs shahar, sanoat shahri, shaharlar to'ri, genetik tipologiya.*

1. Shaharlar duch kelgan yerda, o'z-o'zidan vujudga kelavermaydi, ular qulay geografik o'rinda, aholi ehtiyojiga ko'ra, turli omillar ta'sirida shakllanadi. Dastlabki shaharlarning shakllanishida tabiiy sharoit muhim rol o'ynagan, shaharlar asosan issiq mintaqalarda, sug'orma dehqonchilik rivojlangan yerlarda paydo bo'lgan.

Insoniyat hayoti tarixida uch asosiy o'zgarishlar yuz bergan:

1 – m.avv. 7000-yillikda qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan inqilob va Iroqdagi Jarmo, Isroildagi Jericho kabi neolit davri manzilgohlari rivojlanishi bo'lgan.

2 – sanoatdan oldingi inqilob bo'lib, u shaharlarni yuzaga keltirgan.

3 – XVIII–XIX asrlardagi sanoat inqilob bo'lib, bizning hozirgi shaharlarimiz ilk ko'rinishini yaratib bergan. Bu shaharlar hozirgi postindustrial shaharlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit, topografiya, iqlim, ijtimoiy ahvol va tabiiy resurslar ilk shaharlar o'sishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lganligini, biz, Yaqin Sharq shaharlarining Tigr va Evfrat daryolari oralig'ida joylashganligi, daryolar shaharlarni nafaqat suv, balki unumdor tuproq bilan ham ta'minlanganligida ko'rishimiz mumkin (*M.Pacione, 2009, 37-b.*).

Agar xaritaga qarasak, tabiiy sharoiti noqulay bo'lgan o'lkalarda, cho'l, tog' yoki sovuq mintaqalarda ularning nihoyatda siyrak joylashganini ko'ramiz. Qadimda shaharlar savdo-sotiq va hunarmandchilik negizida paydo bo'lgan. Keyinchalik bunga eng ko'p sanoat va transport sababchi bo'lgan. Ko'p hollarda, garchi tabiiy sharoit noqulay

bo'lsa-da, tabiiy resurslarni o'zlashtirish asosida ko'plab shaharlar vujudga kelgan. Qazilma boyliklarni o'zlashtirish asosida shakllangan shaharlarni ilmiy adabiyotlarda «resurs shaharlar» deb ham yuritiladi. Bunday shaharlar, odatda, o'z atrofi, qishloq joylar bilan kam bog'langan bo'ladi. Ularning nomlari ham ko'pincha kon nomini anglatadi, masalan, Gazli, Jezqazg'an, Toshko'mir, Magnitogorsk va boshqa resurs shaharlar odatda kichik bo'ladi, agar shahar hayoti shu resurs bilangina bog'liq bo'lsa, resurs tugagach, shahar inqirozga uchrashi mumkin. Lekin ko'p hollarda bunday shaharlarda boshqa tarmoqlar shakllanib, uning iqtisodiy asosini tashkil etadi va shahar rivojlanishda davom etadi. Masalan, Angren shahri ko'mir konini qazib olish asosida vujudga kelgan "resurs shahar" bo'lgan, keyinchalik kaolinni qayta ishlash, chinni ishlab chiqarish, Angren IESi faoliyati bilan u sanoat shahriga aylandi. 2013-yilda Angren iqtisodiy industrial zonasining tashkil etilishi uning rivojlanishi uchun yana bir muhim omil bo'ldi.

Shaharning vujudga kelishi va rivojlanishining muhim omilidan biri – aholi bo'lib, u shaharning tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholisiz shahar bo'lmaydi, shaharning o'lchami – katta-kichikligi ham aholi soni bilan belgilanadi. Aholining tabiiy va mexanik o'sishi, qishloqlarning shaharga aylanishi shaharning o'sishiga ta'sir etadi va aksincha. MDH davlatlari mustaqillikka erishgach, Rossiyaning shimoliy sovuq o'lkalaridagi shahar va shaharchalardan aholi ko'plab markazga ko'chib ketib, ular "bo'shab" qoldi. Kalkutta, Lagos, Shanxay kabi shahar va aglomeratsiyalar esa, aksincha, atrofdan ko'plab aholini yig'ib olib, yiriklashib ketmoqda.

Shahar aholisi soni tabiiy o'sish, aholi migratsiyasi va ma'muriy-hududiy o'zgarishlar hisobiga o'zgarib boradi.

Jahon miqyosida shaharlarning tez ko'payishi va jadal rivojlanishiga ta'sir etadigan muhim omil – **sanoatdir**. 1780-yillarda ro'y bergan sanoat inqilobi natijasida sanoat shaharlari (industrial shaharlar) vujudga kela boshladi. Hozirgi kunda yer yuzidagi barcha shaharlarda sanoat korxonalari mavjud. Ayrim shaharlar sof sanoatga ixtisoslashgan bo'ladi: Chirchiq, Bekobod, Olmaliq va h.k. Ayniqsa, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari – ixtisoslashuv, ko-

operatsiya, mujassamlashuv va boshqalar asosida shaharlar va ularning tizimlari shakllanadi. Mamlakatlardagi sanoat ishlab chiqarishini asosiy qismini shaharlar beradi.

Shaharlarning ajralmas tarkibiy qismidan biri – **transport** hisoblanadi. N.N.Baranskiy shaharlar yo‘llar bilan birga hududning asosi – “qovurg‘asini” tashkil etadi, deb hisoblaydi.<sup>12</sup> Shaharlarning ko‘pchiligi yo‘llar bo‘ylarida, ularning chorrahalarida vujudga keladi. Transport rivojlanishi bilan shahar hududi ham, yer yuzida ularning tarqalish hududi ham kengayib boradi, barcha shaharlar bir-birlari bilan transport yo‘llari orqali bog‘lanib, **shaharlar to‘rini** hosil qiladi.

XIX asrda shaharlar rivojlanishiga FTI (texnologik inqilob) ta‘sir eta boshladi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlar sifatida ilm-fan, texnika chiqa boshladi. Bu esa ko‘plab aholini o‘ziga jalb etib, shaharlar juda yiriklashib ketdi.

Shaharlarning geografik o‘rni deganda, biz shaharlarning atrofidagi geografik obyektlarga nisbatan joylashgani va bu obyektlarning shahar rivojlanishiga ta‘sirini tushunamiz.

Shaharning geografik o‘rni vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi va dunyoning eng yirik shaharlari ham o‘z darajasini o‘zgartirishi mumkin. Resurslarning kamayishi, iqlimiy o‘zgarishlar, qurg‘oqchilik oqibatida qishloq xo‘jalik mahsulotlari taqchilligi va siyosiy o‘zgarishlarning barchasi shaharning holatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ikkilamchi omillar sifatida esa, shahar va shaharchalarning o‘rni bo‘lib, hududiy birlik egalab turgan joyning tabiiy xususiyatlari uning boshlang‘ich va keyingi rivojini ko‘rsatib beradi. Ammo, rivojlanish mobaynida xuddi shu o‘rin shahar o‘sishi va kengayishi uchun cheklovchi omil bo‘lib qolishi mumkin. Atmosfera ifloslanishi, suv ta‘minoti muammolari, transport yo‘nalishidagi o‘zgarishlar ijobiy joylashuvni salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin (*M.Pacione, 2009, 50-b.*).

Shahardan tashqarida, uning yon atrofida o‘rnashgan geografik obyektlar tog‘, ko‘l, daryo, yo‘l, kon, boshqa aholi manzilgohi, qishloq xo‘jaligi dalalari, davlat chegaralari, elektr stansiyalari, sug‘orish inshootlari, rekreatsiya obyektlari va hokazolar bo‘lishi

---

<sup>12</sup> Баранский Н. Об экономико-географическом изучении города.–М., 1956, 21 с.

mumkin. Ularning shaharga ta'siri, tarixiy va ayni paytda iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi kerak. Iqtisodiy geografik o'rni (IGO) ning tarixiyligi shundaki, bu o'rinning qulay yoki noqulayligi davr o'tishi bilan o'zgaruvchan, bir vaqt qulay bo'lgan o'rin keyinchalik noqulay va aksincha bo'lishi mumkin. Biroq, umumiy qonuniyat shundan iboratki, shaharlar o'z iqtisodiy geografik o'rinlarini yaxshilashga intiladilar.

Shaharning iqtisodiy geografik o'rni ham murakkab, uning ichida transport, gidrografik, demogeografik, agrogeografik kabi yo'nalishlar mavjud. Shubhasiz, bularning orasida eng muhimi transport geografik o'rindir.

N.Baranskiy IGO'ning uch masshtabga egaligini ta'kidlaydi: makro, mezo va mikrogeografik o'rin.<sup>13</sup> Bu bosqichlarning hududiy ko'lami va qamrovi bir xil emas. Masalan, mikrogeografik o'rin shaharning bevosita o'rnashgan joyi, uning eng yaqin atrofi bo'lsa, mezogeografik o'rni esa shaharning nisbatan kengroq va kattaroq hududdagi mavqeyidir; makrogeografik o'rin o'rganilayotgan shaharning yanada ulkanroq hududdagi holatini anglatadi. Bu yerda shuni unutmaslik lozimki, muayyan bir shaharning mezo yoki makrogeografik o'rni boshqa shahar uchun (hatto ular qo'shni joylashgan bo'lsa ham) hudud ko'lami jihatidan to'g'ri kelmaydi. Bu shaharning katta-kichikligi, bajaradigan funksiyasiga bog'liq. Masalan, Toshkentning mezogeografik o'rni (u Markaziy Osiyo mintaqasi bilan belgilanishi mumkin) Chirchiq yoki Bekobodning, Namangan yoki Qarshining mezogeografik o'rniga muvofiq kelmaydi, aksincha, bu shaharlar uchun Markaziy Osiyo makrogeografik mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Toshkent viloyatidagi Bo'ka shahrining makrogeografik o'rni esa juda nari borsa, Toshkent viloyati va unga tutash bo'lgan kichik hududlar doirasida belgilanadi. Axir, Bo'kaning rayon markazi, kichik shahar ekanligini Qirg'iziston yoki Tojikiston, Orolbo'yi yoki Farg'onada hamma bilmaydi-da.

Shaharning vujudga kelishi, aynan shu joyda o'rnashganligiga eng avvalo uning mikrogeografik holati sababchi bo'ladi. Bu tog' yonbag'ri, daryoning quyilish joyi yoki uning qirg'og'i, tepalik va boshqa joyida bo'lishi mumkin. Vujudga kelgan shaharning ke-

<sup>13</sup> Лаппо Г.М. География городов.–М.: ВЛАДОС, 1997, 69 с.

yinchalik gurkirab rivojlanishida esa uning mezo va makrogeografik oʻrni katta rol oʻynaydi. Demak, agar mikrogeografik oʻrin noqulay boʻlsa, shahar xuddi shu joyda vujudga kelmagan boʻlardi (bunday qadimiy shaharlar xarobalarini Panjakent, Axsi, Nasaf, Pop, Kosonsoy, Qiyot va boshqa joylarda koʻrish mumkin). Baʼzi shaharlar, masalan, Chust, Denov, Gʻijduvon, Nurota, Piskent, Xiva kabilar juda katta tarixga ega boʻlishiga qaramay, ular hamon kichik shahar darajasida qolmoqdalar. Ehtimol, buning sababi, ularning mezogeografik oʻrnini noqulayligi boʻlsa ajab emas. Ayni vaqtda, uncha katta tarixga ega boʻlmagan Navoiy yoki Chirchiq esa allaqachon «yuz minglik» chegarani bosib oʻtgan yirik shaharlardir. Albatta, bunga ularning mezo-geografik oʻrnini qulayligi katta taʼsir qilgan.

Shaharlar iqtisodiy geografik oʻrnini oʻrganishda ayniqsa, Toshkent, Xoʻjand (Aleksandr Es-Xate), Bekobod, Stanbul (Konstantinopol, Vizantiya), Kiyev, Volgograd, Samara, Moskva, Sankt-Peterburg, Buxoro va Samarqand, Tbilisi, Novosibirsk misollariga murojaat qilish samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, talabalarining oʻzlari ham istagan shaharlarining iqtisodiy geografik oʻrnini ochib berishlari kerak. Biroq, eng muhimi, iqtisodiy geografik oʻrin – bu shaharlarning iqtisodiy geografik taʼsiri va tavsifi emas, aksincha, u oʻrganishning, tahlil qilishning maxsus usuli, iqtisodiy geografik bilimning «kaliti» ekanligini unutmaslik lozim. Ana shundagina, biz nima uchun mazkur shahar xuddi shu joyda vujudga kelgan va rivojlangan, nima uchun u shunday vazifalarni bajaradi va bu yerda sanoatning shu tarmoqlari rivojlangan kabi jumboq savollarga javob topa olamiz.

Xuddi shu maʼnoda, Buxoroi sharif va Sayqali roʻyi zamin Samarqandning tarixiy «musobaqasini», Movarounnahrning dorulsaltanati boʻlishga talashganligini, Soxibqiron Amir Temurning Samarqandni oʻzining buyuk imperiyasining poytaxti, Somoniylarning esa Buxoroni «Qubbai islom» qilinishini oʻrganish qiziqarli boʻlsa kerak.

Tarixdan maʼlumki, geografik oʻrni qulay boʻlgan shahar, garchi u vayron boʻlsa-da, bir necha bor qayta tiklangan yoki oʻrnida yangi shahar barpo boʻlgan (Toshkent, Afrosiyob). Ayrim shaharlar esa xarobaga aylanib, ulardan faqat tepaliklar qolgan. Masalan: Troya, Harappa, Oʻtror va b.

Ilmiy adabiyotlarda yana “o‘lik shaharlar” degan iborani uchramiz, ular mavjud, lekin turli sabablarga ko‘ra aholi yashamaydi: Chernobl AESi halokati tufayli Pripyat shahri, Angara daryosi irmog‘i Kova rayonidagi (Chertova kladbishe) bir necha shaharcha kasallik tarqalishi oqibatida, nenetslar o‘lkasidagi Xalmer – Yu (o‘liklar vodiysi) koks ko‘mirini qazib olish asosida vujudga kelib, kon istiqbolsiz bo‘lgani bois tashlab ketilgan. Yaponiya g‘arbiy qirg‘oqlari yaqinidagi orolda Gankejima shahri avval dengizdan ko‘mir, keyin neft qazib olish asosida paydo bo‘lib, 1974-yilda kompaniya ish faoliyatini bekor qilgach, aholi shaharni tashlab, ko‘chib ketgan. AQSHda 250 ga yaqin “o‘lik shaharlar” bo‘lib, ularni ba‘zan kinematografistlar-gina filmlarni suratga olish uchun yo‘qlab borishadi.

3. Shaharlar ma‘lum sabab, omil asosida vujudga keladi. Ularning paydo bo‘lishi, qulay geografik o‘rin bilan bir qatorda, turli xil qazilma boyliklarni qazib olish, ilmu-fan, rekreatsiya, savdo-sotiq, sanoat tarmoqlari, transport kabilarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularning ahamiyati, ta‘sir doirasi mazkur aholi manzilgohidan chetga chiqadi.

Shaharlarning aksariyati bizning sharoitimizda, ya‘ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda, qishloqlar asosida tashkil etiladi; ular muayyan talab darajasiga yetgandan so‘ng qonuniy ravishda bu rasmiy maqomni olishadi. Shaharlarning bunday genetik xususiyatlari urbanizatsiya jarayonining, ayniqsa, qishloq urbanizatsiyasining «sharqona» rivojlanishidan darak beradi.

Shaharlar kelib chiqishiga qarab, «yangi» va «eski» shahar bo‘lishi mumkin. Biroq bu tushunchalar nisbiydir. Sababi, biz sobiq sho‘rolar davrida vujudga kelgan shaharlarning barchasini «yangi shaharlar» guruhiga kiritar edik. Hozir esa yangi shaharlarni mustaqillik davri bilan belgilash to‘g‘riroqdir.

Biroq aholi manzilgohining yuridik ravishda shahar maqomiga ega bo‘lishi, uning haqiqiy yangiligini ifodalamaydi. Chunki bunday aholi yashaydigan joylar qadim-qadimdan mavjud. Masalan, Chust shahri so‘nggi marta shahar unvonini rasmiy ravishda 70-yillarda oldi, vaholanki uning real tarixi bir necha yuz yilliklarni o‘z ichiga oladi. Xuddi shunday, G‘ijduvon, Piskent, Nurota, Rishton va hokazolar ko‘p yillik tarixga ega.

Aslini olganda, yangi shahar deyarli «bo'sh» joyda, yaqinda barpo bo'lgan, arxitektura qurilishi, obodonchiligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, eski qishloqning yangi yirik qurilish tufayli o'z qiyofasini tubdan o'zgartirishi, aholi sonini bir necha marta ko'paytirishi ham uning yangi shahar deb atalishiga asos bo'la oladi.

Shaharlarning kelib chiqishi, ularning genetik xususiyatlarini o'rganish tarixiy yondashuvni talab qiladi. Ana shunday tarixiy tahlil yordamida ularning o'tmishi va hozirgi holati baholanadi. Bu esa, o'z navbatida, shaharlarni bashorat qilishga (prognozlashga) ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaharlar turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar va shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Albatta, shaharning shakllanishida yagona bir omil ta'sir etib qolmaydi, biroq u yetakchi bo'lishi mumkin. Shuni hisobga olib, quyidagi genetik tipologiyani tuzish mumkin:

1. Konlarning o'zlashtirilishi asosida – Gazli, Uchquduq, Muborak.
2. Transport tugunlari yoki temir yo'l stansiyalarida – Yangiyo'l, Turkmanboshi (Krasnovodsk), Xovos.
3. Qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi asosida – Astana (Aqmola, Selinograd), Yangiyer, Baxt.
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash negizida – Piskent, Oqqo'rg'on, Bulung'ur.
5. Gidroenergetik resurslarni o'zlashtirish asosida – Norak, Bratsk, Chirchiq.
6. Rekreatsiya va turizm asosida – Chorbog', Suxumi, Kislovodsk va b.
7. Ilm-fan asosida – Zelenograd, Ulug'bek, Obninsk.

### *Savol va topshiriqlar*

1. *Ilk shaharlar qayerlarda vujudga kelgan?*
2. *Qadimgi shaharlarning vujudga kelishida qanday omillar asosiy o'rin tutgan?*
3. *Shaharlarning shakllanishida geografik o'rining rolini tushuntiring.*
4. *Qadimgi shaharlarga misollar keltiring.*
5. *O'zbekiston shaharlarining shakllanishida qanday omillar ustun turadi?*

## Shaharlar tasnifi

1. *Shaharlarni tiplarga ajratish.*
2. *Shaharlar tasnifi.*
3. *Sipfa-Styuart qoidasi.*

*Tayanch iboralar: shaharlar tasnifi, millioner shahar, tuman markazi, shaharlar iyerarxiyasi, shaharlar gipertrofiyasi, "birinchi" shahar.*

1. Yer yuzida minglab shaharlar mavjud va hech biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Ularning barchasini bir vaqtda o'rganish imkoniyati yo'q. Shu vajdan shaharlarni turli ko'rsatkichlariga ko'ra turlarga (tip) ajratish yaxshi natija beradi. Shaharlar tipologiyasi tasniflashga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, uni ham o'z ichiga oladi. G.Lappo tasniflashni tipologiyaning boshlanishi deb hisoblaydi<sup>14</sup>. Agar tasniflash biror miqdoriy ko'rsatkichga asoslansa, (E.Alayev bo'yicha), tipologiya bir qancha sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Tipologiya shaharlar haqidagi bilimlarni ham umumlashtiradi, ham chuqurlashtiradi. Umumlashtirishi shundaki, o'xshash belgilari asosida bir guruhga kiritiladi, chuqurlashtirilishida esa har bir guruhdagi shaharlarning xususiy, farqli tomonlarini aniqlash oson bo'ladi. Shaharlar qanchalik yirik bo'lsa va o'ziga xos qirralari qanchalik aniq ifodalansa, uni biror turga kiritish shuncha qiyin bo'ladi. Masalan, Toshkent yoki Samarqand shahri boshqa birorta ham shahar bilan umumiy xususiyatga ega emas. Shuning uchun, yirik shaharlar monografik tarzda, kichik shaharlar esa tipologik holda o'rganilgani ma'qul.

Geourbanistikada bir qancha shaharlar tipologiyasi ishlab chiqilgan. Shaharlarni geografik o'rniga ko'ra turlarga ajratish, ularning umumiy iqtisodiy belgilarini aniqlash imkonini beradi. Bu jihatdan ular quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- transport chorrahalarida joylashgan shaharlar;
- yirik tog'-kon rayonlarida joylashgan shaharlar;
- daryobo'yi shaharlari;
- intensiv sug'orma dehqonchilik rayonlarida joylashgan shaharlar;

<sup>14</sup> Липпо Г.М. География городов. –М.: ВЛАДОС, 1997, 39 с.



- dengiz bo‘yi shaharlari;
- qayta ishlovchi sanoat rayonlarida joylashgan shaharlar va b.;

Shaharlar har xil omillar ta‘sirida vujudga kelib, o‘ziga xos vazifalarni bajarishga ixtisoslashadi. Dastlabki shaharlarning uzoq o‘tmishda paydo bo‘lishi ijtimoiy mehnat taqsimoti ta‘sirida bo‘lsa, ularning funksional tiplari hududiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko‘ra turliligi ularning ayni paytda katta-kichikligini ham belgilab beradiki, bu shaharlar geografiasidagi muhim qonuniyatlardan biridir. Demak, shaharlarning katta – kichikligiga qarab ularning funksiyasi tashkil topmaydi; aksincha, shaharlarning funksiyasi, iqtisodiy yo‘nalishi aksariyat hol-larda ularning yirikligini ifodalaydi.

Shaharlar o‘z ko‘lamiga qarab, eng avvalo 3 toifaga bo‘linadi (umuman, bunday «uch o‘lchovlik» barcha mavjudotlarga ham xos): katta, o‘rta va kichik. Biroq, bu tushunchalar tarixiy-geografik nuqtayi nazardan nisbiydir. Masalan, bir vaqtlar yirik hisoblangan shahar hozirgi davrda bunday bo‘lmasligi aniq. Ayni paytda shaharlarning katta-kichikligini belgilovchi miqdoriy ko‘rsatkichlar ham hamma vaqt va barcha mamlakatlarda bir xil emas. Tabiiyki, uzoq qishloq aholisi uchun tuman markazi ham ancha yirik shahar hisoblanadi. Ammo mamlakat va uning poytaxti darajasidan qaraganda, hatto ba‘zi viloyat markazlari ham ancha kichik ko‘rinadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, geografik taqqoslash va ilmiy tadqiqotlarni bajarishda barchaga xos bo‘lgan umumiy mezon kerak, ya’ni shaharlarning yiriklik kategoriyasi, subyektiv va mahalliy qarashlaridan qat’i nazar, hammaga bir bo‘lishi shart.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda yirik yoki katta shaharlar aholisi 100 ming kishidan ortiq, o‘rta shaharlarda 50–100 ming va kichik shaharlarning har birida kamida 50 ming kishigacha aholi bo‘lishi kerak. Bunday tasnif oddiy va barchaga tegishlidir. Maxsus ilmiy tadqiqotlarda esa shaharlar tasnifi ancha keng turlangan bo‘ladi:

- 10 minggacha – mayda shahar;
- 10–20 ming – kichik shahar;
- 20–50 ming – «yarim o‘rta» shahar;
- 50–100 ming – o‘rta shahar;

100–250 ming – katta shahar;  
250–500 ming – yirik shahar;  
500 ming – 1mln. – eng yirik shahar;  
1mln. va undan ortiq – millioner shahar.

Albatta, shaharlarning bunday miqdoriy ko'rsatkichlari tasodifan bo'lmay, u ma'lum qonuniyatlarga ham asoslanadi. Chunonchi, I sinf shaharlari ko'pincha temir yo'l stansiyalari yoki kichik resurs shaharchalaridan tashkil topsa, II sinf asosan resurs shaharlar, III sinf esa deyarli batamom tumanlarning ma'muriy markazlaridan iborat. Bu toifadagi shaharlar qisman IV sinfda ham bor. Ammo V sinfdan to'la-to'kis viloyat markazlari joy oladi. Shunday qilib, shaharlar to'ri xuddi armiya tizimidagidek, turli bosqichdagi «qo'mondonlarga» o'xshaydi. Ularning bunday pog'onasimon joylashishi shaharlar **ierarxiyasini** vujudga keltiradi. Ierarxiya shakli qancha to'g'ri va to'la bo'lsa, mamlakat yoki boshqa bir hudud ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shunga muvofiq mukammal shakllangan bo'ladi.

“Yuz minglik“ chegaradan oshgan shaharlarga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ularda sof shaharlarga xos bo'lgan xususiyat va belgilar aniq ifodalangan bo'ladi. Ishlab chiqarish, transport, xizmat ko'rsatish muassasalari yuqori darajada taraqqiy etgan, shahar infratuzilmasi, arxitekturasi, aholi turmush tarzi, umuman, har tomonlama “shahar” qiyo-fasini oladi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda global miqyosda aholi sonidan qat'i nazar, shaharlar muayyan sohaga chuqur ixtisoslashib bormoqda va “dunyoviy shaharlar”ning roli ortib bormoqda.

Globalizatsiya jarayoni shaharlar o'rtasidagi farqlarni kuchaytirib, ularning ichidagi sektorlar (sohalar) differentsiatsiyasiga olib keladi. Bu urbanizatsiya jarayonidagi notenglikning yangi ko'rinishi bo'lib, shaharlar o'lchami iyerarxiyasiga deyarli mos kelmaydi (*M.Pacione, 2009, 128-b.*).

Maxsus ilmiy adabiyotlarda Zipfa-Styuart qoidasi mavjud bo'lib, u hudud shaharlarining bir tartibda to'g'ri joylashishini nazarda tutadi, Masalan, ikkinchi shahar birinchi shahar aholisining yarmi, uchinchi shahar uning 1/3, to'rtinchisi – 1/4 aholisiga ega bo'lishi kerak. Biroq, bu g'oya hayotda to'laligacha o'z isbotini juda kam holda topgani uchun, gipoteza darajasida talqin qilinishi mumkin.

Shunga qaramay, yuqoridagi qoida ma'lum ahamiyat kasb etadi. Har qalay mamlakat o'z shaharlar to'ri tarkibi va tizimini ana shunday zanjir-

simon, pog‘onasimon tartibda shakllantirishga harakat qilishi va o‘zining mintaqaviy siyosatida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Sababi – mamlakat aholisining ko‘pchilik qismini uning bir yoki ikki yirik shaharida to‘planishi ham (bu shaharlar gipertrofiyasi deyiladi) yoki aksincha, aholining juda ko‘p mayda shaharlarda tarqalishi ham yaxshi emas. Tabiiyki, ikkinchi holda mamlakat hududiy iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan bo‘ladi. Shaharlar ierarxiyasini piramidasimon ham tasavvur qilish mumkin. U yoki bu hudud uchun tuzilgan piramida ayni paytda turli yiriklikdagi shaharlar rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni aks ettiradi.

*1-jadval*

**Respublika katta va yirik shaharlari aholi sonining o‘sishi  
(1959–2016 yy.)**

Shaharlar	aholi soni, ming kishi						
	1959 yil	1979 yil	1989 yil	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2016 yil
Angren	55,8	105,8	131,0	129,0	129,3	133,4	149,8
Andijon	130,9	229,7	290,5	334,3	352,6	363,8	416,3
Buxoro	69,8	184,8	222,2	239,1	238,6	241,8	250,6
Jizzax	15,7	68,4	104,2	128,9	136,5	140,9	167,4
Marg‘ilon	95,2	110,2	124,1	156,0	165,1	172,3	195,8
Navoiy	5,4	83,1	105,5	140,9	122,3	124,6	133,6
Namangan	123,5	226,6	304,2	386,2	408,5	425,5	493,3
Nukus	31,9	106,9	168,5	206,7	258,1	263,8	301,3
Olmaliq	40,5	101,0	113,9	114,7	116,7	121,1	124,3
Samarqand	196,5	470,2	364,0	361,1	361,2	367,1	491,6
Termiz	22,1	56,0	82,0	113,5	120,8	127,4	140,1
Toshkent	911,9	1754,5	2102,0	2135,5	2128,9	2173,2	2393,2
Urganch	76,2	98,1	126,4	139,2	136,3	135,1	138,6
Farg‘ona	80,2	173,0	198,3	185,2	184,5	188,8	271,0
Chirchiq	65,6	131,2	156,4	143,3	140,7	142,2	151,8
Qarshi	19,7	107,4	154,7	201,3	212,2	223,1	254,2
Qo‘qon	105,1	151,1	179,5	197,4	203,5	208,7	239,9
Shahrisabz	16,4	32,7	52,4	87,1	91,1	92,7	103,5

*Jadval Respublika statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

Shaharlar klassifikatsiyasida «birinchi» va «ikkinchi» shahar tushunchalari mavjud, masalan, O‘zbekistonda birinchi shahri uning poytaxti Toshkent bo‘lsa, uning ikkinchi darajasidagi shahri Samarqanddir (hozirgi kunda bu mavqega Namangan da’vogarlik qilmoqda).

Umuman, respublikamizda 18 ta “yuz minglik” marradan oshgan yirik shaharlar bor, unga Bekobod da’vogarlik qilmoqda (*1-jadval*).

O‘rta shaharlarga Asaka, Bekobod, Beruniy, Guliston, Denov, Zarafshon, Kattaqo‘rg‘on, Kogon, Koson, Kosonsoy, Parkent, To‘rtko‘l, Urgut, Xiva, Xo‘jayli, Chimboy, Chortoq, Chust, Shahrixon, Yangiyo‘l (jami 20 ta) kiradi. Bularning orasida faqat Guliston viloyat markazi, qolgan shahar va shaharchalar kichik, ya’ni I – III sinflarga mansubdir.

Shu o‘rinda aytish lozimki, 2009-yil respublikamizdagi aholi soni ko‘p va kelgusida shahar maqomini olish imkoniyatlari katta bo‘lgan 965 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Avval shaharchalar 114 ta bo‘lgan bo‘lsa, endilikda esa 1079 tani tashkil etdi. Bu esa, o‘z navbatida, ularni tasniflashda qiyinchilik tug‘diradi va real holatni ko‘rsatmaydi.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Shaharlarni tasniflashning bosh maqsadi nimaga qaratilgan?*
- 2. Oddiy va murakkab tasniflashdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?*
- 3. O‘zbekiston shaharlarini tasniflab, shaharlar piramidasini tuzing.*

## Shaharlar tipologiyasi. Shaharlarning funksional tiplari

1. *Shaharlarning funksiyalari va uni aniqlash mezonlari.*
2. *O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari.*
3. *Poytaxt shaharlar.*
4. *Global shaharlar.*

*Tayanch iboralar: shaharlar funksiyasi, funksional tipologiya, bir funksiyali va ko'p funksiyali shahar, ma'muriy markaz, poytaxt shahar, global shahar.*

1. Shaharlarning geografik mehnat taqsimotidagi o'rni, bajaradigan funksiyalarini aniqlash doimo muhim hisoblangan. Bunday turdagi dastlabki tipologiyalar 1891 y. – F Ratsel, 1910 y. – Semyonov-Tyanshanskiy, keyinchalik C.Garris, V.Konstantinov, B.Xorev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ilk tipologiyalar ko'proq sodda bo'lgan va shaharlar mexanik tarzda aholi soniga ko'ra ajratib yuborilgan, masalan, Yaponiyada 600 ming kishilik shaharlar milliy ahamiyatga ega, 250–600 minggacha bo'lsa tarixiy shaharlar, 25–250 ming – qishloq tipidagi shaharlar deb ajratilgan. 1960-yillarda matematik modellashtirish, ayniqsa, kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan ko'plab belgilarni (60 ga yaqin) qamrab oluvchi guruhlashtirish keng rivojlandi.

N.N.Baranskiy genetik tipologiyaning ahamiyatini yuqori baholaydi va "... ammo u shaharlarning kelib chiqish davrini bildiradi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini ko'rsatmaydi" – deydi. Hanuzgacha shaharlarni hozirgi holatini, har tomonlama rivojlanishini ko'rsatuvchi tipologiya yaratilmagan. Biroq shunga yaqinlardan biri – bu funksional tipologiyadir. Unga ko'ra, shaharlar monofunksional (bir funksiyali) va polifunksional (ko'p funksiyali) shaharlarga bo'linadi. Funksiyalar ortib borishi bilan shaharlar yiriklashib, ko'p funksiyaliga aylanib boradi. Katta va yirik shaharlarning barchasi 5–6 va undan ko'p funksiyalarni bajaradi.

Shaharlarni funksiyalariga ko'ra turlarga ajratishda shaharda faoliyat ko'rsatuvchi tarmoqlar asosiy o'rin tutadi. Ular ikki turli bo'ladi: shahar hosil qiluvchi tarmoqlar va shaharga xizmat qiluvchi tarmoqlar. Ularning orasidagi chegara shartli hisoblanadi, asosan, sanoat, transport, rekreat-

siya, ilm-fan yoki boshqa sohalarga ixtisoslashgan, ya'ni o'zi ishlab chiqargan mahsulot yoki ko'rsatayotgan xizmatlari shahar chegarasidan chiqib, boshqa hududlarga yoyilsa va shaharning kengayib rivojlanishiga asos (shaharning iqtisodiy asosi) bo'lsa, bunday tarmoqlar shahar hosil qiluvchi, agar faqat shahar uchun yoki shahar aholisini ta'minlash uchungina xizmat qilsa, u holda shaharga xizmat qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Ba'zan shaharga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivojlanib borib, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarga aylanadi.

Funksional tipologiya shaharlarning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, "yuzini" ko'rsatib turadi.

Shaharlarning qaysi sohaga ixtisoslashuvi, ularning bajaradigan vazifasini aniqlash funksional tipologiya doirasida amalga oshiriladi. Bunda mezon qilib shahar aholisining bandlik tarkibi olinadi, ya'ni qaysi sohada mehnat resurslari ko'proq (mamlakat shahar joylari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori) bo'lsa, o'sha yo'nalish mazkur shaharning funksional tipini ifodalab beradi.

Odatda, shaharlar quyidagi funksional turlarga bo'linadi:

1. Ko'p funksiyali siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.
2. Ko'p funksiyali shaharlar – viloyat markazlari.
3. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.
4. Kam tarmoqli (1–2) sanoat shaharlari.
5. Transport markazlari.
6. Agroindustrial shaharlar.
7. Tuman markazlari.
8. Rekreatsiya shaharlari.
9. Ilm-fan markazlari.

Yuqoridagi funksional guruhlar shaharlarning katta-kichikligiga qarab ham turlanadi. Bu holda shaharlarning funksional klassifikatsiyasi vujudga keladi.

2. O'zbekistonda birinchi va ikkinchi guruh shaharlarga Toshkent, Nukus hamda barcha viloyat markazlari kiradi. Ular ayni paytda ko'p tarmoqli sanoat markazlari, transport tuguni, ilm-fan markazlari ham hisoblanadi. Uchinchi tipga asosan Chirchiq, Olmaliq, Angren, Qo'qon kabi shaharlar mansub, to'rtinchi guruhga Marg'ilon, Ohangaron, Muborak, Gazli, Zarafshon, Taxiatosh, Asaka, Uchqo'rg'on, Quvasoyga o'xshashlarni kiritish mumkin.

Kogon, Xovos, Qo'ng'iroq – transport shaharlari, Chortoq – rekreatsiya, Ulug'bek – fan markazlaridir.

Respublikamizda juda ko'p shaharlar agroindustrial yo'nalishga ega, ya'ni ularda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Ulardan ham ko'proq shaharlar qishloq, tumanlar markazi vazifasini bajaradi. Biroq, bunday shaharlar – «kichik poytaxtlar» ayni paytda agroindustrial xarakterga ham ega bo'lishlari mumkin.

**3. Poytaxt shaharlar.** Poytaxt shaharlar mamlakat shaharlar to'ri va tizimida karvonboshilik qilishadi. Ammo ular aholisi bo'yicha eng katta, sanoat o'ta rivojlangan bo'lishi aslo shart emas. Chunki bunday shaharlarning asosiy vazifasi – siyosiy markaz, dorulsaltanat, ya'ni poytaxt funksiyasini bajarishdan, binobarin, mamlakatni boshqarish, uni siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Juda ko'p mamlakatlarda poytaxt shaharlar muammosi keskin turadi. Bunday shaharlar mumkin qadar mamlakat hududining o'rtasida (markazida), atrofda qo'shni davlatlarga nisbatan ham qulay geosiyosiy o'rinda, tapuxan asosiy tub millat tarqalgan hududda joylashgan bo'lmog'i lozim. Sababi – ular eng avvalo milliy poytaxtlardir. Shu bilan birga, bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo'lishi shart.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlarida poytaxt shaharlari o'zgarib turgan. Masalan, Braziliyada poytaxt Rio-de Janeyrodan Braziliyaga, Qozog'istonda Almatadan Astanaga, AQSHda Filadelfiyadan Vashingtonga, Pokistonda Karachidan Islomobodga ko'chirilgan. Bir vaqtlar Ukrainaning poytaxti Xarkov, Rossiyaniki Peterburg, Turkiyaniki Stambul, Qoraqalpog'istonniki To'rtko'l bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining dastlabki poytaxti Samarqand bo'lib, 1930-yilda bu vazifani bajarish Toshkentga berilgan. Poytaxt shaharlarning nufuzi ham, mas'uliyati ham yuqori. Binobarin, har qanday mamlakat o'zining bosh shahri, «yo'lboshisiga» katta e'tibor bermog'i tabiiydir, chunki ular o'sha joyda yashovchilarning milliy iftixori hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyoti yo'lida eng avvalo, poytaxtlar alohida ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutgan holda, ilk bora Yaponiya tajribasida poytaxtni rivojlantirish ishlari ko'zda tutilgan – “Poytaxt taraqqiyoti” nomli shaharlarni rejalashtirish loyihasi ishlab chiqilgan (*M.Pacione, 2009, 115-b.*).

Ayrim mamlakatlarda rasmiy poytaxtlar yo‘q va muayyan shaharlar uning vazifasini bajaradi (Shveysariyaning qadimiy poytaxti Bern, Nauniki Yaren). Ba’zi davlatlarda poytaxt funksiyalari bir necha shaharlar, masalan, Germaniyada Berlin, Bonn, Karlsrue, Rossiyada Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida o‘zaro taqsimlangan.<sup>15</sup> Aksariyat mamlakatlarda poytaxt vazifasini yirik shaharlar bajarsa, ba’zi davlatlar sof poytaxtlik funksiyasini bajarish nuqtayi nazaridan aholi soni kam bo‘lgan kichikroq, tinch va osuda shaharlarni ma’qul deb hisoblaydilar (Vashington, Braziliya va b.).

**4. Global shaharlar.** Hozirgi vaqtga kelib, jahon iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ma’lum ma’noda “global shaharlar” rivojlanishida o‘z ifodasini topmoqda. So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda tez-tez qo‘llanilayotgan ushbu atamaning fanga kirib kelganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Hozirda bu yangi atamaning mazmun-mohiyati unga mansub bo‘lgan obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlari, mezonlari, o‘zgarishlarini tadqiq etish asosida asta-sekin ochib berilmoqda.

Bu atama fanga ilk marta “dunyoviy shaharlar” nomi bilan 1915-yilda britaniyalik urbanist P.Geddes tomonidan kiritilgan va u biznes ishlari eng ko‘p yuritiladigan, xalqaro biznes uchrashuvlari o‘tkaziladigan shaharlarni shu toifaga kiritgan. Ammo global shaharlarga 1970-yillardan xalqaro munosabatlar jadal rivojlangach, alohida e’tibor berila boshlandi. 1991-yilda chop etilgan Saskiya Sassenning “The global city” asarida ta’rif berilishi-cha, **global shaharlar** (ingliz tilida “dunyo shahri”, “alfa shahar”) – bu jahon iqtisodiy tizimining muhim elementi hisoblanuvchi, xalqaro miqyosda o‘ziga xos markaziy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajarib berish bo‘yicha tan olingan shaharlardir. Masalan, London, Jeneva xalqaro moliyaviy, Nyu-York – iqtisodiy, Kuala-Lumpur – turizm markazi hisoblanadi.

Global shaharlarning vujudga kelishining asosiy omili – xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon hamjamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yanada baynalmilallashuvi, transport va aloqaning rivojlanishi bilan davlatlararo o‘zaro munosabatlarda davlat chegaralarining to‘siq sifatidagi rolini kamayib borishi yotadi. Global shaharlar boshqa shaharlardan farqli ravishda, aholi sonidan qat’i nazar, xalqaro miqyosda iqtisodiy, moliyaviy, biznes va xizmat ko‘rsatish faoliyatlarini qulay, tez, sifatli tarzda amalga oshirishi, shu bilan birga, aynan shu sohalarida jahon miqyosida

<sup>15</sup> Лучников А.С. Экономическая и социальная география России и мира.–Пермь, 2015, 46 с.



markaz sifatida tan olingan bo'lishi lozim. Shuningdek, xalqaro siyosiy, huquqiy tashkilotlarning shtab-kvartiralarini, ilmiy ishlab chiqarish salohiyati, axborot-texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi, dunyoning eng mashhur o'quv yurtlari, kutubxonalarini, ilmiy tekshirish institutlari joylashganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Tokio dunyoda o'z ilmiy, tabiiy texnika fanlarining eksperimental obyektlari, Nyu-York esa o'ziga xos tor mutaxassislik tekshirish institutlari, ayniqsa, vulqonshunoslik, alternativ energiya manbalari turini ko'paytirish, ekologik toza yoqilg'ini imkon boricha arzon ishlab chiqarish bo'yicha noyob markazlar ko'p joylashganligi bilan ajralib turadi. Global shaharlarda sivilizatsiyaning eng yaxshi yutuqlari, jahon ahliga taniqli teatr, muzey va madaniyat uylari joylashganligi sababli, bu shaharlarga turistlar, asosan, inson qo'li bilan yaratilgan noyob obyektlarni ko'rish maqsadida boradi. Bu jihatdan Tokio o'zining imperator saroyi, Tokio teleminorasi, Tokio Milliy muzeyi, Ueno bog'i bilan mashhur bo'lsa, London 7.5 mln. eksponatli Britaniya muzeyi, Madam Tyusso eksponatlar muzeyi, Globus teatri va boshqalar bilan mashhur. Nyu-York esa o'zining Butunjahon Savdo markazi, AQSH asosiy telekompaniyalari – SBS, BBS, NBS shtab-kvartiralarini, Ozodlik haykali bilan sayyohlarni o'ziga ko'p jalb eta oladi. Hozirgi vaqtda global shaharlar ro'yxatiga 60 ga yaqin shaharlar kirgan, ularning qatoridan MDH dagi birorta ham shahar o'rin olmagan.

Global shaharlar ham o'z tasnifiga ega. S.Sassen ularni xalqaro ahamiyatiga qarab – alfa, beta, gamma shaharlarga ajratadi.

1980-yilgi John Friedmann tadqiqotlarida yangi urbanistik iyerarxiya yaratilib, London, Nyu-York va Tokio global moliyaviy markazlar, Mayami, Los-Anjeles, Frankfurt, Amsterdam, Singapur ko'p millatli bo'g'inlar, Parij, Syurix, Madrid, Mexico, San Paulo, Seul va Sidney muhim milliy toifa sifatida tan olindi va ularning barchasi bitta iyerarxiyaga birlashtirildi. Kristaller tipologiyasi esa kichik hududlar (mamlakatlar, rayonlar) shaharlari uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda (*M.Pacione, 2009, 122-b.*).

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Shaharlarni turlarga ajratib o'rganishning qanday afzalliklari bor?*
2. *Shaharlar funksiyasiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?*
3. *Poytaxt shaharlarning vazifalari nimalardan iborat?*
4. *Global shaharlar guruhiga qanday shaharlar kiradi?*

## Urbanizatsiya va uning mintaqaviy xususiyatlari

1. *Urbanizatsiya jarayonining mazmuni va o'ziga xos jihatlari.*
2. *Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari.*
3. *J.Jibbsning urbanizatsiya rivojlanishining bosqichli sxemasi.*

**Tayanch iboralar:** *urbanizatsiya, urbanizatsiya darajasi, dezurbanizatsiya, suburbanizatsiya, "soxta urbanizatsiya".*

1. Jamiyat taraqqiyotining XIX asrida sanoat inqilobi natijasida aholining qishloqlardan shaharlarga ko'plab ko'chib borishi, yirik shaharlar sonining ko'payishi, shahar aholisi salmog'ining ortib borishi va qishloq joylarga shahar turmush tarzi hamda madaniyatining kirib borishi bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlana bordi. 1800-yilda yer shari aholisining 3 foizi, 1900-yilda 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, XXI asrga kelib bu ko'rsatkich 50 foizdan ortib ketdi.

2009-yilda jahon shahar aholisining soni 3.4 mlrd. ni tashkil etib, ilk marotaba qishloq aholisi soni bilan tenglashdi. Shu yildan e'tiboran, shahar aholisining soni qishloq aholisiga nisbatan yildan-yilga ortib bormoqda. 1800–1850-yillar orasida shahar aholisi 50 mln. ga, keyingi asrning dastlabki 50 yili ichida 500 mln. ga ko'paygan bo'lsa, so'nggi 50 yil davomida esa bu ko'rsatkich 2,5 mlrd. dan ortiqni tashkil etdi (2-jadval).

Xususan, dunyoning qator rivojlangan davlatlarida urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

«Urban» (lot. urban – shahar), «zatsiya» (rus.) – jarayon demakdir. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo shunday bo'lsa-da, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa, mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 51%, Tojikistonda – 32%, Afgonistonda – 19%, Turkmanistonda – 48% va h.k.

## Dunyo shahar aholisi dinamikasi

Yillar	Shahar aholi soni, mln. kishi	Jami aholidagi ulushi, % da
1800	29,3	3,0
1850	80,8	6,4
1900	224,4	13,6
1950	730,4	28,9
1960	1028,0	33,9
1970	1381,2	37,4
1980	1822,3	41,1
1990	2261,3	43,0
2005	3125,6	47,9
2015	3 880,1	53,0

*BMT Aholishunoslik Departamenti ma'lumotlari.*

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. Chunonchi, agar urbanizatsiya koeffitsiyenti taxminan 70–75 va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi; 50–70% – bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial-agrar; 30–50% – rivojlanayotgan agrar-industrial va 30 foizdan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar kompleks bo'lib, iqtisodiy o'sish urbanizatsiyaning yuqori darajalarida natija berishi mumkin, urbanizatsiyaning yuqori darajalari, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytiradi. Milliy iqtisodiyotdagi har bir sektor iqtisodiy faoliyati tabiati urbanizatsiyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jalik tashkilotlari turli urbanistik makon o'lchamiga, unumdor ekinlar fermer va ishchilarga yaxshi foyda keltirib, intensiv fermerlik tizimi mahalliy urbanistik markazlarning keskin o'sishiga olib keladi. Madaniy turmush tarzi turlari afzalliklari urbanizatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiy rivojlanish darajalari va urbanizatsiya darajasi o'rtasida qalin bog'liqlik bor ekan, potensial ta'sir darajasi turli milliy sharoitda turli omillar muhim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, urbanizatsiya darajasiga ta'sir qiluvchi omillar bog'liqligi muhimligi vaqt o'tishi bilan mamlakatni yanada urbanizatsiyalashgan qilib qo'yadi (*M.Pacione, 2009, 134-b.*).

Ammo, shuni alohida ta’kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko’rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi, Masalan, Rossiya Federatsiyasining Chukotka o’lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o’zimizning Qoraqalpog’istonda urbanizatsiya ko’rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq, bu hududlar iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan va **“soxta urbanizatsiya”** deyiladi. O’zbekiston bilan Turkmanistonni olaylik: urbanizatsiyaning demografik ko’rsatkichi Turkmanistonda biznikidan ko’ra ancha yuqori. Vaholanki, iqtisodiyotda bunday xulosa chiqarish noto’g’ri bo’lardi.

Urbanizatsiyaning ikkinchi asosiy ko’rsatkichi – yirik shaharlarining mavjudligidir. XIX asr boshida jahon urbanizatsiyasining asosiy manzarasini ko’rsatuvchi aholi soni 100 mingdan ziyod shaharlar 65 ta bo’lgan bo’lsa, keyingi asr o’rtasida ular 360 ta va XXI asr bo’sag’asida 2000 dan ortdi. Millioner shaharlar esa hozirgi kunda 220 ta bo’ldi. BMT prognoziga ko’ra, 2030-yilga borib yer yuzi aholisining uchdan ikki qismi jahon YaIM ning 80 foizini beruvchi yirik shaharlarda yashaydi.

Zamonaviy urbanizatsiya yer yuzida shaharlarning urbanizatsiyaning sifat jihatlari ham kam emas. Bu – shahar turmush tarzi, shahar madaniyatining yoyilishida o’z ifodasini topadiki, uni qishloq va shahar joylarni taqqoslaganda ko’rish mumkin.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming aholi kerak, O’zbekistonda – 7 ming);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq – shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va h.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Albatta, urbanizatsiya – bu obyektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo uning salbiy tomonlari ham yo’q emas. Chunonchi,

ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon globalizatsiyasining eng ko‘zga ko‘rinarli salbiy «yo‘ldoshlaridir».

Urbanizatsiya mamlakat yoki boshqa hududlarning “shaharlashuvini” anglatadi. U o‘ta murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va butun dunyoga xos global jarayondir.

2. Urbanizatsiyaning geografik jihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o‘zgacha sodir bo‘lmoqda. Urbanizatsiya, garchi shaharlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u XIX asr oxirlarida sanoat inqilobi natijasida aholining ish izlab qishloqlardan shaharlarga yoppasiga ko‘chib kelishi asosida jadal rivojlandi. Dastlab urbanizatsiya Yevropada boshlanib, hozirda cho‘qqisiga yetib, orqaga qaytmoqda. Masalan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 80–90 foizga yetdi. Shaharlar nihoyatda kattalashib, aholisi 10–12 mln. ga yetdi. Hozirda aholi o‘ta zich joylashgan binolar, shovqin-suron, turli asabzuzarliklar, keskin ekologik-nozoogeografik vaziyatdan qochib (dezurbanizatsiya), ochiq tabiat qo‘yniga intilmoqda. Natijada suburbanizatsiya, ya’ni shaharlarning shahar atrofida o‘sishi kuzatilmoqda. Lotin Amerikasida bu jarayon o‘z cho‘qqisida, Osiyo, Shimoliy Afrika mamlakatlarida jadal bormoqda, aholining qishloqlardan shahar, ayniqsa, poytaxt shaharlarga ko‘chishi natijasida Mumbay, Kalokut, Jakarta, Karachi, Qohira, Tehron, Manila, Lagos, Dakka kabi yirik shaharlar aholisi 12–15 mln. ni tashkil etmoqda. Ayrim davlatlarda–Afg‘oniston, Nepal, Bangladesh, Butan, Tropik Afrika davlatlarida esa u hali boshlangani yo‘q.

1994–2025-yillarda Osiyo 1.5 mlrd. shahar aholisiga ega bo‘lishi kutiladi. Yoki bu Yevropaning har bir yangi shahar fuqarosiga 23 ta osiyolik shahar fuqarosi to‘g‘ri kelishini bildiradi. Lotin Amerika va Karib havzasida ham umumiy urbanizatsiya darajasi keskin ko‘tarilib, 1970-yilda 163 mln. aholi shaharlarda yashagan bo‘lsa, 1994-yilga kelib, 349 mln. ga yetdi. Mintaqa shahar aholisi 2025-yilgacha 601 mln. ga yetishi kutilib, bu raqamlar Yevropadagiga nisbatan yuqori bo‘lib hisoblanadi – 598 mln. Afrika esa dunyoning har qanday mintaqasidan tezroq o‘sishni namoyish etib, 1970-yilda 84 mln. aholiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1994-yilgacha aholi soni 240 mln. ga ortdi, 2025-yilgacha 804 mln. ga yetishi kutiladi. Bu barcha urbanistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali

tasdiqlangan bo‘lib, kelgusida mintaqalarning urbanizatsiya darajasini yaqqol namoyish etib beradi (*M.Pacione, 2009, 69-b.*).

O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko‘rsatkichini yaqin kelajakda 70–80 foiz bo‘lishini tassavvur qilish qiyin va bunday aslo bo‘lmaydi ham. Sababi – bizda shaharlar rivojlanishi qishloq joylar bilan qadimdan an’anaviy holda bog‘liq. Qolaversa, bunday mamlakatlarda urbanizatsiya ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasi jiddiy e‘tibor qaratmoqdaki, bu ham urbanizatsiya, uning ichkaridan, «yashirincha» rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko‘rsatkichi, garchi ma’lum qulayliklarga ega bo‘lsa-da, «uning ayrim nozik» jihatlari ham mavjud.

3. Amerikalik shaharshunos olim J.Jibbs urbanizatsiya jarayonini o‘rganish asosida uni quyidagi bosqichlardan iboratligini aniqlaydi:

*1-bosqich*–qishloq joylarda qishloq belgilari ustun bo‘lgan shaharlar vujudga kela boshlaydi, ammo ular hali qishloqlar rivojlanishidan ortda bo‘ladi.

*2-bosqich*–shaharlar rivojlanishda qishloqlardan o‘zib ketadi, qishloq areallarida markazlar paydo bo‘ladi.

*3-bosqich*–qishloqlardan aholi shaharlarga ko‘chib boradi, areallar-ning markazlarida aholi ko‘payib, aglomeratsiyalashuv jarayoni ro‘y bera boshlaydi, atroflarida aholi kamayadi.

*4-bosqich*–aholi yirik shahar va aglomeratsiyalarda to‘planadi, kichik shahar va qishloqlarda esa kamayadi.

*5-bosqich*–yirik shaharlardan aholi kichik shahar va qishloqlarga, shahar atroflariga qaytadi.

Demak, urbanizatsiya ana shu bosqichlarni bosib o‘tadi, biroq u turli hududlarda o‘ziga xos tarzda turli vaqtlarda amalga oshadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Urbanizatsiyaning mazmun va mohiyatini tushuntiring.*
- 2. Mamlakatlarning (rayon) urbanizatsiya darajasi qanday aniqlanadi?*
- 3. Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlarini tushuntiring va uni turlicha ekanligi sabablarini aniqlang.*
- 4. J.Jibbsning urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlari sxemasi bo‘yicha O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishini tahlil qiling.*

## Shaharlarning hududiy tizimlari. Shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar

1. *Shaharlar hududiy tizimlarining vujudga kelishi, turlari.*
2. *Shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi.*
3. *Urbanistik zona va areallar.*

***Tayanch iboralar:*** *shahar aglomeratsiyasi, yo‘ldosh shahar, yashil zona, tebranma migratsiya, urbanistik zona, megalopolis, megalopolis, komurbatsiya.*

1. So‘nggi yillarda urbanizatsiya jarayoni sifat jihatdan o‘zgarib, o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishdi; yirik shaharlar o‘z doirasidan chiqib, yangi hududiy tizimlar – shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar ko‘rinishida namoyon bo‘la boshladi. “Aglomeratsiya” lotincha so‘z bo‘lib, “to‘plamoq”, “qo‘shib olmoq” ma’nosini bildiradi. Mazkur termin ko‘p sohalarda, masalan, sanoatda, geologiyada ishlatilib, keyinchalik aholi manzilgohlari uchun ham qo‘llanila boshlandi. Umuman olganda, “aglomeratsiya” tushunchasi dastavval nemis olimi Alfred Veberning sanoat shtandorti nazariyasida qo‘llanilgan. U sanoat korxonalarini joylashtirishda transport, iste‘mol omillari qatorida aglomeratsiya omiliga ham katta e‘tibor bergan. Bu so‘zni birinchi marta amerikalik shaharshunos olim Adna Veber 1899- yilda shaharlar geografiyasi faniga olib kirdi va aholi manzilgohlarining bir joyda to‘planishi uchun ushbu termini ishlatdi.

Shahar aglomeratsiyalari rus – sovet adabiyotlarida 1910–20-yillardan A. Kruber, M. Dikanskiy, V. Semyonov – Tyan - Shanskiy tomonidan o‘rganila boshlandi va turli nomlar bilan ataldi, masalan, “iqtisodiy shahar”, “shaharning xo‘jalik okrugi”, “planlashtirilgan rayon” va h.k. Yirik shaharshunos olim G.M. Lappo unga shunday ta’rif beradi: “Shahar aglomeratsiyalari xilma-xil intensiv aloqalar bilan yagona, dinamik tizimga birlashgan aholi manzilgohlarining ixcham hududiy guruhidir”.

“Shahar aglomeratsiyasi” tushunchasi ma’lum ma’noda shartli xarakterga ega. Sababi, bunday hududiy tizimlarda faqat shahar joy-

lar emas, balki ular orasida qishloqlar ham mavjud bo'lib, ularning aholisi ham aglomeratsiyalashuv jarayonida ishtirok etadi. Ammo shahar, ayniqsa, yirik shaharlarning bunday murakkab tizimlarni shakllanishidagi yetakchi rolini hamda shahar aholisi va shaharcha hayot tarzini tarqalishini hisobga olib, bunday tuzilmalar shahar aglomeratsiyalari deb ataladi.

Shahar aglomeratsiyalarining vujudga kelishini G.M.Lappo 2 xil turini ajratadi. **“Shahardan”** – asosiy shahardan unga mos kelmaydigan obyektlar yaqin atrofiga olib chiqiladi yoki shahar uchun zarur bo'lgan obyektlar uning atrofidagi yo'ldosh shaharlarga quriladi. Shu tariqa aglomeratsiya paydo bo'ladi va rivojlanadi. **“Rayondan”** – konlar yoki yangi yerlar o'zlashtirilayotgan rayonlarda, Sharq mamlakatlarida ko'proq sug'orma dehqonchilik rayonlarida bir necha aholi manzilgohlaridan birortasi qulay IGO' ga ega bo'ladi, u tez rivojlanib, dominantlik qiladi va aglomeratsiya yadrosiga, qolganlari esa unga yo'ldosh shaharlarga aylanadi. Lekin ko'pchilik hollarda aralash tipdagi aglomeratsiyalar uchraydi.<sup>16</sup>

Shahar aglomeratsiyalari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalari bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy majmualar va iqtisodiy geografik o'rin bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, ular hududiy tarkib, hududiy tizim va hududiy majmualarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvalambor, shahar aglomeratsiyalari har qanday hududiy tarkibni shakllantiruvchi asosiy belgidir. Ular o'ziga xos hududiy tizimni anglatadi. Bunda shahar aglomeratsiyalari zaminida sanoat va transport tuguni yotadi.

Kengaygan urbanistik tizim va integratsiyalashgan yo'l bo'ylari o'rtasida kapital, mahsulot, odamlar oqimi kuchayadi, bu qishloq va shahar faoliyati o'rtasidagi farqlarni pasaytirishga xizmat qiladi (*M.Pacione, 2009, 192-b.*).

Ayni vaqtda, shahar aglomeratsiyalari yagona iqtisodiy geografik o'rin, iqtisodiy makon, bozor muhitini ham bildiradi. Ularda yagona investitsiya muhiti, ekologik, nozoogeografik va kriminogen vaziyat ham vujudga keladi. Xususan, shahar aglomeratsiyalarining yagona

<sup>16</sup> Лалло Г. География городов.–М., 1997, 90 с.



sotsial muhit ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki aglomeratsiyada o'ziga xos yashash sharoiti, kishilarning haftalik mehnat – hayot faoliyati sodir bo'ladi.

2. Joyning tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, aglomeratsiyalar turlicha hududiy qiyofalar – “polosasion”, “chiziqsimon”, “zanjirsimon”, “yulduzsimon” kabi konfiguratsiyaga ega bo'ladi. Ularning hududiy tarkibi ham murakkab bo'lib, aglomeratsiya to'laqonli shakllanishi uchun bosh shahar – “yadrosi”, yo'ldosh shaharlar, ular o'rtasida intensiv aloqalar bo'lishi talab etiladi.

Odatda, markaziy shahardan tarqaluvchi radial yo'l bo'ylari tez rivojlanadi, ularning oralarida esa ochiq joylar – bufer zonalar qoladi. Bu zonalar ko'pincha “yashil zonalar” yoki qishloq xo'jalik yerlari bilan band bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda esa ular qurilishlar, uy-joylar bilan to'lib ketib, yo'ldosh shahar bosh shaharga qo'shilib ketadi. Markaziy shahar aglomeratsiyaning “yadro”sini tashkil etadi, ular bitta (monotsentrik), ba'zan esa ikki va undan ortiq (politsentrik) bo'lishi ham mumkin (Donetsk – Makeevka-Gorlovka, Gdansk – Gdinya-Sopot va b.). Markaziy shahar qanchalik katta bo'lsa, uning ta'sir doirasi ham shunchalik keng bo'ladi. Odatda, uning aholi soni 100 mingdan ortganda aglomeratsiyalashuv uchun ko'proq imkoniyat vujudga keladi. Undan uzoqlashgan sari, aholi zichligi va aholi manzilgohlari kamayib boradi, ular o'rtasidagi aloqalar ham susayadi. Aglomeratsiya chegarasi ko'pincha 50–60, ba'zan esa 100–110 km li radiuslarga ham teng bo'lishi mumkin.

Shahar aglomeratsiyalari turli yerlarda, turli tabiiy va iqtisodiy geografik omillar va sharoitlar ta'sirida tarkib topgani uchun, jahon tajribasida ularni ajratishda yagona mezon qabul qilinmagan, masalan, AQSHda ular “yadro”sining aholisi 50 ming kishi, Kanadada esa 100 ming kishi bo'lishi talab etiladi. MDHdagi ko'pchilik aglomeratsiyalarni ajratishda G.M.Lappo metodikasidan foydalangan holda, markaziy shahar aholi soni 250 mingdan, yo'ldosh shaharlar soni to'rttadan kam bo'lmazligi talab etiladi. Yo'ldosh shaharlar, odatda, monofunksional bo'lib, sanoat markazi, kurort, ilmiy markaz, tuman markazi, agrosanoat markazi kabi ayrim funksiyalarni bajarib beradi.

Shahar aglomeratsiyalaridagi barcha elementlar bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻladi, bu yerda umumiy hayot faoliyati, yagona xoʻjalik tizimi shakllanadi. Ushbu hududdagi barcha resurs va imkoniyatlardan: tabiiy va mehnat resurslari, suv va energiya taʼminoti, yirik shaharning ilmiy-texnik salohiyati, yer va uy-joy fondi, mehnat qilish, dam olish, davolanish, bilim olish kabi xizmatlardan umumiy holda foydalaniladi. Bu esa, oʻziga xos aglomeratsiya samaradorligini taʼminlaydi.

3. Yirik shahar va shaharchalar hududi oʻzaro tutashib, qoʻshilib ketsa, u holda yaxlit – ulkan shahar vujudga keladiki, ularni – konurbatsiya deyishadi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va h.k.). Biroq, konurbatsiya ham aglomeratsiyalarning bir shakli, koʻrinishi boʻlsa-da, har qanday aglomeratsiya ham konurbatsiya emas. Bu termini ingliz olimi P.Geddes 1913-yilda fanga kiritgan boʻlib, u yirik shaharlarning hududiy jihatdan oʻzaro qoʻshilib ketishini nazarda tutadi. Dunyodagi eng yirik konurbatsiya Katta Golland konurbatsiyasi boʻlib, uning asosini Rotterdam, Amsterdam va Gaaga shaharlari tashkil etadi. Hozirgi kunda yer sharidagi eng yirik aglomeratsiya Tokio aglomeratsiyasi boʻlib, unda 35 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Aholi soniga koʻra, keyingi oʻrinlarni Mexiko, Nyu-York, San-Paulu va boshqa aglomeratsiyalar egallaydi. Ammo soʻnggi vaqtlarda ularning demografik oʻsish surʼatlari sekinlashdi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi Bombey, Manila, Karachi, Dakka, Lagos va boshqalarda «urbanistik portlash» yuz bermoqda: ish topish maqsadida koʻplab aholi poytaxt shaharlarga koʻchib kelib, shaharga demografik bosim kuchaymoqda. Ularning aholi soni yiliga 3–5% dan koʻpaymoqda (jahon boʻyicha shahar aholisining oʻrtacha yillik oʻsishi 1,8%).

Yevropa, Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyodagi ana shunday 40–50 ta yirik aglomeratsiyalar yonma-yon joylashib va bir-biriga qoʻshilib, yirik urbanizatsiyalashgan areallar, yaʼni megalopolislarni hosil qilgan. Umuman esa, megalopolis yoki megapolis ulkan shahar (mega – katta, yirik) maʼnosini bildiradi. Ushbu termini birinchi marta amerikalik sotsiolog olim L.Mamford qoʻllagan. J.Gottman esa Atlantika qirgʻoqlari boʻylab deyarli 1000 km ga polosasimon shaklda choʻzilib ketgan 50 ga yaqin aglomeratsiyani va 50 mln. dan

ziyod aholini o'z ichiga olgan Bosvash (Boston-Vashington) aglomeratsiyalar tizimini birinchi bo'lib tadqiq etdi va uni megalopolis nomi bilan atadi. Ana shunday urbanizatsiyalashgan hududlardan sayyoramizning sharqiy qismida, markazi Tokioda joylashgan Tinch okeanining muhim savdo yo'llari bo'ylab cho'zilgan Tokaydo (Tokio-Osaka) megalopolisi Sharqning o'ziga xos o'sish qutbi hisoblanib, unda aholi va ishlab chiqarishning asosiy qismi mujassamlashgan.

Tokaydo megalopolisida mamlakat aholisining deyarli 60 foizi to'plangan bo'lib, bu yerda mamlakat umumiy sanoat mahsulotining 2/3 qismi ishlab chiqariladi. Mazkur Tokaydo megalopolisining yadrosini Katta Tokio deb nomlanuvchi Yaponiyaning Tokio poytaxt aglomeratsiyasi hududi tashkil etadi. Katta Tokio Yaponiyaning Tokio poytaxt okrugi va Chiba prefekturasining katta qismini birlashtirib, o'z ichiga oluvchi, Kanto mintaqasida joylashgan yirik urbanizatsiyalashgan hudud bo'lib hisoblanadi (*M.Pacione, 2009, 127-b.*).

O'zimizning Farg'ona vodiysida ham aholi joylashuvining o'ziga xos shakli vujudga kelgan, uni yirik shaharlarning bosh harfi bilan "FAN" megalopolisi deb atash mumkin (Farg'ona-Andijon-Namangan). Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini biz deltapolis deyishimiz mumkin. Grek arxitektori Doksiadis kelgusida hatto, oykumenapolis vujudga kelishi haqida ham fikr bildirgan bo'lib, bu butun dunyo shaharlarining yagona tizimidir.

**Megalopolis** so'zi ikki yoki undan ortiq shahar aglomeratsiyalarining qo'shib ketishini anglatrsa, **megapolis** termini esa, hozirgi vaqtda BMT tasnifiga ko'ra, aholi soni 8 mln. dan ortgan shahar uchun qo'llanilmoqda. Odatda, bunday shaharlar o'z ma'muriy-hududiy chegarasi doirasidan chiqib ketadi, shahar atroflari ham shaharga bevosita qo'shib ketadi. Bunday yirik shaharlarga ega bo'lmagan ko'pgina mamlakatlar o'zlarining bosh, yetakchi, ko'p hollarda poytaxt shaharlarini megapolis deb atashmoqda. Hozirgi kunda 29 ta aholi soni 8 mln. dan ortgan megapolis qayd etilgan. Ularning aksariyati (19 tasi) Osiyo mamlakatlarida. Ularda 400 mln. dan ortiq aholi yashaydi. 1900-yilda bunday shaharlarning soni dunyoda 10 ta edi.

Bunday ulkan urbanizatsiyalashgan hududlar, jahonning asosiy sivilizatsiya markazlari bo'lishi bilan bir qatorda, transport, sotsial,

ekologik, shovqin-suron, irqiy-milliy muammolar bilan birga rivojlanmoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya jadal rivojlanayotgan Afrika, Janubiy Osiyo mintaqasida shaharlar nazoratsiz qolmoqda. Qishloqlardan ko‘chib kelayotgan, ro‘yxatdan o‘tmagan aholi shahar chekkalariga rejaga mos kelmaydigan uy-joylarni qurib, joylashib olmoqda. Natijada shahar hududi kengayib, nazoratdan chiqib ketmoqda. Shaharlarda yuqori, boy qatlam aholi yashaydigan “elit ko‘chalar” atrofidan qashshoqlarning xarobalari o‘rin olmoqda. Bunday xarobalarda shahar infratuzilmasi, toza ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr energiyasi, yo‘llar va kommunal xizmatlarning yo‘qligi turli kasalliklarning, transport, shovqin-suron, ekologik tengsizlik, jinoyatchilik kabi muammolarning ortib borishiga olib kelmoqda. Bu esa shahar ko‘rki va mavqeyini pasaytiradi, urbanizatsiya bilan bir qatorda **ruralizatsiya** (qishloqlashish) jarayoni ro‘y beradi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. *Shaharlarning hududiy tizimlari qanday shakllanadi?*
2. *Shaharlarning hududiy tizimlari turlarini ayting va ularga izoh bering.*
3. *O‘zbekistonda qaysi turdagi shahar tizimlari shakllangan. Ularni kartadan aniqlang.*
4. *Komurbatsiya nima va u qanday joylarda tarkib topadi?*

## Rayon planirovkasi va shaharsozlik asoslari

1. *Rayon planirovkasi haqida tushuncha.*
2. *Shaharlar Bosh rejasi.*
3. *Shaharsozlik masalalari.*

**Tayanch iboralar:** *Rayon planirovkasi, Bosh reja, shaharsozlik, hudud, loyiha, me'morlik.*

1. Rayon planirovkasi—muayyan hududda ishlab chiqarish korxonalari, aholi joylashuvi, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa infratuzilma elementlarini hududning geografik, iqtisodiy, qurilish-arxitektura, muhandislik-texnik shart-sharoitlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududiy tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanadi. Rayon planirovkasi iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lgan muhim yo'nalishidir. Aynan shu ma'noda u konstruktiv geografiya (D.I.Bogorad), rayonning amaliy geografiyasi sifatida tan olingan.

Darhaqiqat, rayon planirovkasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy yo'nalishidir. U shaharlar geografiyasi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish masalalari bilan yaqindan aloqador.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy geografiyada ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish g'oyasi asosiy o'rinda turadi. Binobarin, ushbu fanda hududiy ishlab chiqarish majmualari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Rayon planirovkasida hudud ishlab chiqarishni joylashtirish nuqtayi nazaridan tashkil etiladi va baholanadi. Demak, iqtisodiy geografiyada hudud bu oddiy makon, ishlab chiqarishni joylashtirishdagi sharoit hisoblansa, rayon planirovkasida u maxsus omil, resursdir.

Rayon planirovkasi bu avvalgi xalq xo'jaligini planlashtirish emas; u ma'lum bir hududni loyihalashtirish, sxemalarini tuzish, aholi manzilgohlarining Bosh planini yaratish bilan shug'ullanadi, shu ma'noda u planlashtirish bilan prognozlash o'rtasida turadi. Mazkur

muammolar bilan maxsus ilmiy tekshirish va loyihalashtirish institutlari mashg'ul (ToshBoshplanЛИТИ; O'zshaharsozlikLITI va h.k.).

Rayon planirovkasi ayni vaqtda mintaqaviy planlashtirish ham emas. Biroq u mintaqaviy iqtisod va siyosat bilan bog'liq. Rayon planirovkasi, shuningdek, iqtisodiy rayonlashtirish bilan ham aloqador; iqtisodiy rayonlashtirish rayon planirovkasining nazariy asosidir.

Rayon planirovkasida uning obyektlarini to'g'ri aniqlash katta ahamiyatga ega. Odatda, rayon planirovkasi uchun o'rta darajadagi iqtisodiy rayon (viloyat) va undan kichik hududlar tanlab olinadi. Hudud kichraygan sari, rayon planirovkasining aniqlik darajasi ortib boraveradi.

Ko'pincha, viloyat ko'lamidagi rayon planirovkasi ishlari sxemalar tuzish bilan belgilanadi. Ular - 1:100000–1:300000 masshtabda amalga oshiriladi. Viloyat ichidagi iqtisodiy rayonlar uchun rayon planirovkasining loyihasi tuziladi. Bunday loyiha ishlari sanoat tugunlari uchun ham bajariladi. Agar viloyat ichidagi iqtisodiy rayonlarda 1:100000–1:50000 masshtab qo'llansa, sanoat tugunlarida masshtab yanada aniqlashadi - 1:25000 yoki 1:10000.

2. Shuningdek, qishloq tumanlari uchun rayon planirovkasi ishlab chiqiladi. Alohida aholi manzilgohlari uchun esa Bosh rejalar tuzilib, shahar va qishloq hududi sanoat, uy-joy qurilishi, dam olish nuqtayi nazaridan kichik rayonlarga ajratiladi, hatto ayrim korxonalar, maktab, bekat, do'kon kabi obyektlarni joylashish o'rni aniq belgilanadi.

Bosh rejalar 1:10000 yoki 1:5000 masshtabda yaratiladi. Bunday rejalar shaharning alohida qismi uchun ham tuzilishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda sanoat yoki industrial parklar, tashkillashtirilgan sanoat rayoni, industriya uchastkasi kabilar uchun ham ishlab chiqiladi. Ularning maydoni ko'pincha 200 gektardan oshmaydi.

Rayon planirovkasining sxema va loyihalari hamda aholi manzilgohlarining Bosh rejalarini odatda, 25 yilga mo'ljallangan bo'ladi. Ana shu davr uchun aholi sonining bashorati ham ishlab chiqiladi. Bu bashoratlar turli usullarda (ekstropolyatsiya, mehnat resursi balansi, turli yoshdagi aholi sonini demografik surish yoki siljitish va b.) bajariladi.

Yirik loyihalar ustida ba'zan o'nlab, hatto yuzlab ilmiy tadqiqot institutlari ishlaydi. Loyihalarni ishlab chiqishda 20–30 turdagi mutaxassislar – arxitektorlar, ekolog, gidrolog, geomorfolog, tabiiy

va iqtisodiy geograflar, yo‘l quruvchilari, iqtisodchi va boshqalar ishtirok etadi. Shuning uchun rayon planirovkasi bir necha fanlar qirrasida vujudga kelgan bo‘lib, kompleks xarakterga ega. Bunda har bir mutaxassis o‘z sohasi ustida ishlaydi, iqtisodiy geografning vazifasi shuki, u hudud bitta bo‘lgani bois, uni yagona tizim sifatida qarab, obyektlarni o‘zaro bir-biriga mutanosibli va ta‘sirini o‘rganadi. Bunda fandagi tizim – tarkib usuli qo‘l keladi. Yana bir muhim vazifa – hududni iqtisodiy rayonlashtirish: rekreatsiyaga xos, sanoat korxonasi uchun yoki aholi yashashi uchun ma‘qul bo‘lgan hududlarni ajratib berish, ya‘ni rayonlashtirishdir.

Yana shuni ham unutmaslik kerakki, mamlakatimizning bozor munosabatlariga o‘tishi, mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi tufayli davlatning ilgarigi boshqaruvchanlik roli o‘zgaradi. Bu esa rayon planirovkasining maqsad va vazifalariga ham yangicha qarashni taqozo etadi.

Rayon planirovkasi ilk marta 1919-yilda Angliyada vujudga keldi. Ingliz olimi Piter Selfning “shaharlar o‘z doirasidan chiqib ketmoqda” degan fikri asosida, davlat tomonidan hududdan unumli foydalanish maqsadida, ayrim hududlarning (London, Liverpool, Plimut) rayon planirovkasini tuzishga kirishildi va shaharlarni rivojlantirish uchun planlar ishlab chiqildi. Rossiyada 1933-yildan qurilish ishlari rayonlarning sxemalari asosida amalga oshirila boshlandi (Qrim, Poltava, Xarkov va b.) va yaxshi natijalar berdi. O‘rta Osiyoda Janubiy Tojikiston HICM si, Chirchiq, Angren-Olmaliq sanoat rayoni uchun shunday loyihalar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda respublikamizda ToshBoshloyiha, O‘zshaharsozlik LITI tomonidan barcha shahar va shaharchalarning Bosh rejaları ishlab chiqilmoqda.

Demak, rayon planirovkasi, odatda, yangi o‘zlashtirilgan, katta ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat rayonlari, yo‘llar, hududiy majmualar, shaharlar va boshqalar uchun loyiha va sxemalar tuzadi, aholi manzilgohlari – shahar, shaharcha va hatto qishloqlar uchun Bosh rejalar ishlab chiqiladi. Bosh rejalar asosida shahar va qishloqlarda qurilish ishlari olib boriladi.

3. Shaharlar qurilishi nazariyasi va amaliyoti bilan **shaharsozlik** (me‘morlikning bir yo‘nalishi) shug‘ullanadi. Unda hududning tabiiy-

iqlimiy va iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlari, sanitariya-gigiyena, qurilish-texnika, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot darajasi, milliy o'ziga xosligi, shaharning vazifalari, ekologik holati va boshqalar hisobga olinadi. Shaharsozlikda yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), shaharlarni kengaytirish, me'moriy majmualar bunyod etish Bosh reja asosida amalga oshiriladi va loyihalar tuziladi. Bunday loyihalar buyurtmalar orqali shaharsozlikka ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot va loyihalash institutlarida bajariladi.

Shaharsozlikning asoslari qadimgi Misr, Xitoy, Yunoniston, Eron kabi mamlakatlarda ilk shaharlar vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan. Eramizdan avvalgi III-II ming yilliklardayoq shaharlar rejalashtirib qurila boshlagan. Turli davrlarda davr xususiyatidan kelib chiqib, shaharlar qurishning turlicha usullari qo'llanilgan. Masalan, qadimgi Rim Tibr daryosi bo'ylab to'g'ri burchakli qismlarga bo'lingan, Yunonistonda siyosiy va diniy qismlar ajratilgan. O'rta asrlarda urush-yurishlarga qarshi qal'a devorlari bilan o'ralgan shaharlar barpo etilgan. Sanoat ishlab chiqarishi shaharlarning jadal o'sishiga olib keldi va ishchi shaharlari qurila boshladi. XX asrda hududiy (mintaqaviy) rejalashtirish yuzaga keldi, turli sohalarga ixtisoslashgan rayonlar ajratildi. Shu o'rinda aytish lozimki, yirik shaharlar boshqaruv qulay bo'lishi uchun ma'muriy rayonlarga bo'linadi. O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri ma'muriy jihatdan 11 ta tumanga bo'linadi.

Hozirgi kunda olimlar shaharlardagi ekologik, aholi zichligi, shovqin-suron, transport va boshqa muammolarni hal etish va har tomonlama qulay shahar barpo etish g'oyalari ustida bosh qotirmoqdalar (shahar-bog'lar, suv ostidagi shahar, havo sharidagi shahar va h.k.).

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Rayon planirovkasi haqida tushuncha bering.*
- 2. U qanday hududlar uchun tuziladi?*
- 3. Rayon planirovkasi qanday masshtablarda tuziladi?*
- 4. Rayon planirovkasini tuzishda qanday omillar hisobga olinadi?*



## II BOB. O‘ZBEKISTON SHAHARLARI GEOGRAFIYASI

### O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va uning yangi bosqichi

1. *O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining tarixiy bosqichlari.*
2. *O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari.*

1. O‘zbekistonda, garchi shaharlar qadimda, 2,5–3 ming yil avval vujudga kelgan bo‘lsa-da, urbanizatsiya jarayoni ancha kech boshlandi. U o‘ziga xos bo‘lgan bir necha tarixiy bosqichlarga ajratiladi.

**1-bosqich.** Qadimiy davr 1917-yilgacha bo‘lib, bunda shahar maqomini berish bo‘yicha rasmiy mezonlar bo‘lmagan. Aholi sonidan qat’i nazar, yirik aholi manzilgohlari, xonlik, amirlik hamda beklklarning ma’muriy markazlari shahar deb yuritilgan. Bu davrda shaharlar asosan transport tuguni (karvonsaroylar), savdo (bozorlar), harbiy-strategik (istehkomlar), diniy va ma’muriy markazlar sifatida vujudga kelgan. 1897-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, ushbu shaharlarda jami aholining 18,8 foizi yashagan.

**2-bosqich.** 1917-yildan keyin shahar maqomi berish qoidalari o‘zgarishi bilan shaharlar doirasi kengaydi. Bunda shahar tashkil etuvchi tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, demografik, geografik va boshqa omillar hisobga olina boshlandi. Dastlabki shaharlarga maqom berish bo‘yicha 1929-yilda qabul qilingan «O‘zbekiston SSRning shahar va shahar punktlari ro‘yhatini tuzish to‘g‘risidagi» qaroriga ko‘ra, 15 ta shahar ro‘yxatga kiritildi.<sup>17</sup> O‘zbekistonda urbanizatsiya, asosan, Rossiya tarkibiga kirgach, rus xalqining ko‘chib kelishi va shaharlarga joylashuvi hisobiga ortib bordi, mahalliy millat vakillarining aksariyati esa qishloqlarda yashar edi. 1917-yilda shahar aholisi 20,9 %, 1940-yilda 24,5 foizni tashkil etdi.<sup>18</sup>

<sup>17</sup> Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Т., 2004.

<sup>18</sup> Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект.–Т., 1998, 25 с.

**3-bosqich.** II jahon urushi davriga to'g'ri keladi. Mazkur davrda front ortidan ko'plab zavod, fabrika, muassasalar, shuningdek, aholining yurtimiz hududiga evakuatsiya qilinishi yoki frontga zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha yetkazib berish maqsadida ayrim shaharlarning tez o'sishi kuzatildi (Toshkent, Chirchiq, Angren va b.), ularda shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning asosi shakllandi. 1945-yilda shahar aholisi salmog'i 33,8 foiz bo'lib, 5 yil ichida 10 foizdan ortiqroq ko'paydi.

**4-bosqich.** Urushdan keyin xalq xo'jaligining tiklanish davri bo'lib, o'lkamizda yo'llar qurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi (Mirzacho'l, Qarshi cho'li), konlarning ochilishi bilan shaharlashish jarayoni avvalgi davrlarga nisbatan jadal bordi. 1959-yilda mamlakatda jami 101 ta shahar aholi manzilgohi qayd etildi. Ularda 2,7 mln. aholi yashab, urbanizatsiya darajasi 33,6 foizga yetdi. 1970–80-yillarda xalq xo'jaligini kompleks rivojlantirish asosida urbanizatsiya tez o'sdi, yillik shahar aholisining o'sishi 4,4 % ni tashkil etdi. Yiliga o'rtacha 5–6 tadan yangi shaharlar paydo bo'ldi. Bu esa mazkur davrda iqtisodiy rivojlanish, aholi tabiiy ko'payishi va shahar maqomi berilishi talabining 10 mingdan 7 mingga tushirilishi bilan ham bog'liq bo'ldi. Mamlakatda sanoatning ixtisoslashuvi, sanoat turlari, rayonlari bir yoki bir necha tarmoqlarga ixtisoslashgan ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishi, fan-texnikaning taraqqiy etishi shaharlar rivojlanishiga olib keldi. Tub joy aholisining ham yirik shaharlar, ayniqsa, poytaxtga migratsiyasi kuchaydi. Ana shu davrda urbanizatsiya ko'rsatkichi o'zining ilk marotaba cho'qqisiga chiqdi va 1984-yilda 42,3 foizni tashkil etdi.

**5-bosqich.** 1980-yillarning oxirlariga kelib, ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar urbanizatsiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, rusiyzabon xalqlarning o'z yurtlariga ko'chib ketish jarayoni kuzatildi. Urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi 1991-yilda 40,4 foizga teng bo'ldi. Umumiy aholi tabiiy harakati sustlashdi, shahar joylarda aholining tabiiy o'sishi qishloqlarga qaraganda 1,5 barobar past bo'lgani urbanizatsiya darajasining pasayishiga ikkinchi asosiy sabab bo'ldi. Urbanizatsiya darajasi yiliga 0,5–0,6 foizdan kamayib borib, 2008-yilda 35,8 foizga tushdi. Gar-

chi, urbanizatsiya son jihatdan pasaysa-da, uni sifat jihatdan rivojlantirishga – shaharlarni obodonlashtirish, qurilish va arxitekturasi-ga, boy tarixiy va madaniy merosini saqlash, tiklash ishlariga katta e'tibor qaratildi. Ularning hududiy va urbanistik tarkiblarida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

2. 2009-yilda mamlakat aksariyat aholisining qishloqlarda yashashini hisobga olgan holda, ularga shahar hayot tarzini, madaniyatini olib kirish, infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 2009-yilda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 965 ta qishloqqa shaharcha maqomi berildi.

Qishloqlarning shaharchalarga aylantirilishi respublika urbanizatsiyasida o‘ziga xos yangi bosqich bo‘ldi. Shahar aholi soni 2008-yilda 9,6 mln. bo‘lgan bo‘lsa, 2009-yilda 14,3 mln. kishini tashkil etib, urbanizatsiya darajasi 51,7 foizga ko‘tarildi. Bunda, eng yuqori ko‘rsatkich Namangan viloyatida kuzatilib, 64,6 foiz, ikkinchi o‘rinda Farg‘ona viloyati – 58,7 foiz va uchinchi viloyat – Andijonda – 53,1 foiz shahar aholisi qayd etildi. Agar nazariy jihatdan tahlil qilinsa, aholi soni va ular oila a‘zolarining aksariyati qishloq xo‘jaligida band emasligini hisobga olsak, shaharcha maqomi berish talablariga javob beradi. Biroq, shahar infratuzilmasi, arxitektura, shahar madaniyati, aholining yashash tarzi jihatidan, bu “soxta urbanizatsiya”ning bir ko‘rinishidir.

Agar o‘tgan bosqichda urbanizatsiya darajasiga ko‘ra QR, Navoiy va Toshkent viloyatlari yetakchilik qilgan bo‘lsa, so‘nggi davrda aholi soni ko‘p va zich yashagan Farg‘ona vodiysiga almashdi. Buning asosiy sababi, Farg‘ona vodiysi ko‘plab aholi soni katta bo‘lgan yirik qishloqlarga ega bo‘lganligidir.

2009–2016-yillar oralig‘idagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zR urbanizatsiya darajasi 1,0 foizga kamaygan. Ayniqsa, Sirdaryo, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida yuqori ko‘rsatkichlar kuzatiladi (3-jadval).

## O'zbekistonda urbanizatsiya darajasining o'zgarishi

O'zR va hududlar	2008-yil		2009-yil		2016-yil		Urbanizatsiya darajasining o'zgarishi, 2009 ga nisbatan 2016 y.
	Shahar aholi soni, ming k.	Urbanizatsiya darajasi, % da	Shahar aholi soni, ming k.	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholi soni, ming k.	Urbanizatsiya darajasi, % da	
O'zR	9698.2	35.8	14236.0	51.7	15748.0	50.6	-1.1
QR viloyatlar:	774.5	48.5	814.6	50.4	873.0	49.5	-0.9
Andijon	716.9	29.2	1338.9	53.5	1500.0	52.4	-1.1
Buxoro	456.8	29.5	616.8	38.8	678.4	37.9	-0.9
Jizzax	321.2	29.7	520.7	47.4	589.6	47.2	-0.2
Navoiy	327.8	39.5	416.7	49.6	448.5	49.1	-0.5
Namangan	806.3	37.1	1434.1	64.6	1618.8	63.4	-1.3
Samarqand	755.0	25.1	1145.8	37.4	1337.0	38.0	+0.6
Sirdaryo	215.8	31.1	290.7	46.3	336.6	43.3	-3.0
Surxondaryo	381.3	19.2	756.2	37.2	845.2	35.8	-1.4
Toshkent	990.8	39.3	1278.3	50.1	1350.2	48.9	-1.2
Farg'ona	827.2	27.8	1776.2	58.8	1965.9	57.0	-1.8
Xorazm	328.1	21.8	523.9	34.2	559.0	32.6	-1.6
Qashqadaryo	616.5	24.5	1116.8	43.6	1274.5	43.1	-0.5
Toshkent sh.	2180.0	100.0	2206.3	100.0	2371.3	100.0	0.0

Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Buning asosiy sabablari shuki, qishloq aholisining shaharga bo'lgan migratsiyasi sust va shaharlarning tashkil topishi avvalgidek ko'p emas. Shahar aholisi yillik tabiiy o'sishi qishloq joylarga nisbatan kam (0,8 va 1,3 foiz) va bu jarayon bundan keyin ham shunday davom etishi kuzatiladi. Demak, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi pastligi sabablari:

- qishloq-shahar migratsiyasining sustligi;
- shahar aholisi tabiiy harakatining qishloq aholisiga nisbatan pastligi;
- shaharlarning aholini jalb etish salohiyatining zaifligi;
- muntazam ravishda yangi shaharlarning vujudga kelmasligi;
- hududlarning sanoat salohiyatining pastligi;
- aholining ko'proq qishloq joylarga moyilligi va b.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada urbanizatsiyaning rivojlanishi va yuqori ko'rsatkichlarga erishishi (u jahon mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi) asosan **ruurbanizatsiya** hisobiga boradi. Ruurbanizatsiya, aslida, rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining deurbanizatsiyasi, ya'ni qishloqlarga ko'chib borib, u yerda shaharcha hayot tarzini yoyishi tushuniladi. Rural – qishloq, urbanizatsiya–shaharlashish (lotincha), demak, qishloqlarning shaharlashishi ma'nosini anglatadi. Bu jarayon, mamlakatimizda yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshqacha ko'rinishda sodir bo'ladi, ya'ni qishloqlarda shahar infratuzilmasini shakllantirish, sanoatni olib kirish va aholini unga jalb etish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, bino, uy-joy qurilishida shahar arxitektura qoidalariga rioya qilish, shahar madaniyatini shakllantirish, ya'ni qishloqni shaharlashtirish demakdir. Bunda, avvalo, aytish joizki, 965 ta yangi shaharchalarni bosqichma-bosqich talabga ko'ra, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarni shakllantirish mumkin bo'lgan, "istiqboli" shaharchalarni aniqlab, rivojlantirishdan boshlash maqsadga muvofiq.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *O'zbekistonda urbanizatsiya qaysi xususiyatlari bilan boshqa mamlakatlardan farq qiladi?*
2. *O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining asosiy bosqichlariga ta'rif bering.*
3. *Jadvalni tahlil qilish asosida viloyatlarda urbanizatsiya jarayoni qanday kechayotgani haqida ma'lumot bering.*

## O'zbekiston shaharlari tarkibi

1. *O'zbekistonning urbanistik tarkibi.*
2. *O'zbekiston shaharlarining hududiy tarkibi.*

1. Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatimiz hududiy tuzilmasining o'zagini tashkil qiluvchi shaharlar tizimini takomillashtirish, ularning mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan to'g'ri hamda samarali foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Binobarin, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi shaharlar to'ri va tizimi bilan chambarchas bog'langan. Shu bois, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika urbanistik tarkibidagi o'zgarishlari va shu bilan birga, jahon urbanizatsiyasining mamlakatga xos jihatlari hamda ta'sirini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, respublika hukumati tomonidan urbanistik tizimni takomillashtirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zR Prezidentining 2005-yil 14-iyulda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2009-yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturining qabul qilinishi bilan qishloq joylarning ishlab chiqarish va infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri qilib belgilandi. Qishloqlarda zamonaviy infratuzilma tizimini barpo etish, bu joylarga sanoatni olib kirish, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshilash, urbanizatsiyaning ichkaridan, o'ziga xos «yashirincha» rivojlanishini anglatadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13 martda "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq, mamlakatimiz shaharlar geografiyasi 965 taga ko'paydi. 2016-yil 5-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori shular jumlasidandir.

Ma'lumki, har bir mamlakat hududiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati eng avvalo uning urba-

nistik va hududiy urbanistik tarkibida o'z aksini topadi. "Hududiy urbanistik tarkib" tushunchasi fanga taniqli olim I.M.Maergoyz tamonidan kiritilgan bo'lib, u turli mintaqalarda shaharlar to'ri, xususan, katta shaharlar qay tarzda shakllangan va rivojlanganligi bilan bog'liq.

Respublika mintaqalari urbanistik tarkibi, o'zining genetik xususiyati, funksional tiplari va katta-kichikligiga ko'ra farqlanadi. Jumladan, mustaqillik arafasida mamlakatda jami 123 ta shahar va 104 ta shaharchalar mavjud edi (urbanizatsiya darajasi 40,8 foiz). 1992-yilga kelib, respublika geourbanistikasida o'ziga xos vaziyat yuz berdi. Mazkur yilda turli mintaqalarda 17 ta shaharchalar vujudga keldi. Ular, Jizaxda – Zarbdor va Zafarobod, Samarqandda – Mirbozor, Sirdaryoda – Do'stlik, Toshkentda – Yangi Chinoz, Qashqadaryoda – Nuriston, Qoraqalpog'iston Respublikasida – Akshaloq va Qozonketken (Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev A., 2002). Shu yili sust urbanizatsiyalashgan Surxondaryoda shaharlar to'ri birdaniga 5 ta (Agor, Do'stlik, Sariq, Hurriyat va Elbayon)ga kengaydi va bu mintaqada zamonaviy transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlaniishi bilan izohlanadi. Aksincha, Xorazm viloyatidagi Gurlan, Xonqa, Shovot va Xazorasp kabi shaharlar, shaharchalar qatoriga tushib qoldi. 1994-yilga kelib Samarqand viloyatidagi Payariq, 1995-yilda esa Buxoro viloyatidagi Shofirkon tuman markazlari sifatida shahar maqomiga ega bo'ldi (Mavlonov A., 2015). Aytish joizki, 2000-yildan yangi urbanistik islohotlar davrigacha atigi 2 ta shaharcha vujudga keldi, xolos. 2004-yilda qadimiy Karmana Navoiy shahridan ajratilib, shaharcha sifatida ro'yxatga olindi. Qo'ng'iro't tumanida Elobod shaharchasi tashkil topganidan so'ng, O'zbekiston shaharlar geografiyasida o'zgarish qayd etilmadi (2005 y.). Qoraqalpog'istonning shaharlar to'ri esa shu yilda ikkita shaharchaga kamaydi. Nukusning yo'ldosh shaharchalari (Qizketkan va Pristanskiy) uning poytaxti tarkibiga birlashtirildi.

2000-yildan keyingi davrda respublika va uning mintaqalarida shaharlar to'ri va tizimining shakllanishi, urbanizatsiya jarayoni o'zgacha tus olmoqda (*1-jadval*). 2016-yil ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston Respublikasining 50,6 foiz aholisi shahar joylarida istiqomat qiladi. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi pasayib bormoqda. Urbanizatsiya darajasining o'zgarishi

hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanishi, yangi shahar manzilgohlarining paydo bo'lishi, aholining tabiiy ko'payishi, shuningdek, tashqi migratsiya kabi omillarga bog'liq holda kechadi.

O'zbekistonda jami shaharlardan viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar soni 25 ta, tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar 93 ta bo'lib, yagona poytaxt shahar respublikaga bo'ysunadi. Eng ko'p shaharlarga ega bo'lgan viloyat Toshkent viloyati (16 ta shahar), eng kam shaharlar esa Xorazm viloyatida – 3 ta. 2009-yilda bo'lgan tarkibiy o'zgarishlardan so'ng, jami shaharchalar soni 1079 taga teng bo'ldi. Eng ko'p shaharchaga ega bo'lgan viloyatlar: Farg'ona – 197 ta, Qashqadaryo – 123 ta va Namangan 120 ta. Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharchalar soni eng kam (4-jadval).

#### 4-jadval

#### O'zR viloyatlarining shahar aholi manzilgohlari (01.01.2016 y. holatiga)

O'zR hududlari	Shahar aholisi soni, ming kishi	Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar	Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar	Shaharchalar soni
O'zR	14305.9	25	93	1079
QR	817.1	1	11	26
viloyatlar:				
Andijon	1343.9	2	9	78
Buxoro	776.3	2	9	62
Jizzax	523.9	1	5	42
Navoiy	420.8	2	4	38
Namangan	1447.0	1	7	120
Samarqand	1150.3	2	9	88
Sirdaryo	294.7	3	2	21
Surxondaryo	762.3	1	7	114
Toshkent	1284.9	4	12	97
Farg'ona	1789.6	4	5	197
Xorazm	526.7	1	2	58
Qashqadaryo	1125.9	1	11	123
Toshkent		-	-	1

Jadval O'zR Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Hozirda respublikadagi eng urbanizatsiyalashgan mintaqa Namangan viloyati hisoblanadi. Shuningdek, Farg‘ona (57,0 %) va Andijon (52,4 %) viloyatlarida ham shahar aholisining salmog‘i respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha baland.

Urbanizatsiya darajasi mamlakat ko‘rsatkichidan past mintaqalarga – Xorazm, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari mansub. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, ayrim mintaqalarning yangi urbanistik salohiyati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy) real vaziyatni o‘zida aks ettirmaydi.

### 5-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari tarkibidagi o‘zgarishlar (aholi soni, ming kishi)14\*07

Mintaqalar	2008-yil		2009-yil		2016-yil	
	shahar-lar	shahar-chalar	shahar-lar	shahar-chalar	shahar-lar	shahar-chalar
O‘zbekiston Respublikasi	119	114	119	1080	119	1085
Qoraqalpog‘iston respublikasi	12	15	12	27	12	26
Viloyatlar:						
Andijon	11	5	11	89	11	78
Buxoro	11	2	11	62	11	69
Jizzax	6	9	6	43	6	42
Navoiy	6	8	6	38	6	47
Namangan	8	11	8	120	8	120
Samarqand	11	12	11	88	11	88
Sirdaryo	5	5	5	21	5	25
Surxondaryo	8	7	8	114	8	114
Toshkent	16	18	16	97	16	97
Farg‘ona	9	10	9	206	9	197
Xorazm	3	7	3	58	3	58
Qashqadaryo	12	4	12	123	12	123
Toshkent sh.	1	1	1	1	1	1

Jadval O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikada yangi urbanistik islohotlardan soʻng, 2009-yilda 1199 ta shahar manzilgohlari qayd etilgan. Ularning 966 tasi yangi tashkil etilgan shaharchalarga mos keladi. Taʼkidlash joizki, ularning aksariyat qismining ishlab chiqarish salohiyati agrar xususiyatga ega ekanligi bilan koʻzga tashlanadi. Agrosaharchalarning hududiy tarkibida Fargʻona (196 ta), Qashqadaryo (119 ta), Surxondaryo (107 ta) va Namangan (109 ta) viloyatlari yuqori pogʻonalarni egallaydi.

Yangi tashkil etilgan qishloq shaharlarining 40 foizga yaqini Fargʻona mintaqasida tarkib topgan.

2. Oʻzbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari mamlakat mintaqalari boʻyicha notekis taqsimlangan. Demografik salohiyati yuqori, iqtisodiyoti nisbatan barqaror boʻlgan iqtisodiy rayonlarda shaharlar toʻri ham yaxshi rivojlangan. Shaharlar sonining eng koʻp miqdori hamon Fargʻona (423 ta) mintaqasiga tegishli boʻlib, unda Oʻzbekiston shahar manzilgohlarini 35,1 foizi joylashgan. Shuningdek, shaharlar soni bilan Janubiy, Zarafshon va Toshkent iqtisodiy rayonlari ham nisbatan yaxshi taʼminlangan. Ayni paytda iqtisodiyoti agrar-industrial yoʻnalishga ega boʻlgan Quyi Amudaryo va Mirzachoʻl mintaqasida shaharlar toʻri sust boʻlib, respublika urbanistik tizimining mos ravishda 8,2 va 6,8 foizini tashkil etadi.

Aytish joizki, shaharlar tizimining murakkablashuvi, ularning ierarxiyasini (pogʻonasi) aniqlash, shaharlar oʻrtasidagi vazifalarning (funktsiyalarni) taqsimlanishiga ham olib keladi. Mamlakat urbanizatsiyasining oʻziga xos jihati shaharlar zanjirida kichik shaharlar sonining koʻpligi bilan izohlanadi. Respublika iqtisodiyotning asosan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hamda ularni qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli, shaharlarning 4/5 qismidan koʻprogʻini kichik shaharlar tashkil etadi. 2009-yilda yangi shaharchalarning vujudga kelishi bilan, mazkur toifadagi shaharlarning salmogʻi yana ortib ketdi (6-jadval).

2016-yilda 1091 ta kichik shahar va shaharchalar boʻlib, ular jami shahar manzilgohlarining 90,1 foiziga teng. Oʻrta bosqichdagi shaharlar soni 20 tani tashkil etib, jami shahar manzilgohlarining 1,6 foiziga mos keladi. Respublikada yirik shaharlar soni 7 ta (Samarqand, Namangan, Andijon, Qarshi, Nukus, Buxoro, Fargʻona), katta shaharlar 11 ta, “yarim oʻrta” shaharlar 75 tani tashkil etadi.

## O'zbekiston Respublikasining hududiy-urbanistik tarkibi (01.01. 2016 y. holatiga, ming kishi)

Hududlar	Kichik shahar va shaharchalar			Yarim o'rta shahar*			O'rta shahar			Katta shahar			Yirik va millioner shahar		
	soni	aholisi	%	soni	aholisi	%	soni	aholisi	%	soni	aholisi	%	soni	aholisi	%
O'zbekiston Respublikasi shundan: Toshkent iqtisodiy rayoni	1091	5962,5	37,8	75	2155,6	13,6	20	1302,3	8,2	11	1764,3	11,2	8	4563,3	28,9
Toshkent viloyati	99	480,1	12,9	9	248,9	6,6	3	207,8	5,5	3	420,3	11,2	1	2364,4	63,5
Toshkent sh.	1	6,9	0,2	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	2364,4	99,7
Mirzacho'l iqtisodiy rayoni	69	492,1	53,1	7	204,2	22,0	1	64,9	7,0	1	165,0	17,8	-	-	-
Jizzax viloyati	43	315,9	53,5	4	108,7	18,4	-	-	-	1	165,0	27,9	-	-	-
Sirdaryo viloyati	26	176,2	52,3	3	95,5	28,3	1	64,9	19,2	-	-	-	-	-	-
Farg'ona iqtisodiy rayoni	384	2375,3	46,7	29	808,9	15,9	5	315,6	6,2	2	421,5	8,2	3	1163,4	22,8
Andijon viloyati	72	586,2	39,0	14	364,8	24,3	2	138,6	9,2	-	-	-	1	410,4	27,3
Namangan viloyati	116	739,9	45,7	8	217,0	13,4	3	177,0	10,9	-	-	-	1	484,9	29,9
Farg'ona viloyati	196	1049,2	53,3	7	227,1	11,5	-	-	-	2	421,5	21,4	1	268,1	13,6
Zarafshon iqtisodiy rayoni	212	969,0	39,3	13	366,3	14,8	4	262,8	10,6	2	379,8	15,4	1	486,0	19,7
Buxoro viloyati	76	303,6	44,7	2	66,4	9,7	1	58,9	8,6	1	249,5	36,7	-	-	-
Navoiy viloyati	48	171,7	38,2	3	81,5	18,1	1	65,0	14,4	1	130,3	29,0	-	-	-
Samarqand viloyati	88	493,7	36,9	8	218,4	16,3	2	138,9	10,3	-	-	-	1	486,0	36,3
Janubiy iqtisodiy rayon	241	1162,6	54,8	11	313,3	14,7	2	152,8	7,2	3	239,7	11,3	1	251,3	11,8
Surxondaryo viloyati	116	519,0	61,4	4	106,9	12,6	1	81,4	9,6	1	137,9	16,3	-	-	-
Qashgariy viloyati	125	643,6	50,9	7	206,4	16,1	1	71,4	5,6	1	101,8	7,9	1	251,3	19,7
Quyil Amudaryo iqtisodiy rayoni	86	483,4	63,7	6	214,0	14,9	5	298,4	20,8	1	138,0	9,6	1	298,2	20,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29	189,0	21,6	4	148,1	16,9	4	237,7	27,2	-	-	-	1	298,2	34,1
Xorazm viloyati	57	294,4	52,6	2	65,9	11,7	1	60,7	10,8	1	138,0	24,6	-	-	-

Izoh: \*-aholisi 20-50 ming kishiilik shaharlari.

Hozirda yo‘l mustaqilligini ta‘minlash borasida, Xalqaro logistika markazi (Angren MIZ), Jizzax maxsus industrial zonasida hamda Navoiy erkin industrial zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimiz shaharlar geografiyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2001-yil Uchquduq-Sultonuvays-Nukus, 2007-yil Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on, 2016-yil Angren-Pop temir yo‘llarining foydalanishga topshirilishi mamlakat temir yo‘l tizimini mustaqil yaxlit tuzilma sifatida shakllanishiga imkon berdi. Asosiysi, ushbu hududlarda joylashgan Navoiy, Uchquduq, Xalqobod, G‘uzor, Dehqonobod, Boysun, Qumqo‘rg‘on, Miskin, Angren, Ohangaron, Yangiobod, Pop kabi shahar manzilgohlarining o‘shish qutb va markazlari sifatida transport geografik o‘rni yanada yaxshilandi.

Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida shaharlar rivojlanishi biroz sekinlashgan bo‘lsa-da, keyingi “urbanistik to‘lqin” tufayli ularni soni birdaniga besh martaga ortdi. Bunday vaziyat, shaharchalar rivojlanishining imkoniyatlari hamda asosiy yo‘nalishlari, o‘shish qutb va markazlarini har tomonlama o‘rganishning zarurligini belgilab beradi.

### **Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari**

Toshkent iqtisodiy rayoni respublikada poytaxt mintaqasi, rivojlangan sanoat, qurilish, transport tizimi, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi, o‘zining iqtisodiy-ijtimoiy, demografik va urbanistik salohiyati bilan yuqori mavqeni egallaydi. Bunga uning qulay geografik o‘rni, tabiiy-geografik, iqtisodiy-ijtimoiy, tarixiy, demografik va boshqa qator omillar ta‘sir ko‘rsatgan.

Mintaqaning tog‘ va tekislikning kesishgan qismida, G‘arb va Sharqni bog‘lovchi muhim karvon yo‘llari bo‘yida joylashgani, bu yerdan Chirchiq va Ohangaron daryolarining oqib o‘tishi azaldan ko‘plab aholi manzilgohlarining vujudga kelishida bosh omil bo‘lib hisoblangan.

Keyinchalik Toshkent-Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi) va Toshkent – Orenburg, Turkiston - Sibir, Toshkent - Barraaj, Toshkent-Yangiyo‘l - Chinoz, Toshkent - Keles - Darvoza, Toshkent - Angren temir yo‘llarining qurilishi, Toshkent - Xojikent, Toshkent - Xovos temir yo‘lining elektrlashtirilishi uning transport geografik o‘rmini

yaxshiladi, Shu bilan birga, Katta O'zbek trakti, Chimkent, Jizzax, Qo'qon va boshqa yo'nalishdagi magistral yo'llar boshqa o'lkalar bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamladi va bu yerlarda qator aholi manzilgohlarini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Mintaqani vujudga kelishidagi yana bir muhim omil – ko'p funktsiyali, katta ilmiy-texnik, geosiyosiy va iqtisodiy-madaniy qudratga ega bo'lgan rivojlangan sanoat va transport tuguni, poytaxt – Toshkent shahrining mavjudligidir. Uning ta'sir doirasida mintaqada shaharlashish jarayoni jadal bormoqda.

Iqtisodiy rayon urbanistik salohiyatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Urbanizatsiya darajasi 73,2 foizni tashkil etadi. Jami shaharlar soni 17 ta bo'lib, yagona millioner shahar, 3 ta katta va 3 ta o'rta shaharga ega. Hududiy urbanistik tarkibiga ko'ra, Toshkent shahri va Toshkent viloyati shaharlaridan iborat.

## **Toshkent shahri**

Toshkent shahri uzoq va murakkab tarixga ega bo'lib, uning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan, Yunusobodning Mingo'rik dahasidan qazib olingan topilmalar shundan dalolat beradiki, bundan taxminan 2200-yillar muqaddam uning o'rnida shahar xarobalari bo'lgan. Shahar turli nomlar bilan (Yuni, Choch, Shosh, Binkat) tarixiy manbalarda uchraydi. Uning hozirgi nomi XI asrda Abu Rayxon Beruniy va tarixchi Mahmud Qoshg'ariy asarlarida tilga olingan. Shaharning hozirgi kungacha bosib o'tgan tarixini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

**1 - davr (1917 - yilgacha).** Shaharning qulay geografik o'rinda: qit'alararo savdo yo'llarining kesishgan qismida joylashgani uni yirik savdo markaziga aylantirdi. Toshkent shahri tekislikda, o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik rayonlarining kesishgan qismida joylashgan bo'lib, bu yerda turli mahsulotlar ayirboshlanar edi. U g'arb va sharq, shimol hamda janub o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarda asosiy o'rin tutgan. Shu bilan bir qatorda, ko'chmanchi xalqlarning bosqinlariga qarshi O'rta Osiyo hududidagi harbiy funktsiyalarni bajaruvchi istehkom ham edi. Shahar ko'plab chet el bosqinchilariga qarshi kurash-

larda vayron bo‘ldi, lekin qulay yerda joylashgani uchun yana o‘zini bir necha bor tiklab oldi. Shahar qal‘a devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, uning o‘rtasida bozor bo‘lgan. Bozordan sakkiz tomonga yo‘l o‘tib, uni atrof bilan bog‘lagan. 1865-yilda Rossiyaga qo‘shib olingach, Toshkent O‘rta Osiyoga kiruvchi asosiy “darvoza” rolini o‘ynadi. Shahar Ural, Volgabo‘yi, Rossiyaning markaziy qismi va Sibir bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni olib bordi. Bu yerdan xilma-xil yuk – ipak, gazlama, paxta, teri, hunarmandchilik buyumlari va qishloq xo‘jalik mahsulotlari, qorako‘l, quritilgan meva, sholi, guruch, gilam olib ketilar, mashina, asbob-uskuna, metall, shakar kabi mahsulotlar olib kelinar edi. Shahar hududiy jihatdan kengayib, Anhor kanalidan sharq va janubga–Salor daryosi tomonga qarab kengaya bordi va uning “yevropacha” yangi qismi qurila boshlandi. Yangi sanoat korxonalari qurildi, Toshkent qo‘shimcha vazifalarni o‘z zimmasiga ola boshladi; hunarmandchilik – savdo markazi va harbiy strategik markazdan endi u Turkiston general gubernatorligining va Sirdaryo viloyatining markaziga, ya’ni ma’muriy boshqaruv funksiyalarni ham bajaruvchi yirik shaharga aylandi.

**2-davr (1917 – 1940 yy.)** Oktabr inqilobidan so‘ng shahar hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. 1924-yildan boshlab shahar rekonstruksiya qilinib, sanoat korxonalari, yangi uy-joylar, o‘quv yurtlari va boshqa binolar qurildi. U Turkiston o‘lkasining sanoat va transport markaziga aylandi. Bu davrda nafaqat shahar ichi, balki uning atroflarida ham yangi qurilishlar amalga oshirildi.


1930-yilda poytaxtlik funksiyasini olishi Toshkent shahrini O‘zbekiston, qolaversa, O‘rta Osiyodagi ma’muriy-madaniy markaz darajasiga olib chiqdi. Shahar hududi shimoli-sharqiy tomonga qarab kengaydi. Markaziy qismi radial-halqasimon shaklda bo‘lib, 12 ta radial va 3 ta halqa yo‘ldan iborat edi. Shahar boshqa o‘lkalardan o‘zining relyef, iqlim, milliy xususiyatlari jihatdan farq qilishi qurilishlarda o‘ziga xoslikni talab etdi. 1939-yilda TashNIIGenplanida (A.I.Kuznetsov va M.M.Kleymanov) 25 yilga mo‘ljallangan maydoni 13,8 mingga va aholisi 900 ming kishiga teng keluvchi shahar loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, shahar hududi shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy tomonga – Cho‘ponota arig‘igacha, sharqda Qorasuvgacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olgan edi. 1939-yilda shahar

aholisi 584 ming kishini tashkil etib, u O'rta Osiyodagi eng yirik, ko'p funksiyali shaharga aylandi va 90 km<sup>2</sup> maydonni egalladi (Toshkent, Ensiklopediya, 2009).

**3-davr (1940 – 1945 yy.).** Bu davr qisqa vaqtni o'z ichiga olsa-da, ro'y bergan urush tufayli katta o'zgarishlarga boy bo'lib, shaharning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Mazkur davr uchun Rossiya, Ukraina, Belorussiyadan ko'plab sanoat korxonalarini va aholining ko'chirib keltirilishi xos bo'ldi. Urush yillarida Toshkent harbiy arsenal sifatida, mudofaa-tashkiliy ishlarni bajardi. 1942-yilda bu yerdagi sanoat korxonalarining yarmi harbiy mahsulot ishlab chiqarar edi. Front chizig'idan yana 100 dan ortiq korxonalar va ko'plab aholi evakuatsiya qilindi. Bu davrda Toshkent shahri sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdiki, bu uning keyingi sanoat tarkibida mashinasozlik va metallurgiya sanoatiga ixtisoslashuvi uchun asos bo'ldi. Agar 1940-yilda ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotlarining 81% i yengil sanoat hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1941-yilda 60 foizini og'ir sanoat egalladi (asosan harbiy sanoat) (Toshkent, Ensiklopediya, 2009). Shu bilan birga, bu yerda yuqori malakali kadrlar to'plandi, xalq xo'jaligining turli sohalarini, fan va madaniyat-kino, teatr, o'quv yurtlariga asos solindi. 1946-yilda uning hududi 130 km<sup>2</sup> ga teng bo'ldi yoki 10-yil ichida deyarli 1,5 martaga kengaydi.

**4-davr (1946–1990 yy).** Mazkur davrda shahar muhim transport va sanoat markazi sifatida faoliyat ko'rsatishni davom ettirdi, Sharqda uning siyosiy roli ortdi. Aholi sonining ko'payib borishi, funksiyalarining ortib borishi bilan uning maydoni ham kengaydi. Shaharda ko'p qavatli binolar qurila boshladi, aholi soni tez ortib bordi. 1966-yilgi zilziladan so'ng u qayta tiklandi va zamonaviy shaharga aylandi. Ko'plab uy-joylar, boshqaruv organlari binolari, ilmiy tekshirish institutlari, o'quv yurtlari, madaniy obyektlar, savdo markazlari, sanoat korxonalarini qurildi. Aholi soni ortib borib, u 1960-yilda millioner shaharga aylandi.

1970 - yilda Tashgiprogor instituti tomonidan 25 ming ga maydon va 1,5 mln. aholiga mo'ljallangan yangi reja tuzildi: Visokovoltniy, Risoviy, Shimoli - sharq, Yunusobod, Qoraqamish massivlari qurildi. 1977-yilda uning turli qismlari metro bilan bog'landi. Shahar mavjud imkoniyatlaridan ortiq darajada vazifalarni bajara boshladi. Natijada, o'z muammolarini shaharning ma'muriy - hududiy doirasida hal eta olmay, atrofi bilan bog'landi.



5-rasm. Tashkent shahrining hududiy rivojlanishi.

Ko‘p mehnat talab qiluvchi, ekologik “xavfli” va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bevosita bog‘liq sanoat korxonalarini tashqariga chiqarildi va yo‘ldosh shaharlarda qurildi. Xususan, yirik shaharga mos kelmaydigan obyektlar, asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarini, jumladan, konserva, paxta tozalash, go‘sh kombinati va boshqalar chetga–Yangiyo‘l, O‘rtaovul, Qibray shaharlariga qurildi yoki olib chiqildi. Zangiota, Chirchiq, Qibray, Piskent, Bektemir sha-



harlarida ayrim korxonalarining filiallari joylashtirildi. Ularning asosida Toshkent atrofida shaharlar vujudga keldi va rivojlandi.

1985-yilda TashNIIGenplan instituti tomonidan (Raimov T., Lifanovskaya M., Mirzayev M. va b.) shaharni bevosita Toshkent viloyati bilan birga hududiy tashkil etishning 2010-yilga mo'ljallangan konsepsiyasi yaratildi. Unga ko'ra, Toshkent shahrini asosan janubig'arbiy va shimoli-sharqiy tomonga, qisman atrofga perimetral holatda rivojlantirish mo'ljallandi. Bo'ka, Chinoz, Yangiyo'l, Parkent va boshqalar tez rivojlanishi mumkin bo'lgan shaharlar qatorida turdi. Bu davrda shahar maydoni 256 km<sup>2</sup> ni tashkil etdi va O'rta Osiyoda aholi soni, iqtisodiy, madaniy jihatdan eng yirik shahar va yirik aglomeratsiyaning markazi sifatida faoliyat ko'rsatib, Kiyev, Minsk, Baku, Novosibirsk shaharlari qatorida turdi.

**5-davr (1991-yildan hozirgi kungacha).** Respublikaning mustaqillikka erishishi 2 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan milliy poytaxt zimmasiga yanada ulkan davlat siyosiy vazifalarini yukladi. O'tish davrida shaharda bozor munosabatlariga xos muhit shakllandi: iqtisodiyot tarmoqlarida o'zgarishlar sodir bo'ldi, yirik sanoat ishlab chiqarishi o'rni kichik va o'rta korxonalar egalladi, yerdan foydalanishga bo'lgan munosabat o'zgardi, yangi tarmoqlar vujudga keldi, poytaxt shaharning xalqaro miqyosda geosiyosiy va boshqaruv mavqeyi ortdi, siyosiy-ma'muriy va ilmiy-madaniy kabi sof poytaxtlik funksiyalari tez rivojlandi. Xususan, ilmiy tekshirish, konstruktorlik-loyihalash tashkilotlari, bozor infratuzilma shoxobchalari, oliy o'quv yurtlari, kadrlar tayyorlash, transport infratuzilmasi va savdo markazlari to'plandi. Toshkent mustaqil davlatning siyosiy markaziga aylandi.

Mustaqillik yillarida shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi bilan tadbirkorlik, xorijiy sarmoyalar kiritish, yangi bank-moliya tizimini shakllantirish, mulkni xususiy lashtirishga e'tibor qaratildi. Shahar qurilishida katta ishlar amalga oshirildi, xiyobon, ko'cha, maydonlarning nomlari qayta nomlandi. Shahar transporti yanada takomillashdi. 1996-yil 31-yanvar "Toshkent shahrida uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq, asosiy e'tibor aholini uy-joy bilan

ta'minlash (yosh oilalarga kreditga uy-joy berish), aholini turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muhofaza qilish, shaharda aholi yashashi uchun qulay va sog'lom muhit yaratishga qaratildi. 2008-yilda shaharning 2200-yillik yubileyi nishonlandi. Shahar chegaralari janubiy, shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy yo'nalishlarda kengaytirildi (7-jadval). "Toshboshboshqarma" ilmiy tekshirish instituti tomonidan 2030-yilga mo'ljallangan Toshkent shahri va okrugini rivojlantirish loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, shahar maydonini Qibray, O'rtachirchiq, Zangiota tumanlari maydoni hisobiga kengaytirish, shahar-bog'ga aylantirish, aeroportni 45 km Jizzax tomonga olib chiqish, uchinchi halqa yo'lini qurish, Olmazor tumanidan Sirg'ali tumaniga "yengil metro" qurish va h.k. rejalar belgilangan va ular amalga oshirilmoqda.

7-jadval

**Toshkent shahri maydoni va aholisining o'zgarishi**

Yillar	Maydoni, km <sup>2</sup>	Necha marta oshgan (1922 y.ga nisb.)	Aholisi, ming kishi	Necha marta oshgan (1922 y.ga nisb.)
1922	100	1,0	260	1,0
1951	117	1,2	626,2	2,4
1961	160	1,6	1037,1	3,9
1970	225	2,3	1384,5	5,3
1977	252	2,5	1688,6	6,4
1985	256	2,6	2035,9	7,8
2010	365	3,6	2107,8	8,1
2014	367	3,6	2340,9	9,0
2030 <sup>1</sup>	418	4,1	3000.0	11,5

## Toshkent viloyati shaharlari

1. *Viloyat shaharlarining shakllanish xususiyatlari.*
2. *Viloyat shaharlari tasnifi.*
3. *Viloyat shaharlarining funksiyalari.*

Toshkent viloyati shahar va qishloqlarining aksariyati daryo havzalarida vujudga kelgan. Shu bois, Chirchiq va Ohangaron daryolari mintaqaning bosh “o‘qi” – tarixiy-geografik asosini tashkil etadi. Sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, transport-geografik o‘rning qulayligi, tabiiy resurslarning o‘zlashtirilishi bu yerda shaharlashish jarayonining tez borishiga sabab bo‘ldi. Xususan, Chirchiq daryosining arzon gidroenergiya resurslarini o‘zlashtirish natijasida avvalgi Qirg‘iz-Quloq, Jaloir, Niyozbek kabi qishloqlarning o‘rnida 1934-yilda **Chirchiq** shahri, Toshkent-Barraj temir yo‘li (1935 y.) qurilishi munosabati bilan uning bo‘yida **Iskandar** shaharchasi vujudga keldi.

Rivojlangan qishloq xo‘jalik rayoni va yirik iste‘molchi rayon Toshkent shahrining o‘rtasida, asosiy transport tugunida joylashganligi Eski Qovunchi (e.av.I asr) aholi manzilgohi o‘rnida 1934 - yilda **Yangiyo‘l** shahrining shakllanishiga asos bo‘ldi. Shuningdek, 1937 - yilda Chirchiq daryosining o‘ng sohilida, Toshkentdan 50 km janubi - g‘arbda, Toshkent - Sirdaryo temir yo‘li stansiyasi sifatida **Olmazor** shaharchasi shakllandi.

Ikkinchi jahon urushi davrida ko‘plab sanoat korxonalarining bu yerga evakuatsiya qilinishi, urushdan keyin tiklash ishlarini olib borish natijasida **Gulbahor, Olmazor, Tuyabo‘g‘iz, Chig‘iriy, Ulug‘bek, Krasnogorsk (Qiziltog‘)** kabi shaharchalar vujudga keldi.

Toshkent viloyati hududining turli qazilma boyliklariga ega ekanligi, yirik sanoat shaharlarining shakllanishiga asos bo‘ldi. Qurama tog‘i atroflarida Qalmoqqir, Pistalisoy, Sovuqbuloq, Saricheku kabi mis konlarining topilishi munosabati bilan 1946-yilda **Olmaliq** shahri qurilishi boshlandi, 1951-yilda unga shahar maqomi berildi.

**Angren** shahri Toshkentdan 120 km janubi-sharqda, Ohangaron daryosi vodiysida, Angren qo‘ng‘ir ko‘mir havzasida joylashgan. Ma‘lumki, 1928-yildan boshlab Ohangaron vodiysida geologik

qidiruv ishlari olib borilgan. Bularning natijasida Ohangaron vodiysida yirik ko‘mir konlari borligi aniqlandi. 1941-yilda karyerlar barpo qilinishi bilan bir qatorda, respublikada ko‘mir sanoatining markazi sifatida Angren shahri qurilishi ham boshlanib ketdi. Ushbu yili vodiydagi Jigariston, Jartepa, Teshiktosh, Qo‘yxona kabi qator qishloqlar zaminida “Angrenshaxtstroy” shaharchasi tashkil etildi. 1946-yilda “Angrenshaxtstroy” shaharchasi shaharga aylantirildi.

**Ohangaron** shahrining paydo bo‘lishi o‘ziga xos xususiyatga ega. “Ohangaron” so‘zi forscha-tojikcha so‘z bo‘lib, temirchilar shahri degan ma‘noni bildiradi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, bundan besh ming yillar avval Go‘shsoyning Ohangaron daryosiga quyilish joyidagi qishloqlarda temirchilik rivojlangan. Tadqiq etilayotgan hududdan eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida bronzadan yasalgan bolta topilganligi bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Ohangaron qadimda Iloq, Tunkat nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan. Aholisi asosan, dehqonchilik, chorvachilik, ma‘dan qazish va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. 1930-yillardan boshlab mazkur hududda geologlar keng miqyosda qidiruv ishlarini olib borishdi. 1941-yilda, mazkur hududdan topilgan ko‘pgina tabiiy boyliklar (kaolin loylari, ohaktosh, mergel, binokorlik toshlari, rangli metallar) negizida kichik posyolka paydo bo‘ldi. Shaharning keyingi taraqqiyotida Angren-Olmaliq sanoat rayoni, shuningdek, Toshkent-Angren ichki temir yo‘l shoxobchasining qurilishi, Toshkent-Angren-Qo‘qon avtomagistralining ishga tushirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi va natijada uning iqtisodiy geografik o‘rni ancha yaxshilandi. Transport kommunikatsiyalari hamda tabiiy resurslarning ko‘pligi sanoatni tez sur‘atlar bilan rivojlanishiga, bu esa aholi sonining ortib borishiga sabab bo‘ldi.

Chunonchi, 1960-yilda Ohangaron atigi 7,2 ming aholi yashagan bo‘lsa, 1970-yilga kelib, u 22,2 ming kishiga yetdi. Ohangaron 1966-yil 27 dekabrda shahar maqomini oldi.

**Bekobod** nafaqat Toshkent viloyati, balki respublikaning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Mazkur shahar viloyatning eng chekka janubida joylashgan bo‘lib, Sirdaryoning ikki sohilida, Farg‘ona vodiysining Mirzacho‘l bilan tutashgan joyida qad

ko'targan. Shu jihatdan qaraganda, shaharning iqtisodiy geografik o'rni bir qator qulayliklarga ega bo'lsa-da, yer osti boyliklari va ularning zaxiralariга ko'ra Olmaliq va Angren shaharlaridan farq qiladi. Bekobodda asosan qurilish materiallari sanoati xom ashyosi, xususan, ohaktosh, mergel, dolomit va boshqa boyliklar mavjud. Mazkur hududda topilgan ohaktoshlar Bekobod sement zavodi uchun xom ashyo vazifasini o'taydi.

Bekobod shahridagi ko'plab sanoat korxonalari, xususan, sement kombinati, Farhod gidroelektrostansiyasi (GES), metallurgiya kombinatining ishga tushirilishi yangi shaharni qad ko'tarishi uchun zamin hozirladi. 1945-yil may oyida Bekobod shahar maqomini oldi. Endilikda Bekobod korxonalarida sement, po'lat, prokat, shifer, g'isht, temirbeton buyumlari va boshqa turdagi ko'plab sanoat mahsulotlari, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarilmoqda. Shahar sanoatida yetakchi o'rinni metallurgiya va qurilish materiallari ishlab chiqarish egallaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Ittifoqning g'arbiy rayonlaridan qator korxonalarining ko'chirib kelinishi shaharda mashinasozlik sanoatini taraqqiy ettirish uchun zamin yaratdi. Bekobodda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan metallurgiya zavodi qurilishi boshlab yuborildi. 1944-yil zavod dastlabki po'latni ishlab chiqargan bo'lsa, 1946-yilda u birinchi prokatni berdi.

1964-yilda esa daryoning chap sohilida, Toshkent shahridan 58 km masofada G'alvasoy va Oqsoqotasoy bo'ylarida, Chirchiq daryosiga yaqin tog'oldi tekisliklarida 700 m balandlikda **G'azalkent** shahri qad ko'tardi. U shu nomdagi 1932 - yilda Chirchiq GESlar kaskadi bosh inshooti sifatida vujudga kelgan shaharcha asosida tarkib topdi. Shaharga yaqin yerda Chorbog' suv ombori qurilishi munosabati bilan tog' oldidagi qulay rekreatsiya zonasida **Chorbog'** shaharchasi shakllandi. Bu yer tabiatining dam olish va davolanish uchun qulayligi, Toshkent - Chorbog' oralig'ida avtobuslar hamda Toshkent - Xo'jakent yo'nalishida elektr poyezdi qatnovining yo'lga qo'yilganligi, qulay imkoniyatlarni yaratdi va uni Toshkent shahri bilan yaqindan bog'ladi.

1972-yilda O'zbekistonda viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar aholisi soni 40 mingdan 30 mingga, tumanga bo'ysunuvchi shaharlar aholisi soni 10 mingdan 7 mingga tushirilishi munosabati bilan sha-

harlashish jarayoni yanada tezlashdi. Katta O'zbek trakti avtomobil yo'llari chorrahasida, Chirchiq daryosining o'ng tomonida Toshkentdan 50 km narida **Chinoz** shahri paydo bo'ldi. Mazkur hududdagi xarobalar milodning boshlarida bu yerda shahar bo'lganligidan dalolat beradi. Qulay geografik o'rni uni yana tiklanishiga olib keldi va 1972 - yilda rasmiy ravishda shahar maqomini oldi.

Ana shunday qadimgi xarobalar o'rnida vujudga kelgan shaharlardan yana biri **To'ytepa** bo'lib, qadimda Mingtepa, No'kay nomlari bilan ma'lum bo'lgan. Bu yerdan Toshkent shahri bilan bog'lovchi avtomagistralning o'tganligi, Tuyabo'g'iz suv omborining mavjudligi uning rivojlanish imkoniyatlarini yaxshilaydi. 1973-yilda yana 3 ta qishloq shaharcha maqomini oldi: Toshkentning shimoli-sharqida tuman markazi sifatida **Qibray**, sharqda **Yangibozor**, shuningdek, **Yangihayot** shaharchasi vujudga keldi; Toshkent shahrining g'arbiy qismida aholi zich bo'lgan hududlarda yana 2 ta shaharcha - **Bo'zsuv** va **O'rtaovul** paydo bo'ldi.

Toshkentning shimoli-g'arbiy chekkasida Toshkent - Sayrog'och temir yo'li bo'yida, Keles stansiyasi o'rnida, Keles daryosi bo'yida **Keles** shahri, 1977-yilda Zangiota tumani markazi **Eshonguzar** tarkib topdi. 1978-yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, asosan paxta tozalash va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish asosida **Oqqo'rg'on** shahri shakllandi. Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyilish qismida, qulay transport geografik o'rinda **Do'stobod** shahri tarkib topdi. **Parkent** shahri Parkentsoy va undan tortilgan kanal bo'yida joylashgan. Miloddan avvalgi II - I asrlarda bu yerda turar joylar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Uni Toshkent - Parkent avtomobil yo'li poytaxt bilan bog'laydi.

1992-yilda Toshkent - Chinoz avtomagistrali bo'yida, aholisi asosan sanoat va qurilishda band bo'lgan **Yangi Chinoz** shaharchasi tashkil topdi. U mustaqillikning dastlabki davrida viloyatda vujudga kelgan shaharchadir.

Toshkent viloyatida 2009-yilda qishloqlar asosida 79 ta shaharcha vujudga keldi.

Shunday qilib, viloyatda hozirgi vaqtda 16 ta shahar, 15 ta shaharcha va 75 ta agrosaharcha bor. Shaharlarning uchtasi yirik (Chirchiq,

Olmaliq, Angren), 3 tasi o'rtta, qolgani kichik shaharlar va bu jihatdan u Farg'ona viloyatiga o'xshab ketadi. Murakkab klassifikatsiya bo'yicha ular quyidagicha guruhlanadi:

8-jadval

### Toshkent viloyati shaharlari klassifikatsiyasi

Shaharlar toifasi	shaharlar soni	ulushi	shaharlar nomi
10 minggaacha	1/8,9 ming	6,3/1,1	Yangiobod
10–20 minggaacha	2/28,1 ming	12,6/3,4	Oqqo'rg'on, Do'stobod
20–50 minggaacha	7/190,5 ming	43,7/22,6	Ohangaron, G'azalkent, Chinoz, Bo'ka, Keles, Piskent, To'ytepa
50–100 minggaacha	3/203,9 ming	18,7/24,3	Parkent, Yangiyo'l, Bekobod
100–250 minggaacha	3/409,2 ming	18,7/48,6	Chirchiq, Olmaliq, Angren
Jami	16/840,6	100,0/100,0	

Jadvaldan ko'rish mumkinki, viloyat shaharlari ichida quyi toifa shaharlari oz, o'rtta qator eng ko'p, aholi soniga ko'ra esa, yuqori toifa shaharlari ustun turadi.

Mintaqaning kichik shaharlari asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi yoki resurs (Yangiobod) shaharlar yohud tuman markazlari vazifasini bajaradi. O'rtta shaharlar tuman markazlari va tor ixtisosli sanoat markazlari bo'lsa, katta shaharlar asosan ko'p tarmoqli sanoat markazlaridir. Shu o'rinda aytilish joizki, Angren MIZda ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan foydalanib, yuqori texnologiya va kooperatsiya asosida elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, oziq-ovqat, qurilish materiallari va b. sanoat tarmoqlari hamda logistika markazi sifatida rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu esa shaharni yirik sanoat markaziga aylanishi yo'lida katta imkon bo'ladi.

## Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari

1. *Jizzax viloyati shaharlarining tasnifi.*
2. *Sirdaryo viloyati shaharlarining shakllanish xususiyatlari.*

Mirzacho‘l mintaqasi nisbatan qulay iqtisodiy geografik o‘rni, mehnat resurslari, infratuzilma, qurilish va elektr energiya kabi bazaviy sohalar bo‘yicha respublikada yetakchilik qiladi. Mamlakat mehnat taqsimotida ushbu hudud – agrar-industrial yo‘nalishga ega, aholi soni ko‘p bo‘lmagan, shaharlar to‘ri uncha taraqqiy etmagan iqtisodiy makon hisoblanadi. Uning hissasiga O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 4,3 foizi, sanoat ishlab chiqarishining 4,0 foiz va qishloq xo‘jalik mahsulotining 9,1 foizi to‘g‘ri keladi (2017-y.).

Mintaqada tekislik, tog‘ yonbag‘ri va tog‘li hududning qo‘shilib ketganligi, tabiiy sharoitning xilma-xilligi aholi joylashuvi hamda xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishga ta‘sir etgan. Jumladan, Jizzax viloyatining Baxmal, G‘allaorol rayonlari Turkiston, Molguzar, G‘o‘bdin, Qo‘ytosh va Qaroqchi tog‘lari botig‘ida joylashgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyatining aksariyat hududi tekislik mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni turli iqtisodiy aloqalar o‘rnatish uchun qulay. Respublikaning taraqqiy etgan viloyat va shaharlari, qolaversa, qo‘shni respublikalar bilan bog‘lovchi temir yo‘l, avtomobil, quvur yo‘llarining o‘tganligi hamda shu yo‘llar orqali xom ashyo, turli xil mahsulotlar ayirboshlashdagi xizmatini ta‘kidlash lozim<sup>19</sup>.

Iqtisodiy rayonning urbanistik “piramidasi” juda sust rivojlangan va shaharlar ierarxiyasi to‘liq emas. Ayni o‘xshash jihatlar mintaqani Quyi Amudaryo bilan taqqoslash imkonini beradi.

Hozirgi kunda iqtisodiy rayonda 11 ta shahar va 67 ta shaharcha mavjud. Mintaqa aholi manzilgohlari joylashuvida azaldan mavjud bo‘lgan (Jizzax) va yangi o‘zlashtirilgan (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer, Paxtakor, Dashtobod, Do‘stlik va b.) hududlar alohida farqlanadi. Hudud sanoati asosan tog‘-kon, elektroenergetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat tarmoqlariga ixtisoslashgan.

Hozirda mintaqada Jizzax MIZ negizida kimyo, to‘qimachilik, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektrotexnika kabi tarmoq-

<sup>19</sup> Солиев А. ва б. «Минтақавий иқтисодиёт». – Т., 2003 й, 168 б.



lar diversifikatsiyalanib bormoqda. Istiqbolda industrial zona ta'sirida nafaqat iqtisodiy rayon, balki unga qo'shni hududlarning ham iqtisodiy salohiyati, shaharlashuv darajasi ortib boradi.

### **Jizzax viloyati shaharlarining tasnifi**

Jizzax viloyati iqtisodiy geografik o'rining qulayligi, "markaziyli" va transchegaraviyligi, tabiiy resurslarga boyligi, mehnat resurslari bilan yetarlicha ta'minlanganligiga ko'ra boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Viloyatning iqtisodiy geografik mavqeyi uning rivojlangan Toshkent va Zarafshon rayonlarining o'rtasida joylashganligida ham ko'rinadi.

Mintaqa shaharlarining genetik tasnifidagi o'ziga xos xususiyat ularning joylashgan o'rni, sanoatning tarmoq tarkibiy tuzilishi, transport infratuzilmasi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi kabi omillar bilan belgilanadi.

Viloyatda 2017-yilda urbanizatsiya darajasi 47,0 % (respublikada 50,5 %), 2008-yilda esa u 29,7 foiz bo'lgan. Shaharliklar 6 ta shahar 42 ta shaharchalarda mujassamlashgan.

Hudud shahar va shaharchalari shakllanish tarixi, funksional tip-lari va katta-kichikligiga ko'ra farqlanadi. Viloyat shaharlarining ak-sariyati qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va tuman mar-kazlari sifatida vujudga kelgan.

Jizzax viloyati shahar aholisining o'sishi yillar davomida o'zgarib borgan. 1987-yilda viloyat shahar manzilgohlarida atigi 197 ming aholi bo'lsa, 1995-yilda 278,1 ming, 2000-yilda 294,7 ming kishiga ko'paygan yoki mazkur davr mobaynida 149,5 foizga o'sgan. 2016-yil ma'lumotiga ko'ra, mintaqa shahar aholisi 600,8 ming kishiga teng bo'lgan (respublika shahar aholisining 3,7 foizi).

Viloyat markazi va "ikkinchi shahar" orasidagi masofa juda uzoq. Sababi, mintaqada urbanistik tarkibning "o'rta bo'g'ini" shakllanmagan. Keyingi bosqich "yarim o'rta" (Paxtakor, G'allaorol, Dashtobod) shaharlarda aholi soni 25–38 ming kishi atrofida.

Viloyat shahar manzilgohlari, geografik o'rni, mavjud imkoniyat-laridan kelib chiqqan holda, ma'lum funksiyalarni bajarishga ixtisos-

lashib bormoqda. Masalan, “**resurs shaharlar**” Qo‘ytoshning volfram, Marjonbuloqning oltin, Uchquloqning polimetall konlari sanoat ishlab chiqarishda ahamiyati katta(9-jadval). Shuningdek, viloyatda temir rudasi (Temirkon), sement va g‘isht (G‘allaorol, Qo‘shkent), bazalt (Osmonsoy) kabi boshqa qazilma resurslari negizida istiqbolda aholi manzilgohlari shakllanishi kutiladi.

9-jadval

**Jizzax viloyati shahar manzilgohlarining genetik tasnifi**

T/r	Shakllanish omillari	Shahar va shaharchalar
1	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va tuman markazlari	O‘smat, G‘allaorol, Do‘stlik, Gagarin, Paxtakor, Yangiqishloq, Bo‘ston, Zarbdor, Zafarobod, Dashtobod
2	Tabiiy resurslardan foydalanish	Qo‘ytosh, Marjonbuloq, Uchquloq
3	Rekreatsiya asosida	Zomin
4	Qayta ishlovchi sanoat asosida	Jizzax

*Agroindustrial shahar-tuman markazlarida* asosan qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlash korxonalari (Do‘stlik don mahsulotlari kombinati), paxtani qayta ishlash zavodlari (Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l) joylashgan. Ayrim qishloq tumanlarining urbanizatsiya darajasi juda past, shahar tashkil etuvchi omillar deyarli rivojlanmagan (ayniqsa, Mirzacho‘l, Forish, Do‘stlik va Yangiobod tumanlarida). Bunday hududlarni faollashtirishda ishchi kuchi ko‘p talab qiluvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va shu orqali aholining ish bilan bandligini oshirish, xalq iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, yengil sanoatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimiz shahar manzilgohlari mintaqalar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Demografik salohiyati yuqori, iqtisodiyoti nisbatan barqaror bo‘lgan rayonlarda shaharlar to‘ri ham yaxshi rivojlangan. Shaharlar sonining eng ko‘p miqdori hamon Farg‘ona (423 ta) mintaqasiga tegishli bo‘lib, unda O‘zbekiston

shahar manzilgohlarini 35,1 foizi joylashgan. Shuningdek, shaharlar soni bilan Janubiy, Zarafshon va Toshkent iqtisodiy rayonlari ham nisbatan yaxshi ta'minlangan. Ayni paytda iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega bo'lgan Quyi Amudaryo va Mirzacho'l mintaqasida shaharlar to'ri sust bo'lib, respublika urbanistik tizimining mos ravishda 8,2 va 6,4 foizini tashkil etadi.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturining ijrosiga binoan, viloyatda 34 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Jumladan, Jizzax tumanida ularning soni 7 ta: Jizzaxlik, Gandumtosh, Qorayantoq, Toqchilik, Mulkanlik, Qangli va Uchtepa; Baxmal tumanida 6 ta: Mo'gol, Novqa, Alamli, Tongotar, Oqtosh hamda Baxmal; G'allaorolda 5 ta: Abdukarim, Lalmikor, Kangliobod, Chuvilloq. Qolgan tumanlarda bunday shaharchalar ozroq, Paxtakor va Do'stlik tumanlarida esa atigi bittadan (Gulzor va Navro'z)<sup>20</sup>.

Yangi shaharchalar orasida, Toqchilik (17,1 ming kishi), Jizzaxlik (16,5 ming kishi), Mulkanlik (13,0 ming kishi), G'oliblar (12,3 ming kishi) aholi soni bo'yicha ajralib turadi. Umuman olganda, Jizzax shahridan tashqari, qolgan shahar joylar ko'proq kichik sinflarga taalluqli. Bu yerda urbanistik tarkibning o'rta bo'g'ini nihoyatda zaif. Nisbatan yirikroq qishloqlar Sangzor daryosi hamda Toshkent-Samarqand avtomagistrali bo'yida, Jizzax shahri atrofi va yangi o'zlashtirilgan joylarda uchraydi.

Jizzax shahri o'zining iqtisodiy-geografik o'rniga ko'ra boshqa shaharlardan bir qator afzalliklari bilan farqlanadi. Jumladan, shaharning qadimiy markazlar-Samarqand, Toshkent, Xo'jand va O'ratepa oralig'ida, Buyuk Ipak yo'lida o'rnashganligi ham uning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini belgilab beradi.

Jizzax maxsus industrial zonasining xalqaro avtomagistral va dengiz portlariga olib chiquvchi temir yo'l bilan bog'langani, “Navoiy” xalqaro logistika markazi va Angren logistika markaziga yaqin joylashgani kelajakda mintaqa shaharlari ixtisoslashuvini yanada kengaytiradi.

---

<sup>20</sup> Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон хуудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. –Т., 2010 й, 85 б.

## Sirdaryo viloyati shaharlarining shakllanish xususiyatlari

Sirdaryo viloyati yuksak sanoatlashgan poytaxt va Zarafshon mintaqasi orasida geografik “kesuvchan” makonda joylashgan. Mintaqa shahar manzilgohlarining aksariyati katta magistral va temir yo‘llar yaqinida ekanligi sanoatni rivojlantirishda qulaylik yaratadi. Shahar manzilgohlari sanoatining asosan qishloq xo‘jaliga bog‘liqligi, agrosanoat shaharlarining ko‘pligidan darak beradi.

Sirdaryo viloyatida shaharlar to‘ri va tizimi yaxshi rivojlanmagan. Mazkur hududning iqtisodiy salohiyati ancha past; sanoat, transport va boshqa shahar hosil qiluvchi tarmoqlar ham xuddi shunday kuchsiz darajada; hozirda viloyatda 5 ta shahar va 25 ta shaharchalar mavjud (urbanizatsiya darajasi 43,3 foiz).

Viloyat shaharlarining vujudga kelishidagi o‘ziga xos jihat joylashgan o‘rni, transport va boshqa infratuzilma tizimining rivojlanganligi, energetika va qurilish bazasining mavjudligi kabi omillar bilan bog‘liq.

2017-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, viloyat respublika yalpi ichki mahsulotining 2,0 foizini beradi, uning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,4 foiz. Qishloq xo‘jaligining hududiy mujassamlashuv darajasi ancha yuqori, ya‘ni 4,2 foizga teng.

Viloyatning urbanistik tarkibida 1970-yilda 9 ta shahar bo‘lib, ularda 132,1 ming kishi yashagan. 1979-yillarda shaharning iqtisodiy rivojlaniishi, qurilish ishlarining jadallashuvi, shuningdek, shahar va shaharchalarga beriladigan maqomning kamaytirilishi bilan ularning soni tez o‘sdi.

2008-yilda 15 ta shaharda jami 321,2 ming, 2017-yildan esa 30 ta shaharda 345,9 ming aholi yashaydi. Mintaqa shahar aholisining 19,3 foizi viloyat markazi Gulistonda to‘plangan.

Hudud shahar manzilgohlarining vujudga kelishi qo‘riq Mirzacho‘l dashtini o‘zlashtirish, energetika bazasi va transport omillari asosida shakllangan. Aynan shu maqsadda «bo‘sh» joyda poytaxt Yangiyer shahri loyihalashtirilgan va barpo etilgan (1957-y.). 1963-yili Sirdaryo viloyatining tashkil etilishi bilan Yangiyer shahri “markaz” deb belgilandi. Ammo tabiiy omillar (Xovos yoki Ursatevsk shamollari) shaharning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. 1972-yilda hududning yirik energetika baza-

si (Sirdaryo GRESi) negizida Shirin shahri, transport infratuzilmasining rivojlanishi esa Baxt shahrining shakllanishiga asos bo'lgan (1980-y.).

*10-jadval*

**Sirdaryo viloyati shahar manzilgohlari aholi sonining o'zgarishi  
(ming kishi)**

No	Shaharlar	1998 y.	2008 y.	2016 yil	2016 yil 1998 yilga nisbatan % da
1	Guliston sh.	55.3	56.7	86.5	156.4
2	Shirin sh.	13.9	16.1	18.2	130.9
3	Yangiyer sh.	28.2	30.9	39.9	141.4
4	Baxt	11.7	11.6	12.8	109.4
5	Sirdaryo	29.7	28.6	29.0	97.6
6	Sayxun	4.8	5.3	5.5	114.5
7	Dehqonobod	10.5	11.7	12.9	122.8
8	Paxtaobod	12.2	14.2	16.8	137.7
9	Xovos	27.3	27.0	27.7	101.4
10	Boyovut	12.5	13.7	15.7	125.6

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Mintaqada shahar hosil qiluvchi omillar ta'sirining kuchsizligi bois katta shaharlar bo'g'ini shakllanmagan. Jumladan, viloyatda 2009-yilgacha 5 ta shahar (ularning 3 tasi viloyatga bo'ysunuvchi maqomga ega) va shuncha shaharcha mavjud bo'lgan. Ularda jami aholining 31,1 foizi istiqomat qilgan. 2009-yilga kelib, mamlakatimizda yuz bergan urbanistik o'zgarishlar tufayli shaharchalar soni 25 ta, urbanizatsiya darajasi esa 43,2 foizga yetgan (2-ilovaga qarang). Mazkur yilda viloyatning 72,2 ming qishloq aholisi shahar aholisi ro'yxatiga kirdi. Bu xususda Oqoltin tumani oldinda (25,3 ming kishi), Sirdaryo va Sayxunobod tumanlarida ham yangi shaharchalar soni ko'proq.

Ayni paytda Xovos, Sardoba tumanlarida birorta qishloq aholi punkti bunday maqomga sazovor bo'lmagan. Ta'kidlash o'rinliki, yangi agrosaharlar soni Sirdaryo viloyatida uncha ko'p emas; bu borada u Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birgalikda (11 ta) mamlakatimizda oxirgi o'rinlarni egallagan. Ta'kidlanganidek, viloyatda birorta katta, ya'ni "yuz minglik" shahar yo'q va bu borada u respublikamiz geosiyosiy tizimida yagona hisoblanadi. Hatto viloyat markazi ham bu darajaga yetisha olmagan. Guliston shahrida 86,5 ming, Yangiyerda 39,9 ming, Xovos shaharchasida 27,7 ming aholi bor (10-jadval). Qolgan shahar joylarning har birida 20 mingdan oz aholi yashaydi.

Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy, madaniy markazi Guliston (1961-yilgacha Mirzacho'l) o'zining huquqiy mavqeyiga teng bo'lgan shaharlardan ancha orqada. Buning sababini, uning poytaxt Toshkent shahriga yaqinligi, sanoat tarmoqlarining kam turlanganligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasi sustligi va boshqa omillar bilan izohlash mumkin. Binobarin, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, demografik salohiyatini ko'tarishga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda bu shahar viloyat jami aholisining 10 foizdan ortiqrog'ini mujassamlaydi. Bu, boshqa viloyat markazlariga qaraganda, ancha past ko'rsatkich demakdir.

Sirdaryo viloyatining sanoati respublikaning boshqa hududlariga nisbatan kech rivojlangan. Shu bois, uning tarmoqlar va hududiy tarkibi ham mukammal ko'rinishga ega emas.

Sanoat mahsulot turlari ham uncha boy emas; viloyat sanoati asosan mintaqaning ixtisoslashgan tarmog'i – qishloq xo'jaligi, aniqrog'i, paxtachilik bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, qurilish materiallari va don mahsulotlari ishlab chiqarish (Yangiyer), paxta tozalash (qishloq tumanlari markazlarida), yog' ishlab chiqarish (Guliston shahri) kabilar aynan shu yetakchi tarmoq bilan birgalikda alohida ishlab chiqarish majmuasini shakllantiradi. Shirin shahridagi Sirdaryo IES respublikamizda eng yirik elektr stansiyasi hisoblanadi.

Sanoat geografiyasida Gulistonning hissasi 15,2 %, Yangiyer shahriniki 2,7 %. Viloyat sanoatining hududiy tashkil etilishida Guliston shahrini sanoat markazi sifatida ajratish mumkin. Shuningdek, Sir-

daryo, Yangiyer shaharlari ham xuddi shunday maqomga ega. Bu shaharlarda mintaqaning yirik sanoat korxonalari: yog‘- moy va qurilish materiallari korxonalari joylashgan. Aholi soni bo‘yicha kichik sanoat markazlari qatorida Shirin va Baxt shaharlari turadi. Yuqoridagilardan tashqari, Sirdaryo shahrida sut zavodi va qurilish materiallari korxonalari, tibbiyot sohalari uchun momiq-paxta, doka, bint, dori-darmonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham mavjud.

So‘nggi yillarda Sirdaryo tumani salohiyatining oshib borishi ham mazkur masalaning yechimini biroz yengillashtiradi. Yaqinda bu yerda Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda “PENG SHENG” QK faoliyatini boshladi. Poytaxtdan 70 km masofada industrial park ham tashkil etildi. 2013-yilda Prezident farmoni asosida «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasining shakllantirish munosabati bilan Sirdaryo industrial parki uning filialiga aylantirildi. Majmua keramik plitalar, natural teri va undan poyafzallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. U to‘la loyiha quvvatiga ega bo‘lgach, yiliga 100 mln. AQSH dollari miqdorida turli xil mahsulot ishlab chiqaradi, uning deyarli yarmi eksportga yo‘naltiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-maydagi Sirdaryo-farm» erkin iqtisodiy zonasining tashkil etishi to‘g‘risidagi qarori istiqbolda mintaqaning to‘liq siklga ega bo‘lgan hududiy ishlab chiqarish majmuasi shakllanishiga xizmat qiladi.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Mirzacho‘l mintaqasi shahar joylarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tushuntiring.*
- 2. Iqtisodiy rayondagi “eski”, “yangi” va “resurs” shaharlarga izoh bering.*
- 3. Rayon shaharlarining rivojlanishida «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasining ahamiyatini yoritng.*
- 4. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanish muammolari va istiqbollarini tahlil qiling.*

## Farg‘ona mintaqasi shaharlari

1. *Andijon viloyati shaharlari tarkibi va tavsifi.*
2. *Farg‘ona viloyati shaharlarining shakllanish omillari va funksiyalari.*
3. *Namangan viloyatining urbanistik tarkibi va shaharlar rivojlanishi.*

Aholi joylashuvining qadimiy va zich rayonlaridan biri Farg‘ona vodiysi uch tomondan Pomir-Oloy, Tyan Shan va Farg‘ona tizmalari bilan o‘ralgan. Mintaqaning ichki tabiiy-iqtisodiy jihatdan yaxlitligi, sersuv daryo va soylari, mineral resurslari va ishlab chiqarish kuchlarining mujassamlashuvi ko‘plab aholi manzilgohlarining to‘planishiga asos bo‘lgan.

Maydoni uncha katta bo‘lmagan vodiya (hududi respublika maydonining atigi 4 foizini tashkil qiladi) mamlakat iqtisodiy-demografik salohiyatining 28,5 va shahar manzilgohlarining 35,1 foizi mujassamlangan. Demak, bu yerda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy zichlik respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan 7,5 marta ziyod.

Mintaqa hozirda O‘zbekiston shahar aholisining 32,5 foizini mujassamlashtirgan holda (jami aholining 28,5 foizi), uning 16,7 foiz yalpi ichki mahsulotini ta‘minlaydi.

Shahar aholi manzilgohlari sonining eng ko‘p miqdori mazkur (423 ta) hududga tegishli. Mintaqaning shaharlar pramidasi mukammal shakllangan. Binobarin, Farg‘ona viloyatining hududiy urbanistik tarkibida uchta katta shaharlar mavjud.

Farg‘ona mintaqasi shahar manzilgohlarining zichligi bo‘yicha bir-biridan keskin farq qilmaydi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanish va mujassamlashuv darajasi yuqori; xo‘jaligi intensiv yo‘nalishga ega, ishlab chiqarish kuchlari yaxshi hududiy tashkil qilingan Farg‘ona viloyatida har ming km<sup>2</sup> ga 30,4 ta, hududi kichik Andijonda 20,6 ta, Namanganda 17,2 ta shahar manzilgohlari joylashgan.

Rayon O‘zbekiston Respublikasi sanoatini 18,6%, qishloq xo‘jalik mahsulotining 26,4 % ini ta‘minlaydi; pullik xizmatlarda uning ulushi 16,5%, chakana savdoda 22,3%, tashqi savdo aylanmasida – 16 % ga teng.



## Andijon viloyati shaharlari tarkibi va tavsifi

Demografik sig'imi yuqori *Andijon viloyati* mamlakatimizning eng chekka sharqida, transchegaraviy hududda joylashgan. Mintaqa respublika hududiy mehnat taqsimotida avtomobilsozlik, yengil sanoat tarmoqlari, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan. 2017-yilda u 5,8 foiz respublika yalpi ichki mahsuloti, 9,2 foiz sanoat va 10,7 foiz qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlagan.

1959-yilgi aholi ro'yxatiga binoan, viloyatda 3 ta shahar (Andijon, Namangan, Leninsk) va 1 ta shahar tipidagi posyolka (Moskovskiy) mavjud bo'lgan<sup>21</sup>. Bu vaqtda jami shahar aholisi 173,9 ming kishini tashkil etgan (urbanizatsiya darajasi 22,6 %). 1970-yilga kelib, mintaqa aholisining 24,5 foizini shaharliklar tashkil etgan. Bu davrda respublika urbanizatsiya darajasi 37 foizga teng bo'lgan, ya'ni Andijonga nisbatan 12,5 foizga yuqori bo'lgan. Ikki aholi ro'yxati oralig'ida hudud shahar aholisi 80,8 ming kishiga ko'payib, 254,7 ming kishiga yetdi (*11-jadval*). Aholining yillik ko'payish sur'ati esa oldingi davrga (1959–1970-yy.) nisbatan 4,8 foizga ortdi. 2008–2013-yillarda esa, mintaqada 50 dan ortiq shahar manzilgohlari paydo bo'ldi.

### *11-jadval*

#### Andijon viloyati aholisining tadrijiy o'zgarishi

Yillar	1939-y.	1959-y.	1970-y.	2008-y.	2013-y.	2017-y.
Jami aholi	994.7	1162.9	1059.1	2451.2	2756.4	2962.5
Shahar aholisi	176.0	297.3	254.7	716.9	1453.9	1551.7
Qishloq aholisi	818.6	865.5	804.4	1734.3	1302.5	1410.8

*Mamba: Aholi ro'yxati va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.*

2009-yilgacha viloyatda 11 ta shahar va 5 ta shaharchada jami aholining 29,1 foizi istiqomat qilgan. Urbanizatsiya jarayonining bunday demografik ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan (35,8 %) bir-muncha past bo'lgan.

<sup>21</sup> Namangan shahri o'sha vaqtda Andijon viloyati tarkibida bo'lgan.

2009-yilga kelib, urbanistik tarkib asosan kichik shaharlar hisobiga kengaydi va shaharlashuv 52,5 foizga ortdi. Shahar aholisining salmog'iga ko'ra, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridan keyingi 3-o'rinni egallab oldi. Binobarin, Namanganda urbanizatsiyaning eng yuqori ko'rsatkichi 64,7 %, Farg'onada 56,7 % yoki respublika darajasidan 14,2 va 6,2 punktga yuqori bo'lgan (2017-y.).

Yangi shaharchalarning eng ko'pi (17 ta) Andijon, Oltinko'1 (11 ta), Marhamat (9 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Jalalquduq va Xo'jaobodda 6 tadan, Ulug'nor va Qo'rg'ontepada bittadan agrosaharchalar tashkil etilgan.

Hozirgi vaqtda Andijonda 11 ta shahar va 78 ta shaharchalar mavjud bo'lib, ularning barchasida 1551,7 ming kishi yashaydi. Ulardan eng kattasi viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi Andijon bo'lib, unda 421,9 ming aholi istiqomat qiladi. Mintaqaning shaharlar tarkibi deyarli to'liq. Bu ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etish, mintaqa hududiy mujassamlashuv darajasining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Chunonchi, viloyat markazi Andijon – yirik, Shahrixon, Asaka – o'rta shaharlar guruhiga kiradi. Viloyat shaharlar ierarxiy pog'onasida katta shahar yo'q. Shahrixon tobora "yuzminglik" shaharlar ostonasiga yaqinlashib kelmoqda. Aholisi 20–50 ming kishi, ya'ni "yarim o'rta" shaharlar soni 13 ta bo'lib, shaharlar tizimining 14,6 foizini egallaydi.

Andijonda shahar tashkil etuvchi tarmoqlar tor ixtisoslashuvga ega. Asaka va Shahrixon sanoat markazlari sifatida, savdo va transport infratuzilmasining rivojlanishi asosida Qorasuv, Xonobod shaharlari vujudga keldi. Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Andijon kabi "resurs" shaharlarning shakllanishida tabiiy boyliklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Viloyatdagi mavjud shahar joylarning tashkil topishi va funksional xususiyatiga turli omillar ta'sir ko'rsatgan. Xususan, zamonaviy Andijon ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, fan va madaniyat markazi vazifasini bajaradi.

Qadimiy *Andijon* shahri (IX asr) azaldan demografik, madaniy va ma'muriy salohiyati, qulay transport-geografik o'rni, savdo va hunarmandchilik markazi sanalgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida shahar Farg'ona vodiysining iqtisodiy va siyosiy poytaxti funksiyasini bajar-

gan. Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur mazkur shaharga “Movarounnahrda Samarqand va Keshdan keyin Andijondan kattaroq istehkom yo‘q”, deya ta‘rif bergan.

Andijondan Toshkent, O‘sh, Jalolobod, Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona va boshqa manzillarga o‘tgan temir va magistral yo‘llar ham mintaqa shaharlarining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o‘ynadi. Uning hissasiga viloyatdagi jami shaharliklarning 27,3 foizi, iqtisodiy rayonning 8 foizi to‘g‘ri keladi. Ayni paytda shahar viloyat yalpi sanoat mahsulotining 16,1, Asaka 65,8 foizini, demak, bu ikki shahar uning 4/5 qismidan ko‘prog‘ini ta‘minlaydi.

O‘shish qutb va markazi hisoblangan – *Asaka* shahridan (1937–1991-yillarda Leninsk) poytaxtga o‘tgan temir yo‘l (1899-y.) va avtomobil trakti uni muhim transport tuguniga aylantirdi. Shahar viloyat markaziga yaqin masofada Shahrixonsoy sohilida, dengiz sathidan 495 m balandlikda qad rostlagan.

XVIII asr oxirida qurilgan Shahrixonsoy kanali shaharning sanoatlashuvida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shundan so‘ng paxta tozalash va yog‘ zavodi, motor ta‘mirlash zavodi, issiqlik elektr markazi korxonalari qurib ishga tushirildi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda shahar yaqinidagi Andijon va Polvontosh neft konlari, Xo‘jaobod gaz koni ochilishi bilan ishlab chiqarish kuchlarining salmog‘i ortdi. 1960-yildan sanoat korxonalari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslasha boshladi.

Mustaqillik yillarida sanoat markazining tarmoqlar tarkibi yanada turlandi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining eng yirik korxonasi, “GM Ozbekiston” QK tarmoqning 92,3 foiz mahsulotini ta‘minlaydi. Shuningdek, bu yerda “O‘zKodji”, “O‘zTong Xong KO”, “O‘z Sem Yung Ko”, “O‘z Dong Vong Ko” qo‘shma korxonalari mavjud. Asaka hozirgi kunda shu nomdagi tumanining ma‘muriy markazi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Zamonaviy urbanizatsiyaning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri shaharlarning hududiy tizimlari (aglomeratsiyalar) bosh shahar – Andijon negizida shakllanmoqda. Andijon aglomeratsiyasi mamlakatimizning barcha aglomeratsiyalari singari “shahar-qishloq” aglomeratsiyasidir. Aglomeratsiya yo‘ldosh shaharlari orasida Asaka, Shahrixon, Marhamat, Xo‘jaobod, Poytug‘ kabi

manzilgohlar ajralib turadi. Umuman olganda, monotsentrik aglomeratsiya chegarasi mintaqa turli tipdagi aholi manzilgohlarining deyarli barchasini qamrab olgan. (20 dan ortiq shaharlar va QFYlar). Ayni paytda aglomeratsiyaning barcha shaharlari viloyat yoki tuman markazlari sifatida turli shahar hosil qiluvchi omillar ta'sirida rivojlanmoqda.

### *Farg'ona viloyati shaharlarining shakllanish omillari va funksiyalari*

Farg'ona viloyati shaharlar to'ri va hududiy tizimini vujudga kelishida gidrografik to'r, tabiiy resurslar, iqtisodiy geografik o'rin, mehnat va infratuzilma salohiyati kabi omillarning ta'siri kuchli. Viloyatdagi shaharlarning ayrimlari qadimdan aholi zich joylashgan qishloqlar o'rnida paydo bo'lgan. Farg'ona mintaqasi shaharlar to'riining kengayishi sobiq Ittifoqning dastlabki yillaridan boshlangan bo'lsa, so'nggi 1989-yilgi aholi ro'yxatidan keyin Muqimiy qishloq aholi punkti shahar tipidagi posyolka maqomini oldi, xolos.

Mintaqa shaharlari turli tarixiy davrlarda tashkil topgan bo'lsa-da, ularni rivojlantirish hamisha davlat boshqaruvi diqqat markazida bo'lgan. Chunonchi, foydali qazilma konlari va strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar negizida shaharlarni shakllantirish yoki Ikkinchi jahon urushi davrida sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlaridan zavod, fabrikalarni ushbu hududga joylashtirilishi maqsadli dasturlar doirasida amalga oshirilgan.

Farg'ona viloyati aholi manzilgohlarining shakllanishida birlamchi omil gidrografik to'r, xususan, Oloy tog'laridan oqib tushadigan daryolar (So'x, Isfara) konussimon deltalari xizmat qiladi. Binobarin, So'x daryosi Qo'qonga, Shohimardonsoy Marg'ilonga hayot bag'ishlagan. Mazkur konussimon yoyilmalarda boshqa hududlarda uchramaydigan aholi joylashuvining o'ziga xos shaklini ko'rish mumkin. Masalan, azaldan aholi manzilgohlari nihoyatda zich joylashgan So'x deltasi endilikda o'ziga xos hududiy majmuani hosil qilgan. Shuningdek, Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona va Katta Andijon kanallari, ko'plab irrigatsiya shaxobchalari hamda yo'llar

bir-biriga tutashgan aholi punktlarini shakllantirgan. Demak, bundan ko‘rinadiki, shaharlarning katta-kichikligi bilan ularning suv resurslari hajmi o‘rtasida qonuniy aloqadorlik mavjud.

Shaharlar to‘rining asosi – “sinch”lari sifatida g‘arbda Qo‘qon va sharqda Farg‘ona-Marg‘ilon yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, Qo‘qon shahri shakllanishining o‘ziga xos xususiyati, birinchidan, So‘x daryosining qadimiy konus yoyilmasi bo‘lsa, ikkinchidan, vodiyning kengaygan kirish qismida joylashganligi bilan izohlanadi. Ta‘kidlanganidek, So‘x yoyilmasida aholi manzilgohlari nihoyatda zich joylashgan va bu o‘ziga xos hududiy majmuani tashkil etadi. Shuningdek, mazkur daryo yotqiziqlari shaharga yaqin joyda qurilish materiallari sanoati uchun zarur bo‘lgan xom ashyo bilan ta‘minlaydi. Viloyatda aholi joylashuv tizimi politsentrik, ya‘ni asosan ikki markaz – qadimiy Qo‘qon va Farg‘onada mujassamlangan. Ayni vaziyat ishlab chiqarishning markazlashuvi va shahar manzilgohlarining murakkab tizimi yoki majmuasi – aglomeratsiyalarni vujudga keltiradi.

Qadimiy *Qo‘qon* “ipak yo‘lida” Yevropa, Rossiyadan, Hind va Xitoyga “o‘tish” yo‘lida “savdo shahri” sifatida ham rivojlanib borgan. Manbalarga qaraganda, Qo‘qon haqidagi dastlabki ma‘lumotlar X asrlarga to‘g‘ri keladi. Arab sayyohi va geografi Istaxri va Ibn-Xauqol qo‘lyozmalarida shaharni “Ho‘qand” yoki “Xavokand”, ya‘ni “go‘zal shamol shahri” deya tasvirlaydi. Venger sayyohi H.Vamberi Qo‘qon etimologiyasi haqida “Xobkent” go‘zal vodiydagi joy so‘zidan kelib chiqqan, deya ta‘rif bergan.

Dastlab shahar vodiyning g‘arbiy qismi uchun muhim savdo-transport, harbiy-strategik va ma‘muriy funksiyalarga ixtisoslashgan. Kaspiyorti (1898-y.) va Orenburg-Toshkent (1906-y.) temir yo‘lining qurilishi uni transport tuguniga aylantirdi. Transport va iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi, Qo‘qon vohasi va qishloq xo‘jalik rayonlari markazida joylashganligi uning sanoat ixtisoslashuvini belgilab berdi. Hozirda mazkur yirik shahar negizida Qo‘qon aglomeratsiyasi shakllanmoqda. G‘arbiy Farg‘onada markaziy o‘rin tutuvchi ushbu shahardan janubda Yaypan, g‘arbda Beshariq, sharqda Uchko‘prik va shimolda Dang‘ara kabi yo‘ldosh shaharlarning vujudga kelishiga “aglomeratsiya yadrosi” asos bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mintaqaga o'nga yaqin sanoat korxonalarining ko'chirib kelinishi, keyinchalik yangi konlarni ishga tushirilishi, Markaziy Farg'ona hududining o'zlashtirilishi shaharlashuv va sanoatlashuv darajasining birmuncha kuchaytirdi.

1959–1970-yillarda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi yanada tezlashdi; yirik korxonalar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy infrastruktura ob'ektlari barpo etila boshladi. 1970-yilga kelib, Farg'ona “katta shahar”, Quva shaharcha mavqeyiga ega bo'ldi.

2017-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra, viloyatning 206 ta shahar manzilgohlarida 2022,8 kishi istiqomat qiladi. 2009-yil 13-martda “O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroridan so'ng viloyatdagi 196 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Bu respublikada yangi tashkil etilgan qishloq shaharlarining 40 foizga yaqini demakdir.

Shaharlar tizimining murakkablashuvi, ularning ierarxiyasini (pog'onasi) aniqlash, shaharlar o'rtasidagi vazifalarning (funktsiyalarni) taqsimlanishiga ham olib keladi. Hudud urbanizatsiyasining o'ziga xos jihati shaharlar zanjirida kichik shaharlar sonining ko'pligi bilan izohlanadi (197 ta). Viloyatda shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanish va mujassamlashuv darajasi nisbatan yuqori. Binobarin, har ming km<sup>2</sup> ga 30,4 ta shahar manzilgohlari mos keladi.

Farg'ona viloyati shaharlarining hududiy urbanistik tarkibi, ya'ni katta shaharlar bilan ta'minlanganlik holati yaxshi; hozirda Quvasoy “katta”, Rishton “o'rta”, ya'ni “ellikminglik” shaharlarga tobora yaqinlashmoqda.

Mustaqillik yillarida Qo'qon va Farg'ona shaharlari sanoati tarmoq tarkibida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'lgan: yoqilg'i-energetika sanoatining ulushi ortgan, yengil sanoat ham ustuvor rivojlanib borgan. Shu bilan birga, shahar uchun an'anaviy sanoat tarmoqlaridan biri – to'qimachilik sanoatining ahamiyati pasaygan.

Farg'ona-Marg'ilon va Qo'qon sanoat tugunlari mintaqa sanoatini hududiy tashkil etishda yetakchi o'ringa ega. Farg'ona viloyati hozirgi vaqtda o'zining sanoat ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha respublikamizda oltinchi (Toshkent shahri va viloyati, Andijon, Navoiy, Qashqadaryo) o'rinda turadi (2016-yilda – 7,2 %). O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda “Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilishi to‘g‘risida”gi Farmoni asnosida mintaqada yangi sanoat tarmoqlari va yangi zamonaviy ishlab chiqarish majmualarini tashkil etilishi ko‘zda tutiladi.

Ma‘lumki, shaharlarning funksional tiplari ularning geografik mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini, umumiy shaharlar tizimidagi xususiyatini aks ettiradi. Agar mamlakat yoki mintaqada shaharlarning funksional tiplari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, demak, bu hudud yaxshi o‘zlashtirilgan va rivojlangan bo‘ladi. Viloyat shaharlarining bajara-digan vazifasi, ixtisoslashuvida quyidagi tiplari shakllangan:

- ko‘p funksiyali viloyat markazlari (Farg‘ona);
- ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari (Qo‘qon, Marg‘ilon);
- bir yoki ikki sanoat tarmog‘iga ixtisoslashgan shaharlar (Quvasoy, Tinchlik (Hamza), Quva);
- tuman markazlari va agro-industrial shaharlar (Bog‘dod, Beshariq, Dang‘ara, Toshloq, Yaypan, Yozyovon, Oltiariq, Rishton);
- “resurs” shaharlar (Chimyon, Sho‘rsuv).

**Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi.** Shaharlarning tez o‘sishi, xususan, aholisining tez ortib borishi, ular hududining qo‘shilib ketishi, shaharlarning murakkab hududiy tizimlarini vujudga keltiradi. Politsentrik Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi tarkibida 6 ta shahar (Quvasoy, Tinchlik, Farg‘ona, Marg‘ilon, Rishton), 5 ta shaharcha (Do‘stlik, Oltiariq, Yangi Marg‘ilon, Chimyon, Toshloq) va qator qishloqlar bo‘lib, bu yerda mintaqaning 30 foizdan ko‘proq aholisi istiqomat qiladi.

### **Namangan viloyatining urbanistik tarkibi va shaharlar rivojlanishi**

Mamlakat shahrlar geografiyasida Namangan viloyati o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Mintaqa Farg‘ona vodiysining chekka shimolida, iqtisodiy rayonning Toshkent bilan tutash qismida joylashgan.

Ma‘lumki, qadimda daryolarning quyilish qismida yoki delta-sida suv miqdoriga mos holda shaharlar paydo bo‘lgan, ko‘pgina soylar o‘zlarining shaharlari, vohalari bilan ajralib turgan. Darhaqiqat, viloyat shahar manzilgohlari va aholi joylashuvida Chortoqsoy, Namangansoy, Kosonsoy hamda Katta Namangan, Shimoliy

Farg'ona, Katta Farg'ona kanallari nihoyatda ahamiyatli. Shuningdek, viloyat shahar hosil qiluvchi omillardan tabiiy resurslar (polimetall va qimmatbaxo metallar neft, qurilish materiallari, shifobaxsh suvlar)ga boyligi bilan qo'shni Andijon va Fargona viloyatlaridan ajralib turadi.

Mintaqa xo'jaligining tarkibi, ixtisoslashuvi, shaharlar to'ri va tizimida o'z aksini topadi. Tahlil etilayotgan hudud shaharlashuv darajasi respublika ko'rsatkichidan biroz yuqoriroq. Vaholanki, sanoatlashuv va urbanizatsiyalashuv ko'rsatkichi bir-biriga unchalik mos kelmaydi.

2017-yil ma'lumotlariga ko'ra Namangan O'zbekistonda eng yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqadir (urbanizatsiya darajasi 64,7 foiz). Mazkur yilda hududda jami 128 ta shahar aholi manzilgohi bo'lgan va ularda 1,7 mln. dan ortiq aholi yashagan. Ularning 124 tasi kichik, 3 tasi o'rta, 1 ta yirik shaharlardan iborat bo'lgan.

Viloyatning urbanistik tarkibida bitta katta shahar – Namangan bor, xolos. Viloyat markazida 2017-yil boshida 590,2 ming aholi bo'lgan. Viloyatning “ikkinchi” shahri Chustda 71,6 ming atrofida, Chortoqda 55 ming, Kosonsoyda 52,5 ming aholi istiqomat qiladi. “Yarim o'rta” shaharlar guruhi Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on da 20,0–50,0 ming kishi atrofida. Qolgan shahar va shaharchalarning aholisi kichik shaharlar sinfiga mansub. Ko'rinib turibdiki, Namangan viloyati shaharlar guruhida kichik va o'rta shaharlar ko'proq rivojlangan.

*Kosonsoy* shahri viloyatning chekka shimoli-g'arbiy qismida Kosonsoy daryosi bo'yida vujudga kelgan. Shahar aholi zich joylashgan hududda shakllangan bo'lib, qadimda Fargona vodiysida harbiy-siyosiy markaz vazifasini ham bajargan. U 1934-yilda shahar posyolkasi sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, uning keyingi taraqqiyotini nazarda tutib, 1973-yilda shahar maqomi berildi. Hozirda shaharda bir nechta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar ishlab turibdi. Chortoq shahrining etimologiyasi to'rt tomoni tog'likdan iborat degan ma'noni anglatadi. Mazkur hududdan shifobaxsh mineral suvning ochilishi bilan shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yanada tezlashdi. 1976-yilda unga tumanga bo'ysinuvchi shahar maqomi berildi. Sirdaryoning o'ng sohilida tog' oldi zonasida



joylashgan Pop azaldan Fargona vodiysidagi eng yirik aholi manzilgohlaridan biri sanalgan. Shahar hududidan respublikamizning mintaqalarini bog'lab turuvchi Angren-Pop temir yo'li va avtomobil yo'llarining kesib o'tganligi uning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda Pop shahri sanoat korxonalari tarkibida o'zining yalpi sanoat mahsuloti bo'yicha yengil va oziq-ovqat tarmoqlari yetakchi o'rinda turadi.

Viloyat markazi Namanganning qulay iqtisodiy geografik o'rni, Sirdaryo sohilida joylashganligi, uning tez rivojlanishiga, mintaqaning eng yirik markazlaridan biriga aylanishiga olib keldi. 1910-yilda Namangan rasman shahar maqomini oldi va mintaqaning yengil sanoat markazi sifatida rivojlanib bordi. Uning atrofida Chust, Oqtosh, Chortoq, Uchqo'rg'on kabi yo'ldosh shahar va qishloqlar shakllana boshladi.

Aytish joizki, Namangan shaxri aholisi respublikaning boshqa viloyat markazlariga qaraganda tezlik bilan ortib bormoqda. Shaharning bunday «tezligi» tabiiy ko'payish va qisman shahar hududining kengayishi hisobiga ro'y bermoqda. Umuman olganda mintaqa shaharlari aholisining o'sishida eng avvalo hududdagi tug'ilish va tabiiy ko'payish jarayonlari muhim rol o'ynaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, viloyat markazi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi jihatdan ikkinchi bosqich shaharlaridan ancha ilgari ketgan. Bunda eng avvalo Chust shahri iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Uchqo'rg'on kabi shaharlarni o'sish qutblari sifatida rivojlanishiga katta urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Mintaqa shaharlarining vujudga kelish bosqichlarini asoslab bering.*
- 2. Andijon viloyati shaharlarini genetik va funksional tiplarga ajrating.*
- 3. Farg'ona viloyati shaharlar zanjirini Sipfa-Styuart klassifikatsiyasi bo'yicha tasniflang va "oraliq masofa"ni aniqlang.*
- 4. Viloyat markazlarining ma'muriy-boshqaruv funksiyalarini tahlil qiling.*

## Zarafshon mintaqasi shaharlari

1. *Navoiy viloyati shaharlari to'ri va tarkibi.*
2. *Buxoro viloyati shaharlari geografiyasi.*
3. *Samarqand viloyati shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi.*

Iqtisodiy rayon mamlakatimizning qoq markazida, Zarafshon daryosining o'rta va quyi qismida shakllangan xo'jalikning hududiy tizimini o'z ichiga olgan; mintaqaning Mirzacho'l, Quyi Amudaryo hamda Janubiy iqtisodiy rayonlar bilan tutashganligi, qulay iqtisodiy geografik o'rni, shaharlar to'ri va tizimining shakllanishiga ta'sir etgan. Hudud shaharlarining umumiy soni jihatidan faqat Farg'ona va Janubiy rayonlarga yon bosadi (jami 232 ta shahar va shaharchalar). Shundan, 2 ta yirik, 1 ta katta, 4 ta o'rta va 225 ta kichik shaharlarga ega.

Rayonning umumiy maydoni 168,1 ming km<sup>2</sup> bo'lib, u mamlakat hududining 37,4 foizini tashkil qiladi. Bu jihatdan Zarafshon iqtisodiy rayoni O'zbekistonda faqat Quyi Amudaryo rayonidan kichikroq, xolos. Aholisi 5,0 mln. yoki respublika umumiy aholisining deyarli 1/5 qismiga barobar. Mintaqaning urbanistik salohiyati nisbatan yuqori. Urbanizatsiya darajasi 41,9 foizni tashkil etadi. Respublika jami shahar aholisining 15,6 foizi mazkur rayonga to'g'ri keladi.

Mintaqa shaharlari shakllanish tarixi, katta-kichikligi va bajaradigan funksiyasiga ko'ra, o'ziga xos xususiyatga ega. Binobarin, mintaqaning ayrim shaharlari mamlakatimiz qadimgi davlatchiligining shakllanish va rivojlanish markazlari bo'lsa, ba'zilar o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'lgan "yangi" shaharlar sirasiga kiradi.

Buxoro va Navoiy viloyati shahar manzilgohlari joylashuvida keskin farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Mazkur mintaqaning cho'llik xususiyatiga xos holda shaharlar to'ri va tizimida, aholi joylashuvi hamda ixtisoslashuvida o'ziga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Samarqand viloyati shaharlarining aynan karvon yo'llari kesishgan Buyuk Ipak yo'lida, madaniyat va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashuvi, mikro va mezogeografik o'rning qulayligi shaharlar geografiyasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

## Navoiy viloyati shaharlari to'ri va tarkibi

Navoiy viloyatining tabiiy sharoiti asosan cho'ldan iborat ekanligi ishlab chiqarish kuchlari hamda aholining joylashuv xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Viloyat iqtisodiyoti industrial-agrar yo'nalishga ega bo'lib, respublika hududiy mehnat taqsimotida asosan tog'-kon sanoati, xususan rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati hamda qishloq xo'jaligida go'sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashgan. Yalpi hududiy mahsulotning 46,5 foizini sanoat, 6,9 foizini qurilish, 14,0 foizini qishloq xo'jaligi, 7,9 foizini transport va aloqa beradi (2016-y.).

Darhaqiqat, hudud iqtisodiyoti mamlakatimiz uchun eng muhim va noyob "strategik" ahamiyatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan. Bu yerda oltin va fosforitning asosiy qismi olinadi; milliy iqtisodiyot uchun eng zarur bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot", "Qizilqumsement", "Navoiy issiqlik elektr stansiyasi" aksiyadorlik jamiyati va "Elektrkimyo-zavodi" qo'shma korxonasi kabi yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Sanoatining hududiy tarkibida, eng avvalo Navoiy va Zarafshon shaharlari ajralib turadi. Jumladan, Navoiy shahriga jami viloyat sanoat mahsulotining 51,0 foizi va Zarafshonga 40,0 foizi to'g'ri keladi. Qolgan hududlar ichida sanoat biroz Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida rivojlangan, Tomdi va Uchquduq qishloq joylarida esa ishlab chiqarishning mujassamlashuvi ancha past.


Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizdagi eng navqiron viloyat Navoiyning tabiiy sharoitiga mos ravishda o'tgan asrning 70-yillarigacha shahar manzilgohlari deyarli shakllanmagan. (1939-yilda respublikada 47 ta, 1959-yilda 101 ta shahar manzilgohi). Hudud dastlabki shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida ishlab chiqarish kuchlari va yirik qishloqlarni shaharchalarga aylantirilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mintaqada shaharlar soni kam va ular tarqoq holatda joylashgan. Bu viloyat shaharlar geografiyasidagi o'ziga xos jihatlardan biri sanaladi.

Mintaqada 6 ta shahar (Navoiy, Zarafshon, Nurota, Uchquduq, Yangirabot, Qiziltepa) va 47 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularning barchasida jami aholining 49,0 foizi yashaydi. Umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichining yuqoriligi, bir tomondan, hudud sanoatining nisbatan yaxshi rivojlanganligi bilan izohlansa, ikkinchidan, intensiv qishloq xo'jaligi uchun imkoniyat cheklanganligi bilan bog'liq. Umumiy urbanizatsiya darajasi 2008-yilda 39,5 foiz bo'lgan, uning 10 foizdan ko'proqqa ortishi esa 2009-yildagi urbanistik o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan. Agar viloyat bu ko'rsatkich bo'yicha (40,4 foiz) 2000-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi o'rinda turgan bo'lsa, u hozirda mamalakat o'rtacha ko'rsatkichidan biroz pastroqda.

Aytish joizki, 2009-yildagi urbanistik o'zgarishlardan so'ng hududda urbanizatsiya darajasi 49 foizdan ortib ketdi va shunga mos ravishda shaharchalar salmog'i ham yana 30 taga ko'paydi. Respublika shaharlar tizimidagi ketma-ketligida viloyat Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi o'ringa chiqib oldi.

Tahlillardan ko'rinadiki, viloyat hududida shaharlar ierarxiyasi bir me'yorda rivojlanmagan. Eng ko'p shaharlar pog'onasini aholisi 10 ming kishigacha bo'lgan kichik shaharlar tashkil etib, ularda jami shahar aholisining 29,4 foizi istiqomat qiladi. Bu guruhga respublikada 946 ta, Navoiyda esa 45 ta shahar manzilgohlari kirib, ular jami shahar manzilgohlari sonining mos holda, 78,8 va 84,9 foizini tashkil etadi (2017-y.). Viloyatda "yarim o'rta" shaharlar uchtani tashkil etsa, o'rta va katta shaharlar atigi bittaga to'g'ri keladi.


Navoiy viloyati agrosaharlari tumanlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Jami 30 ta yangi shaharchada 85,7 ming kishi istiqomat qiladi va bu jami shahar aholisining 20,2 foiziga teng keladi (2016-yil). Tumanlar kesimida Qiziltepa (8 ta) va Navbahorda (6 ta) eng ko'p yangi shaharcha tashkil etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda (Uchquduq) aholi joylashuviga mos ravishda bunday manzilgohlar qayd etilmagan (7-rasm).



*7-rasm. Zarafshon mintaqasi yangi shaharchalari.*

2017-yil ma'lumotlariga binoan, Navoiy viloyatida 460,9 ming kishi shahar joylarda istiqomat qilgan. Ma'lumotlar tahliliga ko'ra mintaqa shahar aholisining oldingi yillardagi miqdori quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida): 1991-y. 280,7; 2001-y. 319,1; 2005-y. 321,6; 2009-y. 412,9; 2015-y. 448,5 va 2017-y. 460,9 ming kishi. Shahar aholisining o'sish sur'ati ayniqsa, 2007–2009-yillarda nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etgan (8-rasm).

Hozirgi kunda shahar joylarda yashovchilarning nisbiy miqdori bo'yicha Qiziltepa, Nurota va Xatirchi tumanlari oldinda turadi, uning eng past darajasi esa Tomdi tumanida kuzatiladi.



**8-rasm. Navoiy viloyati shahar aholisining o'lishi.**

Shaharlarning tarixiy shakllanishi savdo-sotiq, tovar ayriboshlash va hunarmandchilik bilan uzviy bog'langan bolsa, keyinchalik ularning o'rnini asta-sekinlik bilan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va turlanishi, xususan sanoat va transport egallagan.

Navoiy hududida dastlab rangli metal, kimyoviy xom ashyo, qurilish materiallari kabi tabiiy boyliklarni o'zlashtirish asosida "resurs" shaharlar paydo bo'lgan.

Resurs shahar Zarafshon 1967-yilda Qizilqumdagi oltin koni karyerlarning ishga tushirilishi munosabati bilan bunyod etilgan bo'lsa, Uchquduq shahri yirik uran konlari asosida vujudga kelgan. Toshkent-Uchquduq temir yo'li va unga parallel avtomobil yo'llari tarmog'i har ikki shaharning transport geografik o'rni va iqtisodiy rivojlanishiga sharoit yaratdi.

1975-yilga kelib marmar koni va qurilish materiallari negizida viloyatning janubiy qismida yana bir «resurs» shahar G'ozg'on tashkil topdi.

Mintaqaning Zarafshon, Uchquduq, G'ozg'on, Shalqar, Muruntov, Langar kabi "resurs" shaharlarining shakllanishida shahar hosil qiluvchi omil sifatida tabiiy resurslardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining ketma-ket uzviy bog'liqlikda rivojlanishga sabab bo'lgan. Uchquduq, Zarafshon, Shalqar, Muruntov shaharlari hududning cho'l qismida tarqoq holatda joylashsa, aksariyat shahar manzilgohlari uning janubiy qismida mujassamlangan.

Ta'kidlash joizki, 1979-yillarida viloyatning janubiy qismi shahar joylari qatoriga Qiziltepa qo'shildi. Qiziltepa shahri viloyat tashkil etilguniga qadar Buxoro viloyati tarkibida bo'lgan. Shahar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash, hunarmandchilik, qurilish materiallari sanoati ustuvor ahamiyatga ega.

Qadimdan aholisi zich bo'lgan Karmana shahrining shakllanishida karvon yo'llari, xususan, «Buyuk ipak yo'li»ning ahamiyati katta bo'lgan. Shaharning keyingi iqtisodiy rivojlanishida viloyat markaziga yaqinligi, respublikaning g'arbiy hududlarini bog'lab turuvchi Navoiy-Uchquduq-Miskin-Sultonuvays temir yo'li ijobiy rol o'ynaydi. Ayni paytda Karmana shahri sanoat korxonalari tarkibida o'zining yalpi mahsuloti bo'yicha engil va oziq-ovqat sanoati yetakchi o'rinda turadi. Sanoat korxonalaridan paxta tozalash, sut mahsulotlarini qayta ishlash, un va un mahsulotlari, konditer, g'isht zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Qadim Nurota, Qiziltepa, Karmana va Navoiy shaharlarining shakllanishida bevosita karvon yo'llari, transport omilining ahamiyati katta bo'lgan. Qadimda yirik istehkom, savdo, hunarmandchilik markazi sanalgan Nurota shahrining iqtisodiy taraqqiyotida yengil, oziq-ovqat sanoati, tog'-kon va qurilish materiallari sanoati jadal rivojlanib bormoqda. Bunda shaharning G'ozg'on marmar koniga yaqinligi ham muhim ro'l o'ynagan. Hozirda kon yaqinida marmarga ishlov beruvchi kombinat ham mavjud.

Navoiy shahri viloyat tashkil etilishidan oldin O'zbekistondagi mavjud tipik industrial shaharlardan biri edi. Ayni paytda bu yerda

yirik issiqlik elektr stansiyasi, azot o'g'iti va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, sement zavodlari, tog'-kon metallurgiya kombinati joylashgan.

Navoiy shahri borgan sari yirik sanoat tuguni va respublikamizning o'sish qutbiga aylanmoqda. Shahar aeroporti negizida mamlakatimizda ilk bor erkin iqtisodiy-industrial zona va xalqaro transport logistika markazi yaratildi. Bunda Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilindi, juda katta terminal yaratildi. Bu mintaqa shaharlarning sifatli taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaharning u yoki bu tarmoq yoxud ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi uni istiqbol rivojlanishini belgilashda, shuningdek, o'sish markazlarini aniqlash hamda unga qo'shni hududlarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi (Yanchuk S.L., 2002). Navoiy viloyatida tor ixtisoslashgan aholi manzilgohlaridan tortib, ko'p funksiyali yirik shahargacha mavjud. Umuman olganda, shaharlarning bajaradigan funksiyasi ularning ixtisoslashuviga asoslanadi.

Navoiy viloyati shaharlarini funksional tipologiya doirasida ko'radigan bo'lsak, eng ko'p qatorni tuman markazlari tashkil etadi. Viloyatdagi 53 ta shahar manzilgohining 8 tasini, ya'ni 15,0 foizi tuman markazlaridan iborat. Bunday shaharlarning aksariyatida agro-industrial yo'nalish ustunlik qiladi. Aytish joizki, shaharlarning bajaradigan funksiyasi ularning katta-kichikligini ham belgilab beradi, bu shaharlar geografiasidagi muhim qonuniyatlardan biridir. Shu bilan birga, shaharlarni rivojlantirishning milliy va mintaqaviy siyosati mavjud bo'lib, u har bir hududning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik sharoiti, ekologik vaziyati asosida amalga oshiriladi. Mintaqa aholisining bir yoki ikki shaharda haddan ortiq markazlashuvi o'ta yirik shaharni vujudga keltirib, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarning keskinlashuviga sabab bo'ladi. Ayni paytda, aholining katta qismini kichik shaharlarda taqsimlanishi ham ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan samara bermaydi.

Shunday qilib, tahlillar natijasi Navoiy viloyati shaharlarining rivojlanishida ijobiy va salbiy holatlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shaharlar va umuman viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy



ta'sir etuvchi omillarga mintaqaning kesuvchanligi, sanoat salohiyatining yuksakligi, turli xil tabiiy boyliklar (qazilma konlar) mavjudligi, malakali ishchi kadrlarning borligi kiradi.

Salbiy holatlar esa shaharlarning asosan og'ir sanoat tarmoqlariga ixtisoslashganligi, bir tomonlama rivojlangan "resurs" shahar va shaharchalarining ko'pligi, qishloq tuman markazlari iqtisodiy salohiyatining zaifligi, Navoiy shahri va uning atrofi geoekologik muammolarning keskinligi kabilardan iborat. Demak, viloyat shaharlarining istiqboldagi rivojlanishi salbiy holatlar va muammolarni bartaraf qilish va mavjud qulay imkoniyatlardan unumli foydalanish asosida olib boriladi.

### **Buxoro viloyati shaharlar geografiyasi**

Buxoro ma'muriy jihatdan 11 ta shahar, 69 ta shaharchalarni o'z tarkibiga oladi. Mintaqa shaharlari juda boy tarixi, ko'hna va navqironligi bilan alohida ajralib turadi. Biroq, hududga ta'sir etuvchi tabiiy omillar ("cho'lilik" xususiyati) shahar manzilgohlarining shakllanishi va xo'jalik yuritish nuqtayi nazardan biroz noqulaylik tug'diradi. Ammo tranzit, transchegaraviy va xalqaro magistral yo'llarning kesib o'tganligi ba'zan uning markaziyiligini ham ta'minlaydi.

Mintaqa milliy iqtisodiyotda asosan qorako'lchilik, neftni qayta ishlash, to'qimachilik sanoat tarmoqlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bu yerda oziq-ovqat sanoati, paxta yetishtirish, xalqaro turizm ham rivojlanmoqda.

Iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega hudud yer osti zaxiralariga ancha boy. Aniqlangan qazilma boyliklar ko'proq yoqilg'i va qurilish sanoatini rivojlantirishda ahamiyatlidir.

Viloyat orografiyasining o'ziga xosligi, cho'l va voha shaharlarining shakllanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, Qizilqum cho'llaridan iborat tekislik qismida shaharlar siyrak, shimoli-sharq va sharqidagi balandlik va tog'liklardan iborat Buxoro-Qorako'l vohasida aglomeratsiya va uning "yo'ldosh" shaharlari shakllanmoqda. G'ijduvon-Olot yo'nalishidagi hududning "tarixiy geografik o'qi"da rayon iqtisodiyotining negizi Olot, Qorako'l, Jondor,

Buxoro, Galaosiyo, Vobkent, G'ijduvon shaharlari mujassamlangan. Kogon, Vobkent, Jondor, Qorovulbozor, Galaosiyo va boshqa ko'plab shaharchalar shakllanayotgan Buxoro aglomeratsiyasining yo'ldoshlari sanaladi<sup>22</sup>.

Viloyat shaharlar geografiyasining o'ziga xos jihati – mayda shaharlarning ko'pligi, kichik-kichik holda tarqoq joylashuvi va “resurs” markazlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Ayni holat tabiiy va ijtimoiy omillar, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning kam rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shaharshunos olim A.Mavlonov mintaqa shaharlari shakllanishini uch bosqichga, ya'ni Chor Rossiyasi, sho'rolar va mustaqillik davriga bo'lib o'rgangan. Viloyat shaharlarining ayrimlari juda qadimiy bo'lsa (Buxoro, Kogon, Galaosiyo), ba'zilar mustaqillik yillarida shakllangan (Shofirkon). 1865–1917-yillarda hudud shaharlari soni unchalik ko'p bo'lmagan. Sobiq sho'rolar davrida Olot, G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l, Qorovulbozor, Gazli, Romitan aholi punktlari shahar maqomini olgan.

Viloyat shaharlari vujudga kelish tarixi, katta-kichikligi va bajaradigan funksiyasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. 1959-yilgi aholi ro'yxatida atigi 5 ta shahar manzilgohi (3 ta shahar, 2 ta shahar posyolkasi) ro'yxatga olingan bo'lsa, 1970-yilda 12 ta (3 ta va 9 ta) qayd etildi. 2009-yildagi urbanistik o'zgarishlar tufayli, bu yerda 60 ta qishloqlar shaharcha maqomini oldi, natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 29,2 foizdan 38,8 foizga ortdi. Ammo shunga qaramasdan, hudud past urbanizatsiyalashgan viloyatlardan biri bo'lib qolmoqda.

“Resurs” shaharlar – Gazli, Zafarobod va Qorovulbozor tor ixtisoslashuv xususiyatiga ega. Mazkur shaharlar viloyatning uch burchagida tarqoq tarzda tabiiy boyliklar, xususan, yoqilg'i-energetika zaxiralari negizida paydo bo'lgan. Gazli va Qorovulbozorning shakllanishida yoqilg'i xom ashyosi ahamiyatli bo'lsa, Zafarobod taraqqiyotiga rangli metall konlarini o'zlashtirish asos bo'lgan. Binobarin, Qorovulbozor shahrining qulay geografik o'rni va mavjud infratuzilma tizimi hamda

---

<sup>22</sup> Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. –Т., 2010б 57-б.


togʻ-kon va arzon xom ashyo manbalariga yaqinligi oʻsish qutbini tashkil etish uchun asos boʻldi (Solliyev A., Yanchuk S., 2005).

Tuman markazlari yoki agroindustrial ixtisoslashuv viloyat shaharlari funksional tipologiyasida ustunlik qiladi. Qolgan shaharchalarning aksariyati “agroshaharcha” funksiyasini bajaradi. Maʼlumotlar tahliliga koʻra, yangi shaharchalarning eng koʻpi Qorakoʻl (Bandboshi, Yangiqalʼa, Solur, Sayyod va b.) va Gʻijduvon (Abadi, Yuqori Rostgoʻy, Quli Jabbor, Jovgari va b.), yaʼni vohalarda sugʻorma dehqonchilik rivojlangan, aholisi zich hududlarda tashkil topgan (*7-rasm*). Romiton va Peshkuda 3 tadan, Vobkentda esa 2 tadan shaharcha shakllangan. Bunday oʻzgarishlar viloyat shaharlar piramidasini yanada maydalashtiradi. Mintaqada ham eng koʻp kichik shaharlar qatori 76 tani tashkil etgan holda, ularda 299,7 ming aholi yashaydi. Hozirgi kunda viloyatdagi yirik shahar Buxoroda 274,7 ming aholi bor (bu borada Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijondan keyingi 5-oʻrinda). Ikkinchi shahri Kogonda (Yangi Buxoroda) 59,5 ming, tom maʼnodagi “ikkinchi” shahri Gʻijduvonda 44,2 ming kishi istiqomat qiladi. Qolgan shahar joylar orasida faqat Qorakoʻlda 20 mingdan ziyod aholi bor, xolos. Demak, 69 ta shahar joylarning aholisi har birida bundan kam.

1959-yilda 130,4 ming kishi yoki jami aholining 22,7 foizi shaharliklarni tashkil etgan (respublikada 34 foiz). 1970-yilgi aholi roʻyxatiga koʻra, viloyatning shahar joylarida 292,0 ming kishi yashab, Buxoroning urbanizatsiya darajasi 31,2 foizga teng boʻlgan. 1995-yilda bu koʻrsatkich 428,9 ming, 2008-yilda 456,8, 2009-yilda 616,8 ming kishiga koʻpaygan. Mazkur holat Buxoroda shaharlashuv darajasi va aholi soni oʻsishini nisbatan sekin kechishi bilan izohlanadi (*9-rasm*).

Shahar hosil qiluvchi omillar vaqt va makonda doimo oʻzgarib turadi. Mintaqada dastlabki shaharlarning paydo boʻlishida savdo va hunarmandchilik ustunlik qilgan boʻlsa, keyinchalik ularning oʻrnini sanoat, transport va turizm egallagan. Binobarin, mustaqillik yillarida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Gaz uzatish kompressor stansiyasi, “KNAUF gips-Buxoro” qoʻshma korxonasi, Gʻijduvon temir-

beton va Gazli neft qazib chiqarish kabi korxonalarni barpo etilishi viloyatning bugungi iqtisodiy geografiyasini aks ettiradi.



**9-rasm. Buxoro viloyati aholisi sonining o'lishi**

Buxoroyi Sharif Zarafshon daryosining quyi oqimida, aholi qadimdan (o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik oralig'ida) zich joylashgan manzilda atrof-joylar uchun markaz sifatida shakllandi (er.IV asr). Shahar hududidan o'z davri uchun ahamiyatli bo'lgan "Buyuk Ipak yo'li"ning o'tishi, ko'hna madaniyat, ilm-fan, savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Buxoroning keyingi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti va sanoatlashuviga XIX asr oxirlarida Kaspiyorti temir yo'li, 1907-yilda shahardan Kogonga o'tkazilgan temir yo'l qulaylik yaratdi va uni shahar atrofi bilan bog'ladi. Uning hissasiga viloyatdagi jami shaharliklarning 40,3 foizi to'g'ri keladi. Zamonaviy Buxoro ixtisoslashuvi va ishlab chiqarish salohiyatiga ko'ra, ko'p funksiyali – yengil sanoat, zardo'zlik, to'qimachilik, zargarlik va xalqaro turizm shahri sanaladi. Viloyat markazining og'ir "yuki" vazifasi – ma'muriy-boshqaruv funksiyasini ham alohida ta'kidlash zarur.

2016-yil yakunlari bo'yicha, Buxoro shahri mintaqada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 14,3 foizini, iqtisodiy rayon doirasida esa 3,2 foizi, Kogon shahri 8,2 foizini yetkazib bergan.

Buxoroga juda yaqin joylashgan Kogon shahrining viloyat iqtisodiyoti-dagi o'rni, eng avvalo, temir yo'l darvozasi va sanoat markazi ekanligi bilan

baholanadi. O'zbekistonni Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lovchi muhim temir yo'llar mazkur transport tuguni orqali o'tadi. Mustaqillik yillarida ishga tushgan Tajan–Seraxs–Mashhad temir yo'li shaharning transport funksiyasini yana bir karra oshirdi. Kogondagi yog'-moy, paxta tozalash, ohak zavodlari va vagon ta'mirlash korxonalari hozirda mintaqa sanoat mahsulotining 5,3 foizini ta'minlaydi.

Buxoro vohasining shimolida qad rostlagan *G'ijduvon* o'ziga xos markaz funksiyasini bajaradi. Uning ta'sir radiusi yondosh Vobkent, Shofirkon va hatto Qiziltepa shaharlarida ham sezilib turadi. Sababi, *G'ijduvon* bozori-ning shahar hosil qiluvchi vazifasi uning chor atrofiga xizmat qiladi.

Buxoro shahrining shimoli-g'arb tomonida joylashgan Gazli shahrining shakllanishi (1977-y.) tabiiy gaz zaxiralarning topilishi bilan bog'liq.

Yaqin kelajakda shahar hosil qiluvchi tarmoq sifatida mintaqaning yoqilg'i sanoati xizmat qiladi. Xususan, Buxoroning janubi-g'arbidagi (Qandim va Shimoliy Shodi) konlar negizida yiliga 2 milliard 200 million kub metr hajmida gaz qazib olish va Qandim gazni qayta ishlash majmuasini barpo etish ishlari boshlangan. 2018-yilda Qumli konida kompressor stansiyasini qurish, Uchqirda gazdan propan-butan olish va gazni tozalash asosida oltingugurt ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar yakuniga yetkaziladi. 2019–2021-yillarda sanoatni innovatsion-industrial asosda rivojlantirish maqsadida Buxoro neftni qayta ishlash korxonasi tubdan rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi ko'zda tutilgan. Buning natijasida mintaqaning neft-gaz energiya ishlab chiqarish sikli mukammallashadi, shaharlarning faolligi va harakatchanligi ortadi, yangi o'sish qutb va markazlari shakllanishi kutiladi.

### **Samarqand viloyati shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi**

Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining markazida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida qadimgi karvon yo'llari (Buyuk Ipak yo'li) ke-suvchan hududda joylashgan. Mintaqa Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy munosabatlarni olib borishda katta mavqega ega qadimiy sivilizatsiyaning asosiy markazi bo'lgan. Hozirda bu hududdan mahalliy va xalqaro avtomobil hamda temir yo'llarning o'tganligi shaharlar geografiya-sining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biroq viloyat tabiiy sharoitining turlicha ekanligi va tabiiy resurslarining notekis taqsimlanganligi, orografik hamda boshqa to'siqlarning mavjudligi

aholi manzilgohlarini qulay geografik o'ringa ega bo'lgan Zarafshon vodiysida joylashishiga zamin yaratgan.

Mamlakat geourbanistik tizimida mintaqa shaharlar to'ri va tizimi zichligi, funksional xususiyati, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi bilan yuqoriroq o'rinda turadi. Jumladan, 1970-yilgi aholi ro'yxati davrida mintaqada 13 ta shahar manzilgohlari, shu jumladan, 3 shahar va 10 ta shaharchalar ro'yxatga olingan bo'lsa (1959-yilda 3 va 6 ta;), 2008-yilda 11 ta shahar, 12 ta shaharcha hamda 2017-yilda 11 ta shahar, 88 ta shaharcha qayd etilgan.

Viloyat shaharlar to'ri va tizimi bu yerda rayon hosil qiluvchi tarmoqlarning, xususan, sanoat, transport, turizm, rekreatsiya va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining keng rivojlanganligida o'z ifodasini topadi.

“Qadimgi Sharq jannati” – *Samarqand* (eramizgacha IV asr) Zarafshon daryosi chap sohilida joylashgan, dunyodagi eng ko'hna shaharlardan biridir. Hozirda ham Samarqand shahri nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyodagi eng yirik sanoat, fan va madaniyat markazidir. Ushbu shahar o'zining yuksak ijtimoiy-iqtisodiy, demografik salohiyatiga asoslangan holda respublikadagi yirik Samarqand aglomeratsiyasini shakllantiradi.

Samarqandning ko'p asrlik tarixi davomida vayronaga aylantirilishi, yangidan qayta tiklanishi, gurkirab o'sishi va rivojlanishiga uning qulay iqtisodiy geografik o'rni katta ta'sir ko'rsatgan. Viloyat markazida azaldan fan, madaniyat, savdo va hunarmandchilik rivoj topgan. Ko'hna Rim va Bobilga tengdosh mazkur shaharning mavqeyini ayrim tarixchi va yozuvchilar “Sharq Rimi”, “Jahonning qimmatbaho gavhari”, “Boqiy shahar”, “Sayqali ro'yi zamin” nomlari bilan ta'riflashgan. Samarqand XIV-XV asrlarda nafaqat O'rta Osiyo, balki butun Sharqda Buyuk Temur imperiyasining siyosiy-ma'muriy, iqtisodiy va madaniy poytaxti sanalgan.

XIX asrga kelib, O'zbekiston hududidan Farob (Turkmaniston)-Samarqand, Toshkent-Turkmanboshi, Toshkent-Dushanbe, Samarqand-Qarshi, Toshkent-Uchquduq-Qo'ng'iroq temir yo'llarining o'tishi uning transport geografik o'rmini yanada kuchaytirdi. Shahar 1938-yildan buyon viloyat markazi funksiyasini bajaradi.

Dastlabki aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, 1959 - yilda shaharda eng ko'p-196,4 ming, 1970-yilda 266,8 ming aholi yashagan bo'lsa, 1990-yilda 364 ming, 2009-yilda 372,7 ming, hozirgi kunga kelib, jami 496,1 mingga yetdi va mintaqa shaharliklarining ulushi 38 foizdan ortib ketdi (2-ilova).

Zamonaviy Samarqand hozirda respublikaning birinchi darajali turizm va haqiqiy muzey shahri sanaladi. Samarqandning me'moriy-tarixiy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKOning Finlyandiyada o'tkazilgan 25-sessiyasida Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Amerikaning nufuzli "Xafington post" internet nashri Samarqandni inson o'z umri davomida hech bo'lmaganda bir marta borib ko'rishi albatta, zarur bo'lgan dunyodagi 50 ta shaharning biri sifatida e'tirof etdi va mazkur shaharlar ro'yxatiga kiritdi<sup>23</sup>.

Samarqand aholi soniga ko'ra, respublikamizning an'anaviy "ikkinchi shahri" va uning dastlabki poytaxti hisoblanadi. Viloyat markazi hissasiga O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining 2,6 foizi to'g'ri keladi. Unda Zarafshon iqtisodiy rayonining 20,8 foiz aholisi istiqomat qilgani holda, 45,3 foiz sanoat mahsuloti yaratiladi.

Shahar iqtisodiyoti, eng avvalo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining ustuvor rivojlanganligi bilan belgilanadi. 1930-yillardayoq pillakashlik va shoyi to'qish fabrikalari, meva-konserva zavodi, choy qadoqlash fabrikasi qurilgan. 1940–1970-yillarga kelib, Samarqandda «Krasniy dvigatel», «Kinap», tamaki-fermentatsiya zavodlari, yigiruv fabrikasi, superfosfat zavodi, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari, uysozlik kombinati, chinni zavodi va b. korxonalar ishga tushirilgan. Shaharning yuksak ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va infrastruktura salohiyati bu yerda ko'plab qo'shma korxonalarining vujudga kelishiga sabab bo'di. Hozirda shaharda lift, avtomobil, sovitgich, shisha-chinni idishlar, kimyo, konserva, vino zavodlari, ipakgazlama, tamaki, choy qadoqlash fabrikalari faoliyat yuritmoqda.

Ishlab chiqarish mujassamlashuv darajasi yuqori ko'plab korxonalar shaharning hozirgi iqtisodiy geografik holatini belgilaydi. Jumladan, "Samavto" avtomobil zavodida besh xil rusumdagi avtobuslar, 8 turdagi yuk avtomobillar, 35 xil kuzovlar ishlab chiqarilmoqda.

Iqtisodiy, madaniy, turistik, ilm-fan salohiyatiga ega bo'lgan yirik shaharning rayon hosil qiluvchi muhim xususiyati asosida yirik Samarqand aglomeratsiyasi shakllangan. Shahar tizimining "tabiiy to'siqlarsiz" tog'oldi va tekisliklar bo'ylab yoyilishi, ko'plab "yo'ldosh" shahar manzilgohlarini vujudga keltirgan. Hozirda Urgut, Jomboy, Bulung'ur, Xishrav, Kimyogar-

<sup>23</sup> 2004-yildan buyon Samarqand shahrida BMT Jahon sayyohlik tashkilotining (YUNVTO) "Buyuk ipak yo'li" mintaqaviy markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 2002-yildan Registon har yili "Sharq taronalari" Xalqaro festivaliga mezbonlik qiladi.

lar, Farhod, Juma, Loish, Chelak, Dahbet, Charxin, Gulobod singari eng ko'p manzilgohlarni o'z ichiga olgan mazkur aglomeratsiyada 600 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Viloyat markazidan 44 km janubi-g'arbda Zarafshon tizmasining shimoliy yon bag'rida eng qadimiy va yo'ldosh shaharlaridan biri – *Urgut shahri* qad rostladi (1973-y.). Shahar “Boburnoma”da Arkat qishlog'i sifatida tilga olingan. Keyinchalik bu so'z o'zgarib, “Urkent”, Ur – balandlik, kent – shahar yoki balandlikdagi shahar ma'nosini anglatadi. Demak, Urgut oykonimi vujudga kelishiga uning geografik o'rni asos bo'lgan.

Shaharning shakllanishida rivojlangan qishloq xo'jalik rayonida ekanligi, aglomeratsiya “yadro”siga yaqinligi, yirik transport tugunida joylashganligi muhim rol o'ynadi.

*Jomboy* shahrida faoliyat yuritayotgan iqtisodiyotimizning lokomotivi bo'lgan Germaniyaning “MAN Avto” kompaniyasi yiliga 4600 ga yaqin yuk avtomobili va 1350 dan ortiq pritsep (tirkama)lar ishlab chiqarmoqda.

*Juma* shahrining shakllanishi transport (temir yo'l stansiyasi) infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog'liq. Shahar janubidan Toshkent-Buxoro avtomobil yo'li o'tganligi, “bosh shahardan” atigi 25 km shimoli-g'arbda joylashganligi uning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini yaxshiladi. Jumada paxta tozalash, remont-mexanika zavodlari, 2 ta MTP, avtomobil-avtobus parklari, yirik don bazasi bor. Shahar hozirgi kunda Pastdarg'om tumanining ma'muriy markazi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Mintaqaning tabiiy sharoiti, tarixiy rivojlanishi va rayon hosil qilish qudrati bois, viloyatda Samarqand hamda ichki cho'l va tog'oldi hududlarini egallagan Kattaqo'rg'on guruh rayonlari ajratiladi.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Zarafshon mintaqasi shahar manzilgohlarini retrospektiv tahlil qiling.*
- 2. Cho'l va voha sharoitida rivojlanayotgan shaharlarni o'zaro qiyoslang.*
- 3. Samarqand va Kattaqo'rg'on guruh rayonlari shaharlari rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni aniqlang.*
- 4. Iqtisodiy rayonning ko'p funksiyali va bir funksiyali shaharlariga izoh bering.*



## Janubiy mintaqa shaharlari

1. *Surxondaryo viloyati shaharlarining vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari.*
2. *Termiz shahri: iqtisodiy geografik tavsif.*
3. *Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar rivojlanishi.*

Janubiy O‘zbekiston shaharlar to‘rining shakllanishida gidrologik omillar, yangi yerlar va foydali qazilmalarni o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Mintaqa ichki hududiy mehnat taqsimotini tabiiy sharoiti (agroiqlimiy) va resurslari belgilab beradi. Binobarin, hududda joylashgan shaharlarning aksariyati tog‘oldi va tekislik shaharlari hisoblanadi. Iqtisodiy rayon shahar manzilgohlarining 63,8 foizi (164 ta) va ulardagi aholining 64,9 foizi (1199 ming kishi) tekislik mintaqasiga to‘g‘ri kelgan<sup>24</sup>.

Iqtisodiy rayon urbanizatsiya darajasining respublika ko‘rsatkichidan doimiy pastligi, tug‘ilish ko‘rsatkichining yuqoriligini hamon saqlab qolmoqda. Binobarin, mintaqa urbanizatsiyasining xarakterli xususiyatlardan biri – shaharlarda aholi soni o‘sishi va tabiiy harakatning yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Janubiy mintaqada shaharlashuv darajasi muntazam ortib bormoqda; 2016-yilda respublikada o‘rtacha urbanizatsiya darajasi 50,6 % bo‘lgani holda, iqtisodiy rayonda bu ko‘rsatkich 39,3 % ga (Qashqadaryoda 49,2 %, Surxondaryoda 35,7 %) teng bo‘ldi. Hozirda mazkur hududda 31 ta shaharlar mavjud. Surxondaryo viloyatida 8 ta shahar va 114 ta shaharcha, Qashqadaryo viloyatida esa 12 ta shahar va 123 ta shaharcha joylashgan.

Janubiy rayon iqtisodiyotida yoqilg‘i zaxiralar – neft va tabiiy gaz, toshko‘mir, shuningdek, turli tuzlar, qurilish materiallari, oltin-gugurt va farmatsevtika xom ashyolari (dorivor o‘simliklar) muhim

---

<sup>24</sup> Курбонов П.П. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёни ривожланишининг омиллари ва иқтисодий географик асослари.—Т., 2012, 12-6.

ahamiyatga ega. Hududning shifobaxsh buloq va chashmalari, tarixiy qadamjo va ziyoratgohlari istiqbolda shahar hosil qiluvchi tarmoqlar – rekreatsiya va turizmning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik va ularni kompleks qayta ishlash borasida hududiy tafovutlar mavjud.

Xususan, Qashqadaryo viloyati nafaqat mintaqaning, balki respublikaning asosiy yoqilg‘i-energetika bazasi sifatida ustunlikka ega. Qo‘shni Surxondaryo viloyati o‘ziga xos yer usti tuzilishi, transport-geografik joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy salohiyati, aholi joylashuv xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda investitsion faollik darajasiga ko‘ra ancha farq qiladi. Mintaqa iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rningining biroz noqulayligi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir etadi.

2007-yil Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining bunyod etilishi har ikki viloyatni respublika yaxlit transport tizimi bilan bog‘ladi, janubiy mintaqani yagona iqtisodiy makon sifatida rivojlantirishini ta‘minladi. Shuningdek, temir yo‘l ta‘sir zonasidagi tabiiy boyliklarning o‘zlashtirilishi bilan bir paytda, yangi aholi manzilgohlari, “o‘sish qutb va markaz”lari shakllanishi va pirovardida viloyat shaharlar to‘rini kengayish, urbanizatsiya darajasini ko‘tarish imkoniyatlari yuzaga keladi. Shuningdek, rekreatsiya va turistik imkoniyatlari yuqori va qulay transport geografik o‘ringa ega shaharchalarning rivojlanishi birmuncha tezlashadi. Jumladan, mazkur temir yo‘lning foydalanishga topshirilishi natijasida Dehqonobod kaliy zavodi ham o‘z faoliyatini boshladi.

2017-yilda Surxondaryoda xalqaro standartlarga javob beradigan 336 kilometrlik avtomobil yo‘llarini barpo etish loyihasi amalga oshirildi; har ikki viloyat markazini bog‘laydigan «Qarshi-Termiz» avtomobil yo‘lini rekonstruksiya qilinishi janubiy mintaqa iqtisodiyotini yanada mustahkamroq birlashtirdi; «Qarshi-Termiz» temir yo‘l tarmog‘ini 2017-yilda elektrlashirilishi mintaqaning tranzit va tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirdi, natijada yuk tashish xarajatlari 20 foizga kamayib, yo‘lovchi va yuk tashish tezligi 1,5 barobar oshishi kutiladi.

## **Surxondaryo viloyati shaharlarining vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari**

Mamlakatimizning eng chekka janubida joylashgan Surxondaryo viloyati o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'ringa ega. Hudud uch qo'shni mamlakatlar (Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston) bilan chegaradosh. Respublika doirasida ham qo'shnilari oz, birgina Qashqadaryo viloyati bilan baland tog'lar orqali tutashgan. Surxondaryoning bunday o'ziga xos siyosiy geografik o'rni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatining Janubiy mintaqadagi o'rnini neft, tabiiy gaz, ko'mir (respublikadagi jami toshko'mirni), turli qurilish materiallari (ohak, granit, gips, shag'al), tabiiy mineral buloqlar, dorivor giyohlar, turizm va rekreatsiya resurslari belgilab beradi. Lekin vohada tabiiy resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari ancha past. Bunga avvalo viloyatning geografik o'rni (mamlakatning eng janubida), orografik tuzilishi (asosiy foydali qazilmalar tog'li hududlarda) kabi tabiiy noqulayliklar bilan birga, transport infratuzilmasining nisbatan sust rivojlanganligi, siyosiy strategik nuqtayi nazardan nomaqbul joylashishi ham ta'sir etib kelgan.

Hududning shaharlashuv darjasi sust, demografik rivojlanish, ya'ni aholi tabiiy ko'payishi eng yuqori hududlardan sanaladi. Viloyatda, 2462,3 ming kishi yoki mamlakat aholisining 7,6 foizi istiqomat qiladi (2017-y.).

Surxondaryo viloyati respublikada sanoat mahsulotlarining hajmi, tarkibi, ixtisoslashuv va mujassamlashuv jihatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. Mintaqada sanoatlashuv va urbanizatsiya orasidagi bog'liqlik ancha past. Chunonchi, 2014-yil ma'lumotiga ko'ra, mintaqa respublika sanoat mahsulotining atigi 1,9 foizini yetkazib bergan (shaharlashuv darajasi 34 foiz). Ushbu holat shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning kam rivojlanganligi, shuningdek, viloyat va respublika yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ulushi yuqori ekanligidan darak beradi.

Darhaqiqat, viloyat iqtisodiyotining negizini qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq qayta ishlash sanoati tashkil etadi. Shu bois, ko'pgina

shaharlar agroindustrial xarakterga ega. Ularda, asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi oziq-ovqat, paxta tozalash, to'qimachilik kabi yengil sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda; hududda yirik ishlab chiqarish markazlari yoki qutblari, mukammal hududiy majmualar juda kam.

Surxondaryoda 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalar qayd etilgan. Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar Termiz va Denov. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar esa 6 ta (Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Sharg'un, Sherobod). Ularda 877,6 ming kishi yoki jami aholining 35,6 foizi yashaydi (taqqoslash uchun, 2008-yilda urbanizatsiya darajasi Surxondaryoda 19,1 % bo'lgan). Bu jihatdan u mamlakatimizda faqat Xorazm viloyatidan oldinda turadi, xolos (respublika shahar aholisining atigi 5,4 foizi).

Viloyat shahar manzilgohlarining hududiy tarkibiga e'tibor bersak, eng ko'p shaharlar soni Denov va Qumqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi. Mazkur tumanlarda viloyatdagi shaharlarning qariyb  $\frac{1}{4}$  qismi joylashgan. 2009-yildagi urbanistik o'zgarishlardan so'ng mintaqa shaharchalari soni yana 107 taga ko'paydi (respublika yangi shaharchalarining 10,7 foizi). Bunday agrosaharchalarning eng ko'pi Oltinsoyda (14 ta), Denov va Angorda (11 tadan), Qumqo'rg'on va Muzrabotda (10 tadan) kuzatiladi (2-ilova). Ayni vaqtda ularning eng kam miqdori Bandixon tumaniga to'g'ri kelib, bu yerda birgina tuman markazi – Bandixon shaharcha maqomini olgan, xolos. Biroq yirik qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomini berilishi, mintaqa iqtisodiy taraqqiyotiga unchalik ta'sir ko'rsatmadi. Buning boisi, mazkur shaharchalarning kelgusi taraqqiyotida ko'proq aholi soni asos qilib olindi va ularning aksariyati shaharcha mezonlariga unchalik javob bermaydi.

Shaharlarning ma'lum hududda vujudga kelishida bevosita shu joyning geografik o'rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti va albatta, iqtisodiy imkoniyatlariga (transport, foydali qazilmalar, aholi va mehnat resurslarining to'planishi, ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari va boshqalar) bog'liq.

Mintaqa shaharlar to'ri va tarkibining shakllanishida muhim o'rinni tabiiy sharoit va resurslar, shuningdek, transport kommunikatsiyalari egallaydi. Surxondaryo shahar aholi manzilgohlarining

zichligi, hududiy urbanistik tarkibiga ko'ra boshqa mintaqalardan ancha farq qiladi. Hudud aholi manzilgohlari joylashuvini markazdan shimoli-sharq tomonga yo'nalgan transport yo'llari (Termiz-Denov yo'nalishi) hamda daryo vodiylari (Surxondaryo, Sherobodaryo) belgilab beradi. Mintaqa shaharlar to'rida yangi o'zlashtirilgan Surxon-Sherobod massivi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dastlab Surxondaryo hududida bir necha asrlik tarixga ega Termiz, Chag'aniyon va Dalvarzintepa shaharlari shakllangan bo'lsa, keyinchalik (1916-y.) Kogon-Termiz, sobiq Ittifoq davrida Termiz-Dushanbe, Termiz-Qo'rg'ontepa-Yovon temir yo'llarining qurilishi natijasida (Denov, Jarqo'rg'on, Sho'rchi) "yangi" sanoat shaharlari paydo bo'ldi. Resurs shaharlar Sharg'un, Boysun, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Kokaydi, Elbayon foydali qazilmalar negizida, Qumqo'rg'on, Sherobod, Sariq, Angor qo'riq yerlarni o'zlashtirish asosida bunyod etilgan.

Mintaqa urbanizatsiyasi, demografik nuqtayi nazardan qaraganda, asosan, kichik va o'rta, qishloq tuman markazlari va agrosanoat korxonalariga ega bo'lgan shaharlar hisobiga rivojlanib bormoqda.


O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxati – 1939-yil ma'lumotlari bo'yicha, shahar aholisi 57,4 ming kishi bo'lgan holda, 1959-yilga kelib bu ko'rsatkich 132,3 ming kishiga teng bo'ldi yoki o'tgan 20 yil mobaynida shahar aholisi 2,3 barobar o'sdi. Yuqoridagi ma'lumotlarning tahlilidan ko'rinib turibdiki, dastlabki yillarda viloyat shahar aholisi ancha sekin o'sib borgan. Sobiq Ittifoq davrida viloyat hududidagi turli ma'dan konlari va yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya shoxobchalarini barpo etilishi natijasida shaharlarning yangi tizimi vujudga keldi. Xususan, 1970–1979-yillarda viloyatda tuman markazlari, agro-industrial shaharlar paydo bo'la boshlagan (Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Sherobod. Sharg'un, Boysun, Sho'rchi va h.k.).

1970–1979-yillardagi viloyat shahar aholisini o'sishiga tuman markazlarida ko'plab yengil sanoat korxonalarining ishga tushirilishi ham sabab bo'lgan. Ayni paytda, aksariyat qishloq tumanlari ushbu vazifani bajaradi. Masalan, Jarqo'rg'on, Angor, Qiziriq, Muzrobod va Sherobod tumanlarining har birida paxta tozalash zavodlari mavjud. Chunonchi, paxta tozalash zavodlari Jarqo'rg'on (1969), Surxonda (1970), Angorda (1971), Muzrabodda (1971), Sherobodda (1974) va

Qiziriqda (1978) barpo etildi. Ana shu davrda mintaqa shahar aholisi 1,3 baravarga o‘sgan. Ushbu holatni 70-yillarda mamlakatimizdagi ayrim yirik qishloqlar va Shahar tipidagi posyokalarning shaharlarga aylantirilishi bilan izohlash mumkin.

Mustaqillik yillarida (1992-y.) viloyat shaharlar geografiyasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Hudud shaharlar to‘ri birdaniga 5 ta (Angor, Do‘stlik, Sariq, Hurriyat va Elbayon)ga kengaydi va bu mintaqada zamonaviy transport-stansiya, razyezd hamda boshqa kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi va yangi yerlarni o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Ta’kidlanganidek, mintaqa urbanistik tarkibi ham iqtisodiyotning tarmoqlar va hududiy tarkibiga mos holda rivojlangan. Termizda 137 ming aholi bor, ikkinchi shahar Denovda 81 mingdan ziyodroq. Tuman markazlari Sherobod, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchining har birida 20–30 ming kishidan aholi yashaydi. Qolgan yuzdan ortiq shahar joylar kichik va mayda sinflarga mansub (10-rasm).



**10-rasm.** Surxondaryo viloyati shahar manzilgohlarini 2006 va 2016-yillardagi tarkibi.

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Zamonaviy shaharshunoslik va shaharlar geografiyasida funksional tiplarga ajratishda ishlab chiqarish va xizmatlarning ixtisoslashuvi, shuningdek, ularning mamlakat shaharlar tizimidagi roliga asosiy e'tibor qaratiladi. Mintaqadagi mavjud shaharlarning aksariyati tuman markazlari yoki agrosaharcha funksiyasiga mos keladi. Yoqilg'i-energetika, qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari respublika mehnat taqsimotidagi o'rnini ifodalab beradi. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hamda ko'rsatilgan xizmatlarda Surxon sanoat rayoni shaharlari – Denov, Jarqo'rg'on, Sho'rchi va Termiz shahri yetakchilik qiladi. Masalan, mintaqaning "ikkinchi" shahri Denov shahar aholisining 9,6 foizi, yalpi sanoat mahsulotining 13,1 foizi va iste'mol mollaringing esa 28 foizini o'zida jamlagan.

Shaharda faoliyat yuritayotgan "Denov vino-araq" HJ, "Denov yog'-ekstraksiya" OAJ, sut, konserva, momiq-paxta fabrikasi, paxta tozalash korxonalarining ulushi yuqori. Sho'rchi shahri sanoat mahsuloti va xalq iste'mol tovarlarini aholining hududiy mujassamlashuv darajasiga qaraganda ancha ko'p ishlab chiqaradi. Ushbu ko'rsatkichlarning asosiy qismi shaharda joylashgan "Sho'rchi don mahsulotlari" OTAJ hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu ikki shahar asosan yengil sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan, buni ularning iste'mol tovarlaridagi hissasidan ham ko'rish mumkin (Qurbonov P., 2012). Ayni paytda mintaqaning sanoat salohiyati kuchsiz, uning diversifikatsiyasi tor ko'lamga ega ekanligini qayd etish kerak.

Bundan tashqari, sanoat asosiy shahar hosil qiluvchi omil sanalgan Jarqo'rg'onida "Jarqo'rg'onneft" korxonasi, Boysun va Sharg'unda yoqilg'i sanoati, Lalmikorda neft sanoati va To'palang GESni keltirish mumkin.

Istiqbolda Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li ta'sir zonasida joylashgan qulay geografik o'ringa ega qishloq aholi punktlari hamda yangi shaharchalarning o'sish qutb va markazlari sifatida shakllanish imkoniyatlari katta. Transport infratuzilmasining shahar hosil qilish xususiyati Boysun, Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlari shaharlar to'ringing kengayishiga olib keladi. Kelajakda hududda tash-

kil etilayotgan “Boysun Farm” erkin iqtisodiy zonasi ta’sirida, shuningdek, turistik rekreatsiya ahamiyati yuqori yoki qulay transport geografik o’rniga ega bo’lgan aholi punktlarining shaharlashuv va sanoatlashuv ahamiyati yanada ortadi.

### **Termiz shahri: iqtisodiy-geografik tavsif**

Mintaqa hududiy urbanistik tarkibidagi eng yirik shahar *Termiz*da o’tkazilgan arxeologik qazilma materiallari shaharning uzoq tarixga ega ekanligidan darak beradi. IX-XI asrlarda shahar yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik markazi sifatida taraqqiy etgan bo’lsa, keyinchalik geosiyosiy va iqtisodiy geografik o’rni, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy obyektlari ta’sir etgan. Termiz shahri bir paytlar harbiy shaharcha bo’lgan<sup>25</sup>. Sobiq sho’rolar davrida respublikamizning janubiy darvozasi viloyat markazi funksiyasini bajaruvchi mazkur shahar eng chekka transchegaraviy hududda, siyosiy markazlardan ancha olisda, o’ziga xos noqulay iqlim sharoitiga ega botiqda joylashgan. Tabiiyki, bunday holat shaharning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini ancha cheklaydi. Viloyat markazining ta’sir doirasi yoki rayon hosil qilish qobiliyati ham yuqori emas. Ko’rinib turibdiki, Termizning shaharga xizmat qiluvchi funksiyasi yaxshi rivojlangan. Bu borada Termiz shahrida tashkil etilgan geologik muzey ham katta ahamiyatga ega.

Shu bois, Termizning sanoat salohiyati past, tarmoqlar diversifikatsiyalanmagan. Unga mintaqada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining atigi, 9,3 foizi, iqtisodiy rayon doirasida esa 0,8 foizi mos keladi.

Aytish joizki, mustaqillik yillarida viloyat markazining siyosiy, transport geografik o’rni birmuncha kuchaydi. Shahardagi yirik xalqaro aeroport xorijiy mamlakatlar, xususan, Afg’oniston bilan O’zbekiston aloqalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. 2008–2012-yillarda viloyatni kompleks rivojlantirish dasturi doirasida G’uzor-Surxon elektr uzatish liniyasi, Termiz-Xayraton-Mozori

---

<sup>25</sup> Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш –энг олий саодатдир.–Т., 2015, 197-б.



Sharif va Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'llari va boshqa bir qator yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Istiqbolda shaharni qo'shni Afg'oniston Respublikasi bilan bog'lovchi Termiz-Mozori Sharif-Hirot-Bandar Abbas va Chorbahor yo'nalishidagi Transafg'on yo'lagi uning transport funksiyasini yanada kuchaytiradi. Keyinchalik Termiz xalqaro miqyosdagi yirik transport tuguniga aylanishi va bu yerda logistik markazlar, erkin savdo hududlari barpo etish imkoniyatlari katta. Hududning geografik joylashuvi, transport tugunining mavjudligi, qolaversa, mamlakatimizning MDH mamlakatlariga chiqib ketadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari, respublikaga kirib keladigan asosiy mahsulotlar aynan shu hududda amalga oshadi. Ayni holat viloyat markazining shahar hosil qiluvchi va unga xizmat qiluvchi vazifalarini uyg'unlikda va aloqadorlikda rivojlantirishiga olib keladi.

### **Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar rivojlanishi**

Qashqadaryo viloyati shaharlarining joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoit, yer yuzasining tuzilishi, gidrografik rejim hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida kechgan. Janubiy mintaqa shaharlari orografik jihatdan tog', tog'oldi va tekislikda, gidrografik jihatdan daryo vodiylarida shakllangan.

Viloyatda mamlakatimiz uchun eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari rivojlangan. Bu yerda neft (80 foizi) va tabiiy gazning asosiy qismi (92 foizi), gaz kondensati (95 foizi) va oltingugurt (salkam 100 foizi) qazib olinadi; milliy iqtisodiyot uchun eng zarur hisoblangan gaz-kimyoy, neft-kimyoy, kaliy ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Uning zimmasiga O'zbekistonning 7,0 foiz yalpi ichki mahsuloti, 7,5 foiz sanoat va 8,2 foiz qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi.

Mintaqa aholi manzilgohlarining shakllanishi ikki bosqichda yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchisi, qadimdan aholi yashab kelgan (Yakkabog', G'uzor va Shahrisabz) aholi manzilgohlari bo'lsa, ikkinchisi Qarshi dashtini o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan shaharlar sanaladi.

Ma'lumki, O'zbekistondagi aksariyat "yangi" shaharlar o'tgan asrning 60–80-yillarida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, turli qazilma boyliklardan foydalanish davriga to'g'ri keladi. Bunday shaharlar ayniqsa, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, Qashqadaryoda o'tgan asr oxirlarida yangi yerlar o'zlashtirilishi (Yangi-Nishon, Koson, Beshkent) va gidrotexnik inshoot negizida (Tolimarjon) shaharlari barpo etilgan. "Resurs" shahar Muborakni shakllanishida foydali qazilmalar muhim rol o'ynagan bo'lsa, Miroqi va Qashqadaryo rekreatsiya negizida vujudga kelgan.

Demak, mintaqa shaharlarining tashkil topishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar natijasi bo'lsa, ularning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishida o'z ifodasini topadi.

Mintaqa shaharlar to'ri va tizimini shakllanish nuqtayi nazaridan qaralganda, u 1989-yilga nisbatan deyarli o'zgarmagan. Mustaqillik yillarida faqatgina shaharchalar sonida o'zgarishlar kuzatildi (6 tadan 11 taga ko'paygan).

### 12-jadval

#### Qashqadaryo viloyatining urbanistik tarkibi (01.01.2017-y.)

Shahar manzilgohlari kategoriyasi	Shahar manzilgohlari soni	Aholisi, kishi	Jami shahar aholisidagi ulushi (%da)
3 ming kishigacha	27	71,3	5,3
3–5 ming kishigacha	55	212,7	16,0
5–10 ming kishigacha	29	198,5	14,0
10–20 ming kishigacha	13	170,8	14,9
20–50 ming kishigacha	8	235,7	17,7
50–100 ming kishigacha	1	74,5	5,6
100–250 ming kishigacha	1	105,1	7,9
250–500 ming kishigacha	1	257,7	19,4

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

2017-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Qashqadaryoda 12 ta shahar va 123 ta shaharchalar mavjud bo'lib, umumiy urbanizatsiya darajasi 43,0 foizni tashkil etadi(12-jadval). Ulardan Qarshi va Shahrisabz O'zbekistonning 18 ta katta shaharlari qatoriga kiradi (257 va 101 ming kishi, Kosonda 71 ming aholi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 37–40 ming aholi bor. Qolgan shahar manzilgohlarida aholi soni bundan ozroq.

Tahlillar shaharliklarning son jihatdan ortib borishi, birinchidan, viloyatning ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar, ya'ni yangi tashkil etilgan tuman markazlariga shahar maqomining berilishi, ikkinchidan, viloyatga chetdan kelayotgan migrantlarning asosan shaharlarda to'planishi, uchinchidan, voha shaharlarining qishloq joylardan deyarli farq qilmasligi va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, viloyat urbanizatsiya darajasining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan pastligi va tug'ilishning yuqori holatini doimiy saqlab kelmoqda.

2009-yilda shahrlashuv jarayonidagi o'zgarishlar tufayli viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008-yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 43,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar, ayniqsa, Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Shahrisabzda bunday maqomga 18 ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabog'da 13 ta qishloqlar ega bo'lgan (2-ilova).

Qashqadaryoda shahar manzilgohlar soni va urbanizatsiya darajasi muntazam ortib bormoqda. Ayniqsa, viloyatning yuqori – Shahrisabz mintaqasi shahar hosil qiluvchi omillarning (transport-kommunikatsiyalari hamda tabiiy resurslar) ko'pligi sanoatni tez sur'atlar bilan rivojlanishiga, bu esa shaharlar to'ri zichligining ortib borishiga sabab bo'ldi. Bunday mintaqaviy xususiyatlar ko'proq viloyatning tabiiy sharoit va resurslaridan kelib chiqqan holda, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi va demografik vaziyatiga bog'liq. Chunonchi, 1970-yilda Qashqadaryoning atigi 6 ta shahar joylarida 16,5 foiz shahar aholisi yashagan bo'lsa, 1989-yilga kelib, jami 16 ta shaharlarida 25,9 foizga yoki 413,4 ming kishiga ortdi (13-jadval).

**Janubiy O'zbekistonda shahar manzilgohlar  
va urbanizatsiya darajasining o'zgarishi**

Surxondaryo viloyati	Yillar						
	1939	1959	1970	1979	1989	2006	2017
Urbanizatsiya darajasi (%da)	7,5	15,4	16,0	19,2	19,4	19,2	35,7
Shaharlar	1	2	2	8	10	8	8
Shaharchalar	-	3	8	3	-	7	114
Jami	1	5	10	11	10	15	122
<b>Qashqadaryo viloyati</b>							
Urbanizatsiya darajasi (%da)	8,8	13,2	16,5	25,2	25,9	24,6	42,9
Shaharlar	2	2	2	12	12	12	12
Shaharchalar	2	4	4	2	4	4	123
Jami	4	6	6	14	16	16	135

*Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Butun O'zbekistonda bo'lgani kabi, Qashqadaryo viloyatida ham eng rivojlangan shaharlar to'ri aholisi 3 ming kishigacha shaharlar egallaydi. Bu bosqichga respublikada 274 ta, Toshkent viloyatiga 36 ta, Farg'onaga esa 46 ta, Qashqadaryoga 29 ta shahar manzilgohlari mansub. Ular jami shahar manzilgohlari sonining mos holda, 31,8; 22,3 va 21,4 foizini tashkil etadi (2016 y.).

Qashqadaryo viloyatida 1-pog'onaga kiruvchi shaharlar aholisi 71,3 ming kishi (jami shahar aholisining 5,3 foizini) ga teng. Ushbu toifaga aksariyat "agrosaharcha"lar mansub.

2 va 3-pog'ona ko'proq "resurs" shaharchalar (Miroqi, Dehqonobod va Tolimarjon), agroindustrial shaharlar (Qashqadaryo) va agrosaharchalardan tarkib topgan. Bu toifada mintaqa shahar aholisining eng ko'pi istiqomat qiladi (30,0 foiz).

O'rtta shaharlar guruhiga mansub Koson shahrida viloyat shahar aholisining 74 mingga istiqomat qiladi. Ushbu toifa shaharlar sinfi jami guruhning 5,6 foiziga to'g'ri keladi.

Mintaqa katta shaharlar ro'yxatiga 2014-yilda ko'hna Shahrisabz qo'shildi. Geourbanistikada funksional yondashuv keng tarqalgan bo'lib, bu urbanizatsiya jarayonining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan sanaladi. Ierarxik pog'ona eng yuqori bosqichidagi qadimiy **Qarshi** ko'p funksiyali yirik sanoat, fan, madaniyat va maorif markazi sanaladi. Shahar tarixda Nasaf, Naxshab nomlari bilan mashhur bo'lgan. U 1926-yildayoq shahar maqomini olgan.

Shahar aholisi, 1959-yilda 33 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilda 168 ming, 1997-yilda 194 ming, 2017-yilda 257,7 ming kishiga yetdi.

Viloyat markazi umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi yuqoriligi bilan ushbu toifadagi shaharlar orasida alohida ajralib turadi. Mazkur shahar mintaqada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining qariyb 50 foizini beradi.

Mintaqa xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishida viloyat markazida faoliyat yuritayotgan "Kashteks" fabrikasi, yog'ekstraksiya va un zavodlari, meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarining ulushi katta (40,9 foiz). Hozirda hudud sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va uning tarkibiy tuzilishini boyitish-diversifikatsiyalash va tarmoqlararo majmualar shakllantirishga qaratilgan bir nechta istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda shaharda TCL brendi ostida elektronika mahsulotlari ishlab chiqariladigan yirik korxonalar o'z faoliyatini boshlaydi. Unda yiliga 25 ming dona televizor, 15 mingga "Samsung" changyutkichi, 100 mingdan ortiq rozetka va elektr uzatkich mahsulotlari ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Shahrisabz va Koson shaharlarining ham xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda sezilarli o'rni mavjud.

Aytish joizki, shahar aholisining muntazam ko'payib borishi hisobiga hududda kommunal, maishiy, transport va ekologik muammolar kuchayib borgan. Ayni paytda shahar ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi qayta ko'rib chiqilib, rekonstruksiya qilinmoqda.

Mintaqaning eng qadimiy va navqiron shahri Shahrizabz (XIII asrda Kesh), genetik xususiyatiga ko'ra, dastlab savdo va hunarmandchilik asosida paydo bo'lgan. Shahrizabz fors-tojikcha so'zdan olingan bo'lib, "yashil shahar" degan ma'noni anglatadi. Shahar aholisi 1997-yilda 84,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2002-yilda 88,3 ming, 2006-yilda 99,9 ming va 2017-yilda 105,1 ming kishidan oshib ketdi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Janubiy mintaqa shaharlar geografiyasidagi o'ziga xos xususiyatlarni asoslab bering.*
2. *Iqtisodiy rayon shaharlarining genetik va funksional tipologiyasini yoritib.*
3. *Surxondaryo viloyatining urbanizatsiyalashuv va sanoatlashuv darajasidagi bog'liqlikni tushuntiring.*
4. *Surxon-Sherobod va Termiz rayonlari shaharlari rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni aniqlang.*
5. *Rayon taraqqiyotida shaharlarning tutgan o'rni va rivojlanish muammolarini yoritib bering.*

## Quyi Amudaryo mintaqasi shaharlari

1. *Xorazm viloyati shaharlari klassifikatsiyasi.*
2. *Qoraqalpog‘iston Respublikasi shaharlari zichligi va joylashuvi.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati O‘zbekiston aholisining 9,0 foizini mujassamlashtirgan holda, uning 26,9 % yalpi ichki mahsulotini ta‘minlagan (2017-y.). Iqtisodiy rayonda 15 ta shahar va 91 ta shaharcha mavjud bo‘lib, ularda 1467,2 ming aholi yashaydi (respublika shahar manzilgohlarining 9,0 foizi).

Iqtisodiy rayon shaharlar to‘ri juda siyrak; yirik shaharlarning ozligi va shahar aglomeratsiyalarini mukammal rivojlanmaganligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining sustligidan darak beradi. Ushbu hududlar maydoni, orografiyasi, tabiiy sharoiti, qazilma boyliklari bilan ta‘minlanishi va aholi joylashuviga ko‘ra noo‘xshashliklarga ega. Masalan, qadimiy sug‘orma dehqonchilik mintaqasi – Xorazmda qazilma boyliklar deyarli mavjud emas; Qoraqalpog‘istonda tog‘-kon kimyo sanoatining yirik zaxiralari (asosan, Qo‘ng‘irot va Chimboy atrofidagi tuz konlari), Ustyurtda tabiiy gaz, sulfat va osh tuzi hamda Sulton Uvays tog‘larida turli xil ma‘danlar bor. Ayni chog‘da mintaqaning tarixiy-geografik rivojlanishi gidrografik omil va ijtimoiy-ekologik muammo bilan chambarchas bog‘liq. Xuddi shu ichki farqlanishlar bois, hududiy birliklar iqtisodiyoti bir-birini to‘ldiradi, ularni o‘zaro hamkorlikda rivojlanishiga ehtiyoj tug‘iladi.

Mintaqa, shahar hosil qiluvchi tarmoqlar hududiy taqsimotida sanoat ishlab chiqarishi nisbatan sust, aholining hududiy mujassamlashuv darajasiga qaraganda ancha past. Biroq hududning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni, tranzit funksiyasi, tabiiy resurs salohiyati istiqbolda shaharlar to‘ri va tizimining sifat jihatdan rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, iqtisodiy rayonning o‘ziga xos geografik o‘rni hududni kompleks rivojlantirishni, raqobatbardosh tarmoqlarga ixtisoslashuvini, investitsiya muhiti va tashqi iqtisodiy aloqalarni yaxshilashni talab etadi.

## Xorazm viloyati shaharlari klassifikatsiyasi va funksional tiplari

Mamlakatimiz aholi manzilgohlari tarixan sug'oriladigan voha va vodiylarida hamda savdo-sotiqqa qulay karvon yo'llarida shakllangan. Xorazm viloyati shaharlarining boy tarixi va madaniyatida gidrografik omil (Amudaryo deltasi) hamda hududni kesib o'tgan temir yo'l (Chorjo'y-Toshhovuz-Beynau) katta rol o'ynagan.

Xorazm viloyati shaharlar to'ri kam rivojlangan va sust urbanizatsiyalashgan mintaqalardan biridir. O'zbekiston shaharlarining 32,2 foizini tashkil etgan vohada atigi 3 ta shahar (Urganch, Xiva va Pitnak) hamda 7 ta shaharcha (Gurlan, Qo'shko'pir, Chalish, Xazorasp, Xonqa, Shovot, Yangibozor) va 51 ta "yangi" shahar manzilgohlari mavjud.

Xorazm xo'jaligining bazaviy sohalarida intensiv qishloq xo'jaligi, yengil, oziq-ovqat sanoati va turizm yetakchi o'rinda turadi.

Ta'kidlanganidek, voha aholi manzilgohlari shakllanishini an'anaviy ravishda irrigatsiya shoxobchalari, xususan, kanal va ariqlar belgilaydi. Irrigatsiya shoxobchalarining hudud bo'ylab yelpig'ichsimon shaklda tarqalishi, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi manzilgohlari joylashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Binobarin, hudud aholisi asosan Amudaryo quyi oqimining chap sohilida qadimiy obkor dehqonchilik mintaqasida joylashgan. Toshsoqa-Polvon, Shovot, G'azavot hamda Daryoliq-Qilichniyozboyarna kanallari, ulardan suv oladigan ko'plab ariqlar bo'ylab aholi manzilgohlari shakllangan va rivojlangan. Shu bois, viloyat shaharlarining ixtisoslashuvi bir-biridan deyarli farq qilmaydi, shahar hosil qiluvchi omillarning kam rivojlanganligidan ularning soni ham oz. Mintaqa shaharlarining rivojlanishida avtomobil va temir yo'llari ham muhim ahamiyat kasb etadi.


1987-yilda, viloyatda 946 ming aholi yashagan bo'lsa, shaharlarda 278 ming, 1995-yilda 1195,9 va 296,2 ming kishiga yetgan, 01.01.2017-yil holatiga ko'ra, vohaning 1776,7 ming aholisidan 572,5 mingi shaharlarda istiqomat qilgan. Keyingi yillarda viloyat shahar joylari aholisi sekin o'smoqda. Aholi sonining ko'payishida



migratsiya katta o‘rin tutmoqda. Viloyat markazini, Urganchni hisobga olmaganda, boshqa shaharlar tabiiy ko‘payishiga ko‘ra qishloq joylarinikiga yaqin.

Voha shaharlarining tarkibiy tuzilishi yillar davomida o‘zgarib borgan. Masalan, 2006-yilda mazkur mintaqada 3 ta shahar va 7 ta shaharcha mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularning soni yana 61 taga ko‘paydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13-mart 2009-yil 68-sonli qaroriga binoan, Xorazm viloyatining 51 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi.

Xorazm viloyati shahar manzilgohlari qishloq tumanlari bo‘yicha deyarli bir xil taqsimlangan. Masalan, agrosaharchalar Gurlan va Xiva tumanlarida 8 tadan, Shovot va Yangiariqda 6, Bog‘ot va Qo‘shko‘pirda 5 tadan va h.k. Shu bilan birga, Xazorasp tumanining atigi 3 ta, Yangibozor tumanining 2 ta qishloq aholi punkti bunday maqomga ega bo‘lgan. Yangi tashkil etilgan shahar manzilgohlari demografik mayli, uy-joy qurilishi, obodonchiligi, iqtisodiy negizi, ko‘p hollarda, oddiy qishloqlardan katta farq qilmaydi.



**11-rasm.** Xorazm viloyati shahar va shaharchalarining tarkibi (01.01.2017 y.).

Viloyatning ikkinchi pog‘onaga kiruvchi shaharlar aholisi 93,2

ming kishi, u jami shahar aholisining 16,2 foizini o'zida mujas-samlantiradi (*11-rasm*). Pitnak (Drujba) shahri kichik shaharlar bo'g'iniga mansub. Xonqa shaharchasining "yarim o'rta" shaharlar pog'onasidan joy olishiga mikrogeografik o'rning qulayligi, viloyat markazi Urganch shahrining ta'siri sezilib turadi (1-ilova).

Tahlil etilayotgan mintaqaning 3-pog'ona shaharlar guruhida viloyat jami shahar aholisining 12,5 foizi istiqomat qiladi. O'rta shaharlar guruhiga vohaning "ikkinchi" ko'hna turizm shahri Xiva kiradi. Shaharda 2008-yilda aholi soni 54,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 62,6 mingga yetdi. Xivada ham aholi sonining o'sishi turg'unlashgan.

7-pog'onada birgina viloyat markazi – Urganch bo'lib, unda jami shahar aholisining 24,3 foizi istiqomat qiladi. Shahar viloyatning sanoat, transport, madaniy-ma'rifiy, xizmat ko'rsatish sohalari to'plangan rayon hosil qiluvchi markazidir. Viloyat markazining qulay iqtisodiy geografik o'rnini boshqa shaharlarga nisbatan qisqa muddatda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ushbu shahar aholisi soni keyingi 10–15 yil mobaynida deyarli o'zgarmadi, tabiiy ko'payishi esa viloyatda eng past ko'rsatkichga ega. Urganch shahri viloyat jami sanoat mahsulotining 27,7 foizini, iste'mol mollarini 46,8 foizini beradi.

Afsonaviy **Xiva** (eramizgacha V asr) shahri Amudaryoning chap sohilida Polvon kanali yonidagi tekislikda qad rostlagan. An'anaviy turizm shahrining hozirgi qiyofasi (arxitekturasi) XVIII asr oxirlaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Ayni paytda shaharda gilam fabrikasi, paxta tozalash, yog'-moy zavodlari faoliyat yuritmoqda.

Amudaryo bo'yida joylashgan **Pitnak** (1992-y.) shahrining rivojlanishida qulay transport-geografik o'rin, xususan, Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'lining qurilishi va Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xorazm-Nukus avtomagistrali muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu bois, 1974-yilda Pitnak temir yo'l stansiyasi, Amudaryo bo'yidagi Sharlovuq pristani va Tuyamo'yin gidrouzeli quruvchilari shaharchalari birlashtirildi va u viloyat ahamiyatiga molik shaharlar qatoriga kirdi.

Xorazm viloyati geoshaklining (konfiguratsiyasi) ixchamligi ma'lum

ma'noda o'sish qutb va markazlarini shakllantirishni talab etadi.


## **Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlari zichligi va joylashuvi**

Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakatimizning chekka shimoli-g'arbida, "muammoli mintaqa"da joylashganligi, shuningdek, markaziy rayonlaridan ancha uzoqda o'rnatilganligi hudud iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasining geosiyosiy mavqeyi, tranzit funksiyasi, tabiiy resurs salohiyati istiqbolda uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga anchagina qulayliklar yaratadi. Qoraqalpog'iston, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradosh bo'libgina qolmay, O'zbekistonning G'arb mamlakatlariga chiqishi uchun darvoza vazifasini ham o'taydi.

Mintaqa iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega. Qoraqalpog'iston O'zbekiston Respublikasi shahar aholisining 3,5 foizini egalagan holda, uning hissasiga mamlakatda ishlab chiqarilgan YalMning 3,5 foizi, sanoat mahsulotining 2,5 foizi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining – 6,2, pullik xizmat hajmining – 2,9, chakana savdoning – 3,8, eksportning – 0,7 foizi va importning – 0,8 foizi to'g'ri keladi (2017-y.).

Hudud tarkibidagi 12 ta shahar va 26 ta shaharchalarda 894,7 ming kishi yashaydi (shaharlashuv darajasi – 49,2 foiz). Hozirgi kunda shahar joylarda yashovchilarning nisbiy miqdori bo'yicha Namangan, Farg'ona, Andijondan keyingi o'rinda turadi. Mintaqalar bo'yicha urbanizatsiyaning eng past darajasi esa Xorazm viloyatida kuzatiladi.

Shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni Qoraqalpog'iston Respublikasining turli hududlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rayon shaharlar to'ri asosan Nukus va uning aglomeratsiyasi hamda janubiy rayonlarda ancha zichroq. Aksincha, Beruniy-To'rtko'l, Qo'ng'iroq va Chimboy rayonlarida biroz siyrakroq.



*Izoh: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

**12-rasm. O'zbekiston mintaqalari shahar manzilgohlari zichligi (01.01.2016-y.), har ming kv km da).**

Qoraqalpog'iston Respublikasi jami shahar joylarning 3,2 foizini mujassamlantiradi, shaharlar to'ri va manzilgohlarning zichligi juda past, har ming kv km ga 0,2 ta (respublikada bu ko'rsatkich – 2,6 ta). Hududiy urbanistik tarkibning sust rivojlanganligi mintaqaning tabiiy-iqlimiy sharoiti, maydonining kattaligi va shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning rivojlanishi va mujassamlashuv darajasi bilan bog'liq (12-rasm).

Shu bois, respublika shaharlarining hududiy tarkibi ularni geografik joylashuvi, mintaqaning qaysi qismida shakllanganligi asosida ajratildi.

Chunonchi, uning g'arbiy rayoni 8 ta (Qo'ng'iro't, Oqshalak, Oltinko'l, Elobod, Jasliq, Qoraqalpog'iston va Shumanay) shahar manzilgohlarini o'z ichiga olib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi jami shahar aholisining (82,4 ming kishi) 9,4 foizi istiqomat qiladi. G'arbiy rayon hissasiga Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotining 3,8 foizi mos keldi. Ushbu rayonning o'sish qutb va markazi Qo'ng'iro't shahri (37,1 ming kishi), shaharlashuv jarayoni asosan yoqilg'i va kimyo sanoati hisobiga

ortib bormoqda. Jumladan, kimyogarlar shaharchasi – Elobod (2006-y.) kaustik soda ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonada negizida barpo etilgan bo‘lsa, Surg‘il gaz koni asosida Ustyurtda respublikamizda ikkinchi yirik gaz-kimyo majmuasi shakllanmoqda. Ushbu korxonada yiliga 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gaz qayta ishlanib, 3 milliard 700 million kub metr gaz, 390 ming tonna polietilen, 80 ming tonnadan ortiq poliropilen, 100 ming tonnadan ziyod piroliz benzini va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shaharlar hududiy tizimida mintaqaning markaziy va janubiy rayonlari yetakchilik qilsa, Orol dengizi bilan tutash shimoliy rayonda eng past 13,2 ming kishi (jami shaharliklarning 1,4 foizi). Urbanizatsiya darajasining ushbu hududiy tafovutlari tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi bo‘lib, u bundan keyin ham davom etadi. Sababi, ekologik vaziyatning tangligi tufayli aholining migratsion qo‘nimligi bu yerda muntazam salbiy natijalarga ega. Shimoliy shahri-Mo‘ynoqda 1989-yilda 17 ming aholi yashagan bo‘lsa, 2016-yilga kelib, u yaqin 4 ming kishiga kamaydi. Rayon Qoraqalpog‘iston sanoat mahsulotining 3,9 foizini beradi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita Orol muammosi bilan bog‘liq.

Mintaqaning markaziy qismi Nukus, Qoratorov, Oqmang‘it, Taxiatorov, Kegeyli, Xalqobod, Qozonketgan, Qonliko‘l, Xo‘jayli, Vodnik singari shahar manzilgohlarini birlashtiradi. Bu Qoraqalpog‘istonda urbanistik bosimi yoki sig‘imi ancha katta “shaharlashgan” rayon hisoblanadi. Markaziy rayonning qulay tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog‘liq holda, shaharlar to‘ri nisbatan zichroq. Mintaqaning ayrim shaharlari singari 2005-yilda Taxiatorov migratsiyaning manfiy saldosi natijasida o‘rta shaharlar qatoridan tushib qoldi. Garchi Taxiatorov bu toifadan tushgan bo‘lsa-da, Qoraqalpog‘iston o‘rta shaharlar soni (To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Chimboy, Beruniy) jihatidan O‘zbekistonda hamon yetakchi hisoblanadi. Ayni paytda Taxiatorov is-siqlik elektr stansiyasida 742 million dollar hajmidagi ikkita bug‘-gaz qurilmasini o‘rnatish ishlari boshlangan.

2001-yil qurib ishga tushirilgan Uchquduq-Sultonuvays-Nukus temir yo‘lining o‘tishi bilan mazkur rayonning transport geografik o‘rni yanada yaxshilandi, yangi bekat, razyezd kabi infratuzilma obyektlari shahar manzilgohlarining vujudga kelishi uchun asos

yaratdi. Shahar tashkil qiluvchi omillarning rivojlanishi mineral xom ashyolarni o'zlashtirish imkoniyatini berdi. Shahar aholisining 51,5 foizi, sanoat mahsulotining 44,0 foizi mazkur sektorga mos keladi. Rayon asosini Nukus-Xo'jayli sanoat tuguni va shu nomdagi shakllanayotgan shahar aglomeratsiyasi tashkil qiladi.

Markaziy rayonda oziq-ovqat, to'qimachilik, energetika sanoati, shahar atrofida qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Sanoatning hududiy tarkibi o'ziga xos: taxminan 25,8 foiz sanoat mahsuloti Nukus shahriga, 6,5 foizi energetiklar shahri – Taxiatoshga to'g'ri keladi. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi 39,3 va 13,8 foizga teng. Iqtisodiyotning rivojlanishida Taxiatosh IES, Nukusda oziq-ovqat sanoati (konserva, o'simlik yog'i) ishlab chiqarishi tovar ahamiyatiga ega.

Markaziy rayonning sharqiy qismiga Chimboy shahri va Qorao'zak, Taxtako'pir shaharchalari mos kelib, hududning shaharlashuv sig'imi juda past, "inqirozli" rayon sanaladi. Uning Qoraqalpog'iston Respublikasida tutgan o'rni: maydoni 17,5 foiz, aholisi 11,4 foiz, sanoati 2,5 foiz. Asosiy shahri Chimboyda 51,9 ming aholi yashaydi. Rayonning urbanistik ahamiyati past, shahar hosil qiluvchi omillar ta'siri kuchsiz va investitsiya muhiti ham yaxshi emas. So'nggi yillarda Janubiy Koreya sarmoyalari hisobidan loyiha quvvati 1 mln. t. bo'lgan Quyi Amudaryo mintaqasida yagona yirik sement zavodi barpo etilmoqda.

Janubiy rayon tarkibiga Mang'it, Jumurtau, Beruniy, Bo'lish, Bo'ston va To'rtko'l shaharlari kiradi. To'rtko'l (Petroaleksandrovsk) hozirgi mustaqil mamlakatimiz hududida ruslar asos solgan 3 ta shaharlardan biridir. Qolgan ikkitasi Kogon (Yangi Buxoro) va Farg'ona (Skobelov) hisoblanadi.

Rayonda Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar aholisining 38,5 foizi istiqomat qiladi. Bu yerda agrosanoat majmuasi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati shakllangan. Beruniyda asosan oziq-ovqat (o'simlik yog'i va un ishlab chiqarish) va yengil sanoat, Bo'stonda aroq va likyor korxonalari mavjud. Rayon Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotining taxminan 27,5 foizini ta'minlaydi. Asosiy shaharlari Beruniy (58,7 ming kishi) va To'rtko'l (60,6 ming kishi).

Viloyatdagi mavjud shahar va shaharchalarning shakllanishi va funksional xususiyatiga turli omillar ta'sir ko'rsatgan. Xususan,

Qo'ng'iroq savdo va hunarmandchilik negizida paydo bo'lgan bo'lsa, Elobod tog'-kon sanoati, energetiklar shahri Taxiatosh IES asosida vujudga keldi. 1980-yildan so'ng tashkil etilgan "yangi" shahar (Bo'ston, Shumanay, Xalqobod,) manzilgohlarining aksariyati tuman ma'muriy markazi sifatida faoliyat yuritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi markazi – Nukus shahri va uning aglomeratsiyasini uch tomondan bog'lab turuvchi Qo'ng'iroq, Chimboy, To'rtko'l yoki Beruniy kabi o'sish markazlarini shakllantirish, masalan, Nukus, Nukus-Chimboy, Nukus-Qo'ng'iroq temir yo'li va ularning ta'sir zonasida o'ziga xos yo'laklarni barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolda mintaqani kesib o'tgan Uchquduq-Sultonuvays-Miskin-Nukus temir yo'lining ta'sir doirasida shaharlar to'ring kengayishi kutiladi. Xususan, To'rtko'lda Miskin shaharchasi Uchquduq-Sultonuvays-Miskin-Nukus, Chimboyda Ayteke shaharchasi Nukus-Chimboy temir yo'li tugunida mintaqaning o'sish markazlari sifatida rivojlanadi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasiga mamlakatimiz tomonidan turli imtiyozlar, xususan, transport va boshqa infratuzilmalarni barpo etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qo'shma korxonalarni yaratish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mintaqadagi o'sish qutb va markazlarini rivojlantirish davlat tomonidan maxsus ishlab chiqilgan dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Quyil Amudaryo mintaqasi shahar manzilgohlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.*
2. *Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibini yoriting.*
3. *Nima uchun Xorazm viloyati shaharlari tor ixtisoslashuvga ega?*
4. *Quyil Amudaryo ekologik vaziyatining shaharlar taraqqiyotiga ta'sirini baholang.*
5. *Mintaqa yangi shaharchalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qiling.*

# I LOVALAR

*1-ilova*

**O‘zbekiston Respublikasi shaharlarining tashkil topgan vaqti va aholi soni (ming kishi)**

№	Shaharlar	Tashkil topgan yili	1959	1970	1990	1995	2000	2016
<i><b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b></i>								
1	Nukus	1932	31,9	74,1	175,0	189,0	206,7	286,5
2	Beruniy	1962	-	20,4	41,0	44,6	47,3	55,9
3	Qo‘ng‘irot	1969	-	11,1	35,0	33,3	35,2	37,1
4	Xo‘jayli	1926	20,5	36,4	64,0	65,0	69,2	67,8
5	Mo‘ynoq	1963	10,4	10,2	17,0	13,7	13,6	12,8
6	Taxiatosh	1953	6,0	19,3	45,0	49,3	51,5	47,5
7	To‘rtko‘l	1973	10,5	18,3	40,0	45,0	48,6	58,2
8	Chimboy	1926	16,0	18,9	35,0	31,9	33,1	50,4
9	Xalqobod	1986	-	-	9,8	10,9	11,6	14,6
10	Mang‘it	1973	-	-	25,0	26,3	30,5	33,2
11	Shumanay	1983	-	-	13,0	12,5	12,6	14,0
12	Bo‘ston	1983	-	-	15,0	10,9	13,1	14,4
<i><b>Andijon viloyati</b></i>								
1	Andijon	IX asr	130,9	188,0	310,0	307,4	334,3	398,2
2	Asaka	1937	20,4	28,5	46,0	48,7	54,8	62,2
3	Qorasuv	1980	23,7	27,6	20,0	23,2	25,6	33,0
4	Xonobod	1972	-	3,6	33,0	25,4	25,3	27,0
5	Shahrixon	1970	-	10,3	44,0	52,1	58,2	71,4
6	Oxunboboev	1975	-	-	15,0	17,4	19,6	24,0
7	Poytug‘	1980	-	-	26,0	21,9	24,1	26,0
8	Qo‘rg‘ontepa	1976	-	6,9	22,0	23,3	25,2	30,8
9	Marhamat	1974	-	-	17,0	11,0	11,7	13,6
10	Paxtaobod	1975	-	-	25,0	20,6	22,1	34,4
11	Xo‘jaobod	1981	-	-	15,0	14,5	16,2	20,2
<i><b>Buxoro viloyati</b></i>								
1	Buxoro	Eramiz-gacha IV asr	69,8	111,0	240,0	238,0	239,1	247,4



2	G'ijduvon	1972	10,0	15,5	32,0	35,3	37,1	43,4
3	Kogon	1929	21,1	34,1	57,0	51,3	52,9	57,8
4	Olot	1982	-	-	12,0	11,1	11,8	13,2
5	Galaosiyo	1932	-	-	11,0	12,4	10,3	12,6
6	Vobkent	1981	-	-	13,0	14,0	14,8	17,8
7	Qorako'l	1980	2,7	4,5	19,0	18,6	19,6	22,3
8	Qorovulbozor	1981	1,6	3,7	10,0	7,8	9,6	9,2
9	Gazli	1977	1,5	7,0	11,0	8,8	8,9	8,1
10	Romitan	1981	-	-	10,0	11,7	11,1	14,3
11	Shofirkon	1995	-	-	11,3	11,6	12,4	14,0
<i>Jizzax viloyati</i>								
1	Jizzax	X asr	15,7	26,8	115,0	123,0	128,9	161,3
2	Dashtobod	1974	19,0	22,6	16,0	17,8	20,2	36,5
3	G'allaorol	1973	-	-	16,0	20,0	21,4	24,7
4	Marjonbuloq	1980	-	-	4,0	3,2	3,6	5,7
5	Do'stlik	1983	-	-	12,0	15,1	16,0	18,3
6	Gagarin	1974	-	-	24,0	20,2	19,4	15,2
7	Paxtakor	1974	-	-	18,0	17,6	18,2	23,9
<i>Navoiy viloyati</i>								
1	Navoiy	1958	5,4	61,9	120,0	113,0	140,9	131,0
2	Uchquduq	1978	-	18,9	30,0	25,1	26,1	26,8
3	Qiziltepa	1979	-	-	10,0	11,1	12,0	12,2
4	Nurota	1976	-	-	22,0	24,1	26,6	32,3
5	Zarafshon	1972	-	14,7	55,0	49,3	53,3	62,3
6	Yangirabot	1998	-	-	-	-	14,9	17,0
<i>Namangan viloyati</i>								
1	Namangan	1910	123,5	175,3	310,0	354,0	386,2	467,9
2	Kosonsoy	1973	9,5	19,5	37,0	36,3	40,7	50,9
3	Uchqo'rg'on	1969	-	16,8	32,0	27,1	29,2	40,0
4	Chortoq	1976	-	-	40,0	41,9	45,49	53,4
5	Chust	1969	-	27,5	-	55,0	60,7	69,1
6	Haqqulobod	1974	-	-	15,0	23,8	25,4	27,0
7	Pop	1980 !	-	-	29,0	18,0	20,5	26,9
